

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**BUXORO OZIQ – OVQAT VA ENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI
INSTITUTI**

«MENEJMENT» KAFEDRASI

SUG'URTA ISHI

fanidan

MA'RUZALAR MATNI



BUXORO 2007

Ushbu ma`ruzalar matni 5340200 – «**Menejment**», 5140900 – «**Kasbiy ta`lim - Menejment**», 5140900 – «**Kasbiy ta`lim - Iqtisodiyot**» ta`lim yo`nalishidagi talabalar uchun mo`ljallangan.

Tuzuvchilar: Katta o`qituvchi **Saidov M.**
Assistent **Tag'oev A**

Taqrizchi: I.F.N. dotsent **Ulashev X. A.**

Ushbu to'ldirilgan va qayta ishlangan ma`ruzalar matni institut o`kuv-uslubiy kengashining «___»_____ 200_ yil ____-sonli yig'ilishida muxokama qilingan va tasdiqlangan.

1-Mavzu : Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.

Reja:

1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati va funktsiyalari.
2. Sug'urtani turkumlashtirish asoslari.
3. Sug'urta bozori va uning tarkibiy tuzilishi

1.Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati va funktsiyalari.

Sug'urtani ijtimoiy munosabatlar tarixiy kategoriyalaridan biridir. U jamiyat qurilishining ilk davrlaridan yuzaga kelib, asta-sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas xamroxiga aylandi. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi "qo'rquv" ("strax") so'zi bilan bog'liqdir. Mulk egalari bir-birlari bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishar ekanlar, mulkning saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong'in, o'g'irlik va ijtimoiy xayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf xatarlari natijasida yakson bo'lishi yoki yo'qotilishiga nisbatan qo'rquv xis etganlar. Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun xavotirlanishning asosiy sababchisidir. SHu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi. Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlari ximoyasining asosiy vositasiga aylandi. Sug'urta - ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal ishlab chiqarish jarayonining muxim sharti uning uzluksizligi va to'xtovsizligi xisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimo yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda xam mavjud extiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulotda xodisalarning salbiy oqibatlari ta'sirida to'xtasa yoki buzilsa, u xolda jamiyat avvalo turli xil oldini olish karatilgan tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u xolda etkazilgan moddiy zararni qoplashga, ish kuchini ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Inson va tabiat o'rtasidagi qarama qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish xamda etkazilgan zararni yuzaga keltiradi. Bu ob'ektiv munosabatlar insonlarning erishgan xayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud extiyojini aks ettiradi. Mazko'r munosabatlarni aloxida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishning sug'urtaviy ximoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashqil etadi. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi xisoblanadi. Ammo, moliya to'laligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarigina qamrab oladi.

Sug'urtaning xususiyatlarini olib boruvchi belgilarni quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urtada to'satdan, oldindan ko'zda tutilmagan va yozib bo'lmaydigan xolatlar, ya'ni sug'urta xodisalari extimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi qayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi:

2. Sug'urtada ko'rilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar o'rtasida qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli zarar ko'ruvchi xo'jaliklar soni sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bo'lishi extimolligiga asoslanadi, ayniqsa ishtirokchilar soni etarli bo'lganda.

Zararni bunday qoplashni tashqil qilish uchun maqsadli yo'naltirilgan sug'urta fondi tashqil qilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining bazalari xisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari faqatgina uni tashqil qilganlar o'rtasida ishlatiladi, sug'urta bazasining xajmi esa xar bir qatnashchining zararni qoplashdagi ulushini bildiradi. SHuning uchun, sug'urta qatnashchilarining doirasi qanchalik keng bo'lsa, sug'urta bazasining xajmi shuncha oz va sug'urta xam samarali bo'ladi.

3. Sug'urta zararni qoplashni xududiy birlik va ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda yil davomida sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta fondini xududlar bo'yicha samarali qayta taqsimlash uchun etarli katta xudud va sug'urtalashga tegishli ob'ektlar talab qilinadi.

Sug'urtaning iqtisodiy moxiyatiga uning funktsiyalari mos keladi.

Sug'urtaning to'rtta funtsiyasi mavjud:

1. Tavakkalchilik
2. Oldini olish
3. Jamg'arish
4. Nazorat

Tavakkalchilik funktsiyasining amal qilishi davomida sug'urta ishtirokchilari o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta xodisalari oqibatlarini bog'liq pul shaklidagi qiymatning qayta taqsimlanishi ro'y beradi.

Oldini olish funktsiyasi sug'urta fondi mablag'larining bir qismi xisobidan sug'urta tavakkalchiligini kamaytirish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan kamaytirish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Xayot sug'urtasida sug'urta kategoriyasi kredit kategoriyasi bilan xayotni ma'lum muddatgacha sug'urtalash shartnomalari bo'yicha mablag'larni jamg'arishda ancha yaqinlashadi. Xayot sug'urtasi orqali pul mablag'larini jamg'arish oilaviy sharoitida sug'urtaviy ximoyaga bo'lgan extiyoj bilan bog'liqdir.

Sug'urtaning nazorat funktsiyasi sug'urta fondining ka'tiy maqsadli shakllantirilishi va uning mablag'laridan tug'ri foydalanishidan iborat. Mazko'r funktsiya yuqoridagi o'z-o'ziga xos funktsiyalardan kelib chiqadi va konkret sug'urta munosabatlarda ular bilan birga namoyon bo'ladi. Sug'urta ixtisoslashtirilgan sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning faoliyat doirasi ichki, tashqi yoki aralash sug'urta bozorlarini qamrab olgan bo'lishi mumkin. SHu bilan birga rivojlangan sug'urta bozori sharoitida xam davlat ichkarisida, xam chetda amalga oshirilishi mumkin. Bu sug'urtaning

tashqiliy turkumlanishidir. Ammo, sug'urta munosabatlarining mazmuni sug'urta ob'ekti va xavf-xatari turlari bo'yicha turkumlanishi yordamida namoyon bo'ladi. Sug'urta sug'urtalanuvchilarning turli toifalarini qamrab oladi.

Uning shartlari sug'urta mas'uliyatining xajmlari bo'yicha farq qiladi: u qonun kuchida va ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin.

2. Sug'urta turkumlashtirish asoslari.

Sug'urta munosabatlarining turlichaligining tartibga solish va o'zaro bog'liq yagona tizimini shakllantirish uchun sug'urtani turkumlash zarurdir.

Sug'urtani soxalarga bo'lish asosida ularning ob'ektlari bo'yicha farqlanishi yotadi. Bu omilga mos ravishda barcha sug'urta munosabatlari yig'indisini to'rtta tarmoqqa bo'lish mumkin.

1. Mulkiy sug'urta
2. SHaxsiy sug'urta
3. Javobgarlik sug'urta
4. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Mulkiy sug'urta ob'ekti bo'lib moddiy qiymatliklar xisoblanadi. SHaxsiy sug'urtada- fuqarolarning xayoti, sog'ligi, mexnat qobiliyati. Javobgarlik sug'urtasida - ob'ekt bo'lib sug'urtalanuvchilarning turli javobgarliklari, ma'suliyatlari xisoblanadi. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida esa, ob'ekt vazifasini tadbirkorlik ishlari bo'yicha turli tavakkalchiliklar bajaradi.

Sug'urtalanuvchilarni sug'urtalovchilar bilan sug'urta munosabatlariga kirishi va sug'urtalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida sug'urta tarmoqlarini konkret sug'urta turlariga bo'lish zarurati paydo bo'ladi. SHaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urtaning quyidagi turlari amalga oshiriladi: xayotni aralash sug'urtasi, o'lim xolati va mexnatga layoqatsizlikni sug'urtalash, bolalar sug'urtasi, qo'shimcha pensiya sug'urtasi, baxtsiz xodisalar sug'urtalash va boshqalar. Javobgarlik sug'urtasi bo'yicha kreditni yoki boshqa qarzlarni qaytara olmaslikdan sug'urtalash, yuqori xavf-xatar manbalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi va boshqalar. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi dastgoxlarni to'xtab qolishi, savdodagi to'xtalishlar natijasida zarar ko'rish yoki foyda olmaslik sug'urtasi, ya'ni texnika texnologiyalarni qo'llash tavakkalchiliklari sug'urtasi kabi turlarga bo'linadi. Majburiy sug'urta turlari, shartlari va uni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Tomonlarning xoxish-irodasiga muvofiq amalga oshiriladigan sug'urta ixtiyoriy sug'urta xisoblanadi. Ixtiyoriy sug'urtaning shartlari tomonlarning kelushiviga asosan belgilanadi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining xuquqlari xamda burchlari, shuningdek xar bir sug'urta turlarining shartlari tegishli sug'urta shartnomalari bilan belgilab ko'yiladi.

3. Sug'urta bozori va uning tarkibiy tuzilishi

Sug'urta bozori - bu sug'urta xolatlari ro'y berganda jismoniy va xuquqiy shaxslarni mulkiy manfaatlarini sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari xisobidan

ximoya qilishda aks etuvchi sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. Sug'urta bozorini amal qilishining asosiy shartli sug'urta xizmatlariga extiyoj (talab) va bu extiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalovchilarning mavjudligidir. Sug'urta bozori tarkibiy jihatdan tashqiliy-xuquqiy va xududiy jixatlari bo'yicha bo'linishi mumkin. Tashqiliy-xuquqiy jihatdan aktsioner, birgalikdagi, xususiy va davlat sug'urta tashkilotlaridan iborat bo'ladi. Xududiy jihatdan esa milliy, mintaqaviy va xalqaro sug'urta bozorlariga bo'linadi. Milliy sug'urta bozori birdan-bir mamlakat xududidagi sug'urta kompaniyalarini va ularning faoliyatini qamrab oladi. Bunga O'zbekiston sug'urta bozorini misol qilib olishimiz mumkin. Xozirgi kunda milliy sug'urta bozorimizda ko'plab sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan eng yiriklari davlat mulki davlat mulki ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari bo'lib, ular "O'zagrosug'urta" DASK, "Kafolat" DASK, "O'zbekinvest" eISMK, va "Madad" sug'urta agentliklaridir. Jaxondagi rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushumlarining qariyb qirq foizidan AKSH xissasiga tug'ri keladi.

Mintaqaviy sug'urta bozori deganda, savdo-iqtisodiy va boshqa jixatlardan o'zaro yong'in munosabatda bo'lgan bir nechta mamlakatlar xududlarini qamrab oluvchi bozor tushiniladi. Xalqaro sug'urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug'urta faoliyatini olib boruvchi mamlakatlarning sug'urta bozori tushiniladi. Sug'urta bozori bozor munosabatlari sub'ektlarining mustaqilligini, ularning sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha teng xuquqli xam-korligini ko'zda tutadi.

Sug'urta bozorining sub'ektlari quyidagilardan iborat.

1. O'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta ximoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar (sug'urtalanuvchilar).

2. Bunday xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar (sug'urtalovchilar).

3. Mazko'r shaxslar o'rtasidagi vositalar (sug'urta agentlari va brokerlar).

4. Sug'urtalangan shaxslar

5. Manfaatdor shaxslar (naf oluvchilar)

6. Uchinchi shaxslar.

Ichki sug'urta bozorini moliyaviy tarkibini sug'urta tashkilotlarining moddiy va moliyaviy resurslari tashqil qiladi. Sug'urta bozorining asosiy vazifasi sug'urta xizmatlariga talabni shakllantirish (marketing, reklama), shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini sotish, maqsadga muvofiq va egiluvchan tarif siyosatini olib borish, o'z infra-tuzilmasini tartibga solish xisoblandi.

Tayanch so'z va iboralar:

1. Sug'urta tushunchasi.
2. Sug'urtani boshqarish.
3. Sug'urtani funktsiyalari.
4. «Sug'urta ishi»ning yo'nalishlari.
5. Sug'urta kompaniyasi.

Nazorat uchun savollar

- 1) Sug'urtaning iqtisodiy moxiyatini tushuntirib bering?

- 2) Sug'urtaning funktsiyalari nimalardan iborat?
- 3) Sug'urtani turkumlashtirish deganda nimani tushunasiz?
- 4) Sug'urta tarmoqlar bo'yicha qanday guruxlarga bo'linadi?
- 5) Sug'urta bozorining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushuntirib bering?
- 6) Sug'urta bozorining qanday turlari mavjud?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Sug'urta faoliyati xaqida» Toshkent 2002 y
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston» 1995 y.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston» 1998y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
6. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqloq va tarakkiyot yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sobirov X.R. «Xitoyda sug'urta» (Iqtisod va xisobot, 3, 1996)
2. Sobirov X.R. «Axmoniyar davrida solik isloxoti» «O'zbekiston soliklari xabarnomasi» 1997 y.
3. **Pulov K.I. «Straxovoe delo v Rossii» M-Edma 1999 g.**
4. **Kolomina E.V. V.V.SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1998 g.**
5. **Reytmana L.I. «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1998 g.**
6. **SHaxov V.V. «Vvedenie v straxovanie» M-Finansu i statistika» 1999**

2-Mavzu : O'zbekistonda sug'urtaning rivojlanishi.

Reja:

1. Jaxonda sug'urtaning vujudga kelishi.
2. Rossiyada va Turkistonda sug'urtaning vujudga kelishi.
3. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda sug'urtaning rivojlanish xususiyatlari.

1. Jaxonda sug'urtaning vujudga kelishi.

Sug'urta tushunchasi pul va kredit tushunchalaridan oldin shakllana boshlagan. Dastlabki jamoa tuzumi davrida xar bir oila xayot uchun eng zarur ozik-ovkat zaxiralarni gamlash zaruriyatini tushuna boshlaganda, zaxiralar etarli bo'lmasa yoki biror xodisa tufayli qo'shimcha moddiy ne'matlar extiyoj sezilsa ko'shnilaridan qarz olingan, buzilgan imoratlar xashar yo'li bilan tiklangan.

Davlat yo'li bilan metaldan pul zarb qilingunga qadar, oltin va kumush vositasi bilan zaxiralar to'plangan. Asrlar davomida ko'ni ko'shnilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar qishloq va maxalla miqyosida kengaygan, sug'urta tartibiy vujudga kelganda zarar ko'lami xo'jalik uchun katta bo'lganda jabrlangan oilalarini bir axvoldan kutkar ish uchun birgalashib mablag' to'plash orqali moddiy yordam uyushtirilgan. SHuningdek savdo karvonlari uzok safarda o'grilar tomonidan talansalar, ko'rilgan zarar karvon ishtirokchilari o'rtasida taqsimlangan. Lekin keyinchalik zararlik dorini taqsimlash safar tayyogarligi ko'rila boshlaganda maxsus fond tuzilib, bu fond xisobidan faqat ko'rilgan zarar zarar emas, balki savdogarning oila a'zolari xam baxramand etilgan.

Sug'urta fondining dastlabki shakllaridan biri zakot xisoblanadi. Zakot xaqida ku'ronda bir necha marotaba eslatib o'tiladi. Masalan shunday deb ko'rsatilgan u (axlok) uzumzor bog'lar, bo'stonlar, xurmoyu, anvoyi mevali, ziroatli, zaytun, xilma-xil anorlar yaratdi. Ularni mevasi tinganda, undan tanovul qilinglar, xosil yig'ilganda uning umrini beringlar. "Ana shu tavsiyalarga asosan axolining muxtoj tabakalariga yordam berish ayniqsa tabiiy ofat oqibatlaridan kutkarish, dastlab zakot berish, keyinchalik sadaka shaklida amalga oshirilgan". "Zakotnoma" kitobida zakot sifatida to'plangan mablag'lar fakrlar, miskinlar, qarzdorlar, musofirlarga, ularning ogir axvolarini engillashtirish uchun yordam sifatida berilgani ko'rsatilgan. Bunday fakr deb o'zining kundalik extiyojlarini qoplashga xam ko'rbi etmaganlar, miskin, deb farqlarga nisbatan xam yanada nochorok insonlar ko'zda tutiladi. Bo'larning ayanchli axvollari sabablaridan biri ko'zda tutilmagan. Tabiiy ofatlar natijasida kambagallashganliklari bo'lishi mumkin, karzdorlar xaqida gap borganda, xayrli ishlarni bajaraman, deb uzrli sabablar tufayli ko'zlagan rejalarini amalga oshira olmay qarzdor bo'lib kolganlar ko'zda tutiladi.

Nafaka beriladigan musofirlarga safar jarayonida pul va moylarini yo'kotib, muxtojlikga tushganlar kiradi.

Ayrim olimlar sug'urta dastlab Evropada ko'llanilgan, degan fikrdalar. Xalqaro savdodagi mol-mulk sug'urtasi xaqida gap borganda Bobil davlatining yurtboshchisi xam murabbiy qonunlarida Melodiydan oldin fondsiz sug'urta gap borgani savdo karvonlariga etkazilgan zarar o'zaro taqsimlanib, yordam uyushtirilgani ko'rsatilgan. Bu qonun tavsiyalari xalqaro savdo yo'li bilan boshqa mamlakat savdogarlari kavonlariga xam tarkalgan, xatto buyuk ipak yo'li orqali safarda bo'lgan savdogarlar bu usuldan foydalanganlar.

SHarkda Amir Temur xukmronligi davrigacha tashqi savdoda fondli va fondsiz sug'urta davom etgan. Amir Temur tashqi savdoni kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan qator tadbirlarni kengaytirish va amalga oshirishi munosabati bilan savdogarlarni tanlangan mol-mulklari davlat tomonidan tiklab beriladigan bo'lgan. Lekin tabiiy ofatlardan ko'rilgan zarar karvon ishtirokchilari zimmasiga yuklatilgan. Temuriylar xukmronligi va undan keyingi davrlarda O'zbekiston xududida tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlarni qoplashda o'zaro xamkorlikda sug'urtalash va zakot xisobidan zararni qoplash davom ettirilgan.

2. Rossiyada va Turkistonda sug'urtaning vujudga kelishi.

Evropada sug'urta soxasida 1666 yil Londonda sodir bo'lgan ulkan yong'indan keyin XVII asrdan boshlab, birinchi sug'urta assotsiatsiyalari tashqil qilinib, bunday sug'urta birlashmalari faqat Angliyada emas, balki Frantsiya, Italiya, Daniya, SHvetsiyada shakllandi. Rossiyada dastlab Ekaterina II zamonida xorijiy mamlakatlarning sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatdilar, lekin birinchi milliy sug'urta birlashmalari 1827, ikkinchisi 1833 yilda tashqil qilindi.

XX asrning boshida Turkistonda xorijiy va Rossiya xususiy sug'urta tashkilotlarining N'yu-York, "Evitel", "Urban" va boshqa nom bilan yuritilgan xorijiy va Rossiya sug'urta birlashmalarining bo'limlari tashqil qilindi. Bu jamiyat savdogarlar, fabrika-zavod egalari, yirik er egalari qarashli mol-mulklarni sug'urta qilar edilar. Ma'lumki, sho'ro xokimiyati tashqil etilishining birinchi kunlaridanoq jamiyatda mavjud bo'lgan "kapitalistik unsurlar"ni tag-tomiri bilan yo'qotishiga kirishildi.

Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta tashkilotlarini yagona tashkilotga birlashtirish sho'ro xokimiyatini mudofaa qobiliyatini mustaxkamlash va xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun davlat katta miqdorda moliyaviy resurslarga muxtojligidan kelib chiqqan edi.

1918 yilning 28 oktyabrida Xalq Komissarlar kengashi "Rossiya Respublikasida sug'urta ishini tashqil etish to'g'risida" dekret qabul qildi va mazko'r xujjat sug'urta soxasida raqobatni tugatishga yo'naltirilgan muxim qadam bo'ldi. Ushbu dekret qoidalariga muvofiq, sug'urta soxasiga davlat monopoliyasi o'rnatildi va aktsiyador xamda boshqa sug'urta jamiyatlarining mol-mulki to'raligiga davlat tasarrufiga o'tkazildi. 1924 yilda O'rta Osiyo zaminida milliy chegaralanish o'tkazilgandan keyin, O'rta Osiyo sug'urta bosh boshqarmasi tugatildi va O'zbekitson Respublikasi Moliya vazirligi tarkibida sug'urta boshqarmasi tashqil qilindi. Boshqarmaning markaziy viloyat idoralarida dastlabki yillarda 207 xodim ishladi. Sug'urta boshqarmasi o'z faoliyatini dastlab shaxsiy sug'urtani tashqil qilishdan boshladi.

Sug'urtalanganlarning 35 foizini erli millat kishilari tashqil qildi. Bo'lar orasida dexqonlarning xissasi ko'pchilikni tashqil qilar edi. SHunday qilib, axoli o'rtasida sug'urtaga qiziqish va intilish yil sayin kuchayib bordi. Lekin, sug'urtani yanada kengaytirish va rivojlantirish uchun sug'urta soxasida mutaxassis etishmas edi. SHunga qaramasdan, xo'jalik tiklashda erishilgan muvaffaqiyatlar natijasida shaxsiy sug'urta bilan birga yong'inga qarshi sug'urta, transport sug'urtasi, chorva mollari sug'urtasi va qisman qishloq xo'jalik ekinlarini sug'urtalash doirasi kengayib bordi. 1991 yilda "Mol-mulklarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan O'zbekitson Respublikasida keng miqyosida davlatga tegishli bo'lgan korxonalarini ijaraga berish, xissadorlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Iqtisodiy isloxotlar kuchli ijtimoiy siyosatni uyg'unlashtirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Ma'lumki, ilgari barcha korxonalar davlatning ixtiyorida bo'lganligi tufayli, ularni xar xil ko'ngilsiz xodisalardan sug'urtalashga extiyoj bo'lmagan. Mazko'r korxonalarga sug'urta xodisalari natijasida zarar etkazilsa, bu zararlar

davlat mablag'lari xisobidan bimalol qoplanar edi. Ammo, mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida nodavlat sektorida korxonalarni paydo bo'lishi o'z-o'zidan sug'urta xizmatlarga bo'lgan talabni sezilarli ravishda oshirdi.

3. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda sug'urtaning rivojlanish xususiyatlari.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z mustaqilligiga erishganligi sug'urta sohasida xam ilgarigi mustamlakachilik qoldiqlarini tugatishga, Respublikamizda jaxon standartiga asoslangan mustaqil sug'urta tizimini barpo etishga keng imkoniyatlar yaratildi. 1993 yilning 6 mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (hozirgi oliy majlis) "Sug'urta to'g'risida" gi qonun qabul qildi. Mazko'r qonun sug'urtani rivojlantirishning, asoslarini, Respublikani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishda sug'urtaning mavqei va o'rnini berdi, fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirilishini, shuningdek sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarini manfaatlarini ximoya qilinishi va majburiyatlarga rioya etilishini ta'minladi.

1992-1994 yillarda iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida monopoliyaga barxam berilishi va xususiylashtirish jarayoni kuchayishiga qaramasdan, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta muassasalarini ustunligi saqlanib qoldi. Mamlakatning shaxar va tumanlaridagi asosiy sug'urta operatsiyalari O'zbekiston Moliya Vazirligi xuzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi va uning joylaridagi bo'linmalari tomonidan amalga oshirildi. Agar, ushbu davrda sug'urta badallari tarkibini chuqurroq taxlil qiladigan bo'lsak, umumiy xajmda shaxsiy sug'urtaning ulushi kam ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 1991 yilda sug'urta badallarining umumiy xajmda shaxsiy sug'urtaning umumiy 38,5 foizini tashqil etgan bo'lsa, 1992 yilda mazko'r ko'rsatkich 16,2 foizni tashqil etdi. Buning asosiy sababi pulning qadrsizlanishi va o'sha paytda ijtimoiy-iqtisodiy xayotda ro'y bergan tangliklar bilan bog'liqdir.

1993-1994 yillar davomida sug'urta sohasida monopoliyadan chiqarish jarayoni bir muncha tezlashdi. 1994 yil oxirlarida mamlakat nodavlat sektorida 60 dan ortiq sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsata boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq 1994 yil 21 yanvarda O'zbekinvest milliy sug'urta kompaniyasi (1997 yil Vazirlar Maxkamasining qaroriga muvofiq "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi o'zgartirildi) tashqil etildi. Uning asosiy maqsadi respublika iqtisodiyotida eksport o'sishini yanada rag'batlantiri, O'zbekistonlik eksportlarni sug'urtaviy ximoya qilishni ta'minlash, xorijiy mamlakatlar investorlari bilan aloqa qiluvchi o'zbek investorlarining faoliyatini kuchaytirish iqtisodiyotining ustivor tarmoqlariga jalb etilayotgan chet el investitsiyalarini kompleks sug'urtaviy ximoya qilishdan iborat.

Sug'urta xizmatlari sohasini samarali rivojlantirishni ta'minlash, dexqonchilik maxsuloti etishtiruvchilarni va axolini sug'urta yo'li bilan ximoya qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi farmoniga muvofiq O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi davlat sug'urta bosh boshqarmasi negizida "O'zagrosug'urta" davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashqil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 14 martdagi karoriga muvofiq tashqil etilgan "Kafolat" Davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining asosiy faoliyat yo'nalishi shaxar axolisi xayotini, salomatligi va mol-mulkini, respublika shaxarlarida yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy va tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urta yo'li bilan ximoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

"Madad" sug'urta agentligi esa 1995 yilda tashqil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni qo'llab quvvatlashdan, ularga samarali sug'urta xizmatlari ko'rsatishdan iborat.

2002 yilning 5 aprelida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi mustaqillikdan keyingi ikkinchi qonun qabul qilindi. Mazko'r qonun respublikamizda sug'urta xizmatlari samaradorligini oshirishda muxim qadam bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Fondli sug'urta.
Sug'urta fondi.
Fondsiz sug'urta.
Sug'urta qonuni.
Zakot.

Nazarat uchun savollar

- 1) Sug'urta tushunchasi qanday kelib chiqqan?
- 2) Sug'urta dastlab qanday shakllarda amal qilib keldi?
- 3) Temur va Temuriylar davrida sug'urta qanday xususiyatlar kasb etgan?
- 4) Rossiyada sug'urtaning rivojlanish yo'nalishlarini aytib bering?
- 5) Sobik Ittifoq davrida O'zbekistonda sug'urta qanday yo'nalishlar bo'yicha tashqil etilgan?
- 6) Mustaqillik davrida sug'urta soxasida qanday o'zgarishlar amalga oshirildi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent. 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Sug'urta faoliyati xaqida» Toshkent. 2002 y
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston» 1995 y.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.

6. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sobirov X.R. «Xitoyda sug'urta» (Iqtisod va xisobot, 3, 1996)
2. Sobirov X.R. «Axmoniylar davrida solik isloxoti» «O'zbekiston soliklari xabarnomasi» 1997 y.
3. Pulov K.I. «Straxovoe delo v Rossii» M-Edma 1999 g.
4. Kolomina E.V. V.V.SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1998 g.
5. Reytmans L.I. «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1998 g.
6. SHaxov V.V. «Vvedenie v straxovanie» M-Finansu i statistika» 1999.

3-Mavzu: Sug'urta atamallari va tushunchalari.

Reja:

1. Sug'urta atamashunosligi sug'urtaning o'ziga xos munosabatlarni ifoda qiluvchi vosita sifatida.
2. Sug'urtaning tashqiliy qirralarini ifodalovchi atamalar.
3. Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'liq atamalar.
4. Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy atamalar.

1. Sug'urta atamashunosligi sug'urtaning o'ziga xos munosabatlarni ifoda qiluvchi vosita sifatida

Sug'urtada mujjassamlashadigan ko'p qirrali munosabatlar so'z atama terminlar orqali mazmunan ifoda qilinadi.

Elektron xisoblash mashinalarida atamalar formula orqali ifoda qilinadi. Formula ahamiyatini bilmagan kitobxon uni tushuna olmaydi. Sug'urtaning o'ziga xos atamallari, tushunchalari bor. Agar bu maxsus atamalar mazmunini bilinmasa, sug'urta jarayonini tushunish qiyin. Atamalar yordami bilan sug'urta munosabatlarni tashqil qiluvchilarni xuquq va vazifalari belgilanadi. Ko'p qirrali sug'urta faoliyati xam tashqil qilinadi. SHunday qilib, ko'p qirrali jarayonni shakllantirish uchun sug'urta atamalarining mazmunini yaxshi o'rganish lozim.

Sug'urta faoliyatida uning o'ziga xos atamallari bilan birga boshqa fan va iqtisodiyot soxalaridan kirgan atamalarga xam duch kelinadi.

Sug'urta faoliyatida ishtirok etadigan atamalar o'rta xisob bilan 400 ga yaqin bo'lsa, shulardan 50-60 tasi o'ziga xos sug'urta atamalaridir. Keyingi yillarda ularning soni ortib bormoqda. Kasallikdan nobud bo'lgan xayvonlarga qoplama to'lanadi, bu kasalliklarning soni 100 dan ortadi, lekin bu jarayonga ularga 20 ga yaqin sug'urta atamallari xizmat qiladilar. SHuningdek, sug'urtalanadigan o'simliklar soni 30 dan ortadi. Lekin ularga xizmat qiluvchi atamalar soni ko'p emas.

Ularning sug'urta uchun axamiyati shundan iboratki, bu atamalar sug'urta jarayonining kaliti xisoblanadi. Kalitsiz eshik ochib bo'lmagandek atamalarning mazmunini tushunmasdan sug'urta ishini boshqarib bo'lmaydi.

Sug'urta atamalarni tushunish uchun ular guruxga bo'linadi. Atamalar 4 guruxga bo'linadi. Birinchi guruxga sug'urtaning eng muxim tashqiliy qirralarini, shartlarini ifodalovchi atamalar, ikkinchi guruxga sug'urta fondini shakllanishi bilan bog'langan atamalar, uchinchi guruxga sug'urta fondini sarflanishi bilan bog'langan atamalar, to'rtinchi guruxga esa xamkor sug'urta atamalari kiradi. Xar bir gurux tarkibida 10 dan ortiq sug'urta atamalari mavjud.

Afsuski o'zbek tilining izoxli lug'atida «sug'urta» so'zi yo'q, lekin «straxovanie» so'zi bor. «Straxovanie» – rus tili lugatida, qatnashchilari tomonidan straxovanie fondi tuzib, tabiiy ofatlar, baxtsiz xodisalar natijasida etgan zararlar o'rnini qoplash, shuningdek, muayyan xodisalar yuz berishi munosabati bilan mablag'lar to'lash sistemasi. S.Ayniy «Estaliklarida sug'urta atamasi o'rniga» straxovanie so'zi ishlatilgan, I.Ojegovning mashxur rus terminlarining izoxli lug'atida ko'rsatilishicha «straxovanie» deganda biror buyum narsani xavfli yoki ko'ngilsiz xodisadan asrash, mablag' to'plash, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zarardan asrash, sodir bo'lganda qoplash uchun pul jamg'armalarini shakllantirish tushuniladi.

Sug'urta atamasi xaqida faqat o'zbek tilida emas, balki boshqa tillardan xam aniqlik yo'q. SHu sababli Lyuksemburg shaxrida 1960 yilda xuquq kongressida sug'urtaning kelib chiqishi qatnashuvchilarning diqqat markazida bo'lgan.

Bunda sug'urta atamasining ildizini «bir kishi xamma uchun, xamma bir kishi uchun» tamoyillaridan axtarib, jamoa bo'lib sug'urta fondi tashqil qilish zararlarini qoplashda aloxida xo'jalik uchun arzonga tushishi, zararlarini barcha sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlanganligi qayd qilingan. Kongressda dexqonlar, xunarmandlar tabiiy ofatlar natijasida uzil-kesil xonavayron bo'lmasliklari, o'z xo'jaliklarini tiklash uchun o'zaro fond tashqil qilishlari ko'rsatib o'tilgan. Uning xisobidan zararlar arzon va qulay qoplangan. SHunday qilib kongressda sug'urta so'zini xavf-xatar, daxshat, qo'rquv va boshqa ma'nolarni bildirishi, shuningdek, sug'urta ko'rsatilgan ruxiy xolatlarga tushishga majbur qilgan xarajatlarni qoplash bilan bog'langan iqtisodiy munosabatlarni ifoda qilishi ta'kidlab o'tilgan.

2. Sug'urtaning tashqiliy qirralarini ifodalovchi atamalar.

Sug'urta faoliyatini tashqil qilish bilan bog'langan atamalar sug'urta faoliyati xaqidagi qonunda ko'rsatilgan. Bu atamalarga quyidagilar kiradi.

- *Sug'urtalanuvchi*
- *Sug'urtaning ob`ekti*
- *Sug'urta ximoyasi*
- *Sug'urta manfaatdorligi*
- *Sug'urta javobgarligi*
- *Qayta sug'urta qilish*

- *O'zaro sug'urta qilish*
- *Sug'urta vaqillari*
- *Sug'urta guvoxbomasi*
- *Sug'urta qoplamasini oluvchi.*

quyida xar bir atamaga aloxida-aloxida to'xtalib o'tamiz.

*** Sug'urtalanuvchi.** Sug'urta qiluvchi tashkilot tabiiy ofat yoki boshqa ko'zda tutilmagan sabablar natijasida ko'rilgan zararlarni sug'urta xaqidagi qonun yoki sug'urta shartnomasi asosida shartlar ko'zda tutib qoplashni o'z zimmasiga oluvchi tashkilotlar. Sug'urta tashkilotlarining «O'zagrosug'urta», «Kafolat», «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi kabi turlari mavjud. SHuningdek xususiy sug'urta tashkilotlari kiradi.

O'ziga tegishli mol-mulkni sug'urta qildirgan korxona, xo'jalik tashkiloti yoki o'z xayotini sug'urtalovchi fuqarolar sug'urtalanuvchi xisoblanadilar. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tashkiloti ro'yxatidan o'tgan mol-mulk egalari yoki ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnoma tuzib, sug'urta badalini to'laganlar sug'urtalanuvchilar qatoriga kiradi.

*** Sug'urtaning ob'ekti.** Mulk sug'urtasida ob'ekt sifatida moddiy boyliklar mol-mulk ko'zda tutilsa, shaxsiy sug'urtada fuqarolarni xayoti sog'ligi va mexnat qobiliyati ko'zda tutiladi. Sug'urta predmeti ana shu ob'ektlarni tarkibiy qismlaridir. Masalan, qishloq xo'jaligi sug'urtasi ob'ekti bo'lib, ekinlar xosili, chorva mollarining soni mol-mulk turlari, binolar, inshootlar, transport vositalari sug'urta predmeti xisoblanadi.

Uy-joyda saqlanuvchi mol-mulklar ob'ekt bo'lsa, uy ro'zgor buyumlari, mebellar, gilamlar, televizorlar bu sug'urtaning predmeti xisoblanadi. SHaxsiy sug'urta predmeti bo'lib, ma'lum yoshga etish, mexnat qobiliyatini yo'qotish va vafot xodisalari misol bo'ladi.

***Sug'urta ximoyasi.** Sug'urta ximoyasi favqulotda ko'zda tutilmagan ofatlardan ximoya qilishni muxim shartlaridan xisoblanadi. Qadim zamonlardan shaxarlar tashqil etilganda xujumlardan ximoya qilish uchun devorlar ko'rilgan va sug'urta ximoyasi xam bo'lgan. Bu moddiy jixatdan sug'urta fondidir. Sug'urta ximoyasi faqat fond emas, balki etkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'langan taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarini o'zida mujjassamlashtiradi. Bu munosabatlar respublika shaxar, tumanlar miqyosidagi ob'ektlarga etkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan ximoyalashni ko'zda tutadi. Bunday ximoyalash axoliga tegishli mulklarni xar xil sug'urta xodisalaridan asrashga yordam beradi. Bunday ximoyalash sug'urtaning ogoxlantirish funktsiyasida o'z ifodasini topadi.

*** Sug'urta manfaatdorligi.** Sug'urta masalalari bilan shug'ullanish unga nisbatan manfaatdorlikdan boshlanadi. Ishlab chiqarishni xavf-xatardan xoli emasligi sababli sug'urtalash masalalariga qiziqish boshlanadi, chunki sug'urta ob'ekti zararlanganida sug'urtalanuvchiga zarar so'mmasi beriladi. Bu so'mmani sug'urta qoplamasi deb ataladi. Cug'urtalanuvchi ko'rgan zarar uchun olgan qoplamasi sug'urtalanuvchida sug'urta so'mmasini olishdan manfaatdor bo'ladi.

***Sug'urta javobgarligi.** Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining qonunda yoki shartnomada ko'zda tutilgan javobgarligi, o'z zimmasiga olgan

majburiyatlari, vazifalari. Agar ko'rsatilgan xodisalardan biri sodir bo'lsa, u xolda sug'urta organlari o'z zimmasiga olgan majburiyat asosida sug'urta qoplamasi to'laydilar, masalan xayotni aralash sug'urtasida 3 xil sug'urta javobgarligi belgilangan. SHulardan biri shartnomada ko'zda tutilgan yoshga etish, baxtsizlik xodisalaridan birining sodir bo'lishi vafot xodisasidir. Bu xodisalardan biri sodir bo'lsa, sug'urta tashkiloti sug'urta qoplamasini to'lash uchun javobgar xisoblanadi. SHuni ta'kidlash kerakki, davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'zda tutilgan javobgarlik xususiy sug'urta tashkilotlarida ko'zda tutilgan javobgarlikdan farq qiladi. Bundan tashqari xar bir sug'urta tashkiloti sug'urtaning xar bir turi bo'yicha o'z javobgarligini o'zi belgilaydi.

*** Qayta sug'urta qilish.** Sug'urtalovchi shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini butunlay yoki qisman boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ga o'tkazish yoki qayta sug'urta qilish.

Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining roziligi bilan asosiy shartnomani o'zgartirmasdan turib sug'urta shartnomalari asosida o'zining javobgarligini to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan boshqa sug'urta tashkilotlariga topshirib, qayta sug'urta qildirishidir. Sug'urta voqeasi (sug'urta xodisasi) yuz berganda qayta sug'urtalagan tashkilot shartnomaga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatlar doirasida javobgar bo'ladi.

*** Birgalikda sug'urta qilish.** Birgalikda sug'urta qilishda ikki yoki undan ortiq sug'urta tashkiloti bitta sug'urta shartnomasi tuzadi. Bunda shartnomada xar bir sug'urtalovchining xuquq va majburiyatlarini belgilovchi shartlar bo'lishi lozim.

*** Sug'urta agenti.** Sug'urta tashkilotining uning nomidan va uning topshirig'i bilan shartnomalar tuzuvchi shtatsiz xodimi.

*** Sug'urta guvoxnomasi.** Sug'urta tashqil etilganligiga guvoxlik beruvchi xujjat. Ixtiyoriy sug'urtada bunday xujjatlar birinchi badal to'langandan keyin beriladi. Sug'urta guvoxnomasida sug'urtalangan shaxsning ismi, familiyasi, sug'urta so'mmasi yoki qoplamasi sug'urta tarifi, sug'urta badali va boshqa ma'lumotlar ko'zda tutiladi.

*** Sug'urta qoplamasini oluvchi.** Sug'urta qoidalari yoki shartnomalarda ko'zda tutilgan, sug'urta xodisalari sodir bo'lganda yoki boshqa sabablar tufayli sug'urta tashkilotlaridan ma'lum miqdorda qoplama oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar. SHirkat va fermer xo'jaliklarida bu mablag'lar ularning xisob raqamlariga o'tkaziladi.

Sug'urta fondi asosan sug'urta badallari xisobidan shakllanadi. Sug'urta badali milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida ajralib chiqib, maxsus sug'urta fondi tarkibiga kiradi.

YUridik shaxslar, fuqarolar o'z daromadlarining bir qismini sug'urta to'lovi sifatida sug'urta tashkilotlari ixtiyoriga o'tkazadilar.

Sug'urta fondining sug'urta badallari xisobidan shakllanishi o'ziga xos jarayon bo'lib, u badal miqdorini aniqlash bilan bog'liq qator tushunchalarga egadir. Bu tushunchalarga quyidagilar kiradi:

- sug'urtaviy baxolash
- sug'urta ta'minoti

- sug'urta so'mmasi
- sug'urta tarifi
- sug'urta muddati
- sug'urta yoshi
- sug'urta boqimandasi
- sug'urta to'lovi

Sug'urtaviy baxolashi mol-mulk sug'urtasida qo'llaniladi. Sug'urtaviy baxolash asosida sug'urta ob'ektlarining qiymati aniqlanadi. Bu asosda sug'urta badallari xisoblanadi. Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

* O'rtacha besh yillik yoki uch yillik xosil. Bu ko'rsatkich ekinlarga nisbatan qo'llaniladi. O'rtacha xosil belgilangandan keyin u natura o'lchovidan pulga aylantiriladi.

* Balans qiymatida (chorva mollariga nisbatan qo'llaniladi).

* Balans baxosida (eskirgan miqdorini chiqarib tashlab) – binolar, mashinalar, transport vositalari.

* Inventarizatsiya baxosida fuqarolarning turar joylari, kommunal xo'jaligi organlari tomonidan aniqlanadi.

* **Sug'urta ta'minoti.** Sug'urta ta'minoti – bu sug'urta xodisasi sodir bo'lganda mavjud belgilangan tartib asosida zararlarni xisoblash va bu asosda qoplama miqdorini belgilash usulidir. Amalda sug'urta ta'minotining 3 tizimi mavjud:

- *Sug'urta ta'minotining nisbiy (proportsional) tizimi.*
- *Birinchi xavf tizimi*
- *CHegaralangan sug'urta ta'minoti.*

Birinchi tizimda sug'urtalanuvchi ko'rgan zararning xammasi emas, balki sug'urta qilingan qismi to'lanadi, ya'ni zararning sug'urtaviy baxosiga nisbatan nisbiy qismi belgilanadi. Masalan, savdo tashkiloti magazinidagi tovarlar 50 ming so'mlik ulardan 40 ming so'mlik tovarlar (ya'ni 80 foiz) sug'urtalangan. YONG'in natijasida 20 ming so'mlik mol yonib ketgan. Sug'urta ta'minoti 20 mingning 80 foizi, ya'ni 16 ming so'mga teng. qolgan 20 foizini savdo tashkilotining o'zi qoplaydi.

Birinchi xavf tizimida sug'urtalanuvchi shaxs o'z mol-mulkining xammasini yoki bir qismini sug'urta qildirishi mumkin. Ayrim xollarda zarar miqdori sug'urtalangan so'mmadan ortiq bo'lishi mumkin. Ana shu ortgan qismiga sug'urta ta'minoti berilmaydi. Masalan, uy-ro'zgor buyumlarining qiymati 50000 so'm. Mazko'r anjomlarning 30000 so'mi sug'urtalangan. Lekin yong'in natijasida 40000 so'm zarar etgan. Sug'urta ta'minoti 30000 so'mni tashqil qiladi va uni birinchi xavf deb ataladi. qolgan qismi 10000 so'm sug'urta yo'li bilan qoplanmaydi. Uni ikkinchi xavf deb ataladi. U uy-ro'zgor egasiga xavola qilinadi.

* **Sug'urta so'mmasi.** Sug'urta ob'ektining xaqiqatda sug'urtalangan qismining pul shaklidagi xajmi. Majburiy sug'urtada sug'urta so'mmasi sug'urta ob'ektining xajmi va sug'urta ta'rifi asosida xisoblanadi. Ixtiyoriy shaxsiy

sug'urtada so'mmasi sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanib chipta baxosi tarkibiga kiritiladi.

Mulkiy sug'urtasida bu atama sug'urtasi ta'minotining pullik ifodasi xisoblanadi. Masalan, binoning umumiy baxosidan amortizatsiya miqdori chegirib tashlansa, sug'urta so'mmasi 30 ming so'm deb faraz qilayliq. Agar mulkka etkazilgan zararni 100 foizini tashqil qilsa, sug'urta so'mmasi 30 ming so'mni tashqil qiladi.

* **Sug'urta ta'rifi.** Sug'urta so'mmasi miqdoriga qarab xisoblanadigan badalning foiz stavkasi. Tarif miqdori asosan foiz yoki so'mma miqdorida belgilanadi. Maxsus adabiyotda bu stavka brutto ta'rif deb ataladi, u 2 qismga bo'linadi: 1.Netto ta'rifi. 2.YUklama. Netto ta'rifi asosida xisoblangan qoplama zararlarni qoplashga sarflanadi. YUklama xisobidan sug'urta bo'yicha boshqarish xarajatlariga mablag' ajratiladi. Sug'urta ta'rifi asosida sug'urta to'lovlari xisoblanadi, sug'urta to'lovlari bir yo'la yoki bo'lib to'lanishi mumkin.

* **Sug'urta muddati.** Sug'urta ob'ektlarining qancha vaqtga sug'urta qilingani. Majburiy sug'urta mol-mulkka nisbatan muddatsiz sug'urta xisoblanadi. Mol-mulkdan qancha muddatga foydalanilagan bo'lsa, shu muddatga sug'urtalangan xisoblanadi. Ixtiyoriy mulkiy va shaxsiy sug'urtada sug'urta muddati qancha vaqtga sug'urta qilingani shartnomada ko'rsatiladi, shunga qarab sug'urta to'lovlari xisoblanadi. Lekin sug'urta muddatidan uning amal qila boshlash muddatining boshlanishi tushunchalarini farq qiladi. Sug'urta muddati sug'urta to'lovining birinchi badali to'langan davrdan boshlanadi.

* **Sug'urta yoshi.** Sug'urta yoshi deganda sug'urtalanuvchi fuqarolar yoki chorva mollarining yoshi (biologik kattaligi) ko'zda tutiladi. Xar bir shaxsiy sug'urta ob'ekti bo'yicha masalan fuqarolarning qaysi yoshidan boshlab qaysi yoshgacha sug'urta qilininishi, chorva mollarining qaysi yoshidan sug'urtalash boshlanishi ko'zda tutiladi. Qo'shimcha pensiya tayinlash bo'yicha sug'urta badallari xar bir yosh bo'yicha ko'rsatiladi. Maktab o'quvchilarini sug'urtalashda ularni yoshlari emas, balki sug'urtalangan yili ko'zda tutiladi. Xozirda aralash sug'urta bo'yicha shartnoma 16 yoshdan 70 yoshgacha bo'lib, shartnoma 3 yil muddatga tuziladi. Chunki sug'urta chegarasi 75 yosh qilib belgilangan.

* **Sug'urta boqimandasi.** Sug'urta badallarini to'lash muddatlari majburiy sug'urta bo'yicha dastur amalda, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha esa sug'urta shartnomasida ko'rsatiladi. Agar badal belgilagan to'lov muddatida to'lanmasa, u xolda to'lov boqimandaga aylanadi. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lanmagan to'lov shartnomani bekor qilinishiga asos bo'ladi. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha to'lov muddatlari Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. O'z vaqtda to'lanmagan to'lov boqimandaga aylanadi, xar bir kun uchun peniya xisoblanadi.

* **Sug'urta to'lovi.** Sug'urta ta'rifi asosida xisoblangan sug'urta badali. Sug'urta to'lovi sug'urtalangan mol-mulkning xususiyati va egaligiga qarab bir yoki bir necha ob'ekt bo'yicha xisoblanish mumkin. SHirkat yoki fermer xo'jaliklarida sug'urta to'lovlari xosil, chorva mollari, imoratlar va boshqa mol-mulklar bo'yicha xisoblanib, ularning jami sug'urta to'lovining umumiy miqdorini tashqil qiladi. Agar bir xovlidagi turar joylarda bir necha kishi egalik qilsa,

ob`ektlarni xajmiga qarab sug'urta to'lovi taqsimlanadi. Sug'urta tashkilotlarining muxim vazifalaridan biri xisoblangan sug'urta to'lovlarini o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash xamda, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urtalanganlarni muddatidan oldin o'gohlantirishdan iborat.

3. Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'liq atamalar.

Respublikamiz xududida xar yili majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari xisobiga ulkan sug'urta fondlari shakllanadi. Bu fondlarning sarflanishi dastlab xavf-xatarga bog'liq. Agar sug'urta xodisalari ro'y bermasa, zararni qoplashga sarflanadigan mablag'lar kam miqdorni tashqil qiladi, agar yirik miqyoslarda sug'urta xodisalari sodir bo'lsa ularning etkazilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta fondidan mablag' sarflashga to'g'ri keladi. Demak sug'urta fondi mablag'larini sarflash uchun ularni qanday maqsadlarda foydalanish, sug'urta xodisalarini ko'p yoki kamligiga qarab sug'urta samaradorligi xaqida fikr yuritish uchun dastlab quyidagi atamalarni mazmuni bilan tanishish lozim bo'ladi:

- * Sug'urta xavf-xatari
- * Sug'urta xodisasi
- * Sug'urta dalolatnomasi
- * Sug'urta rentasi
- * Sug'urta qoplamasi

* **Sug'urta xavf-xatari.** Rizq so'zining bir qancha mazmun va ma'nosi mavjud. Bo'larning xammasi xavf-xatar va unga nisbatan javobgarlikni ifoda qiladi. SHu munosabat bilan uni xavf-xatarining turlari deb tushuntirish maqsadida muvofiqdir. Bu tushuncha sug'urtalangan mulk, sug'urta xodisasi, sug'urta xavfi va boshqa tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi.

* **Sug'urta xodisasi.** Sug'urta xavf-xatarida ko'zda tutilgan favqulotda tasodiflardan birortasi sodir bo'lishi. Bunday xodisalarga mulk sug'urtasida tabiiy ofatlar, yong'in falokat, portlash va boshqalar, shaxsiy sug'urtada esa ma'lum yoshga etish sodir bo'ladigan baxtsizlik xodisalari, vafot xodisalari kiradi. Baxtsizlik xodisasi deganda sug'urtalanganning sog'ligiga va xayotiga zarar keltiruvchi favqulotda xodisalar ko'zda tutiladi. Sug'urta xodisasi natijasida ko'rilgan zarar belgilangan miqdorda sug'urta fondi xisobidan qoplanadi.

* **Sug'urta dalolatnomasi (akti).** Sug'urta xodisasining sodir bo'lganligini va uning sabablarini isbotlab beruvchi rasmiy xujjat. Mulk sug'urtasida dalolatnoma asosida zarar miqdori va unga to'lanadigan qoplama miqdori aniqlanadi. Xujjat qoplama olishda asos bo'ladi. SHaxsiy sug'urtada sug'urta dalolatnomasi baxtsizlik xodisasini tasdiqlash, uning sug'urtalanuvchini bu xodisa xizmat vazifalarini bajarishda yoki yo'lda bo'lganida sodir bo'lganini aniqlashga imkon beradi. Sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha dalolatnoma talab qilinmaydi, tibbiyot tashkilotining ma'lumotnomasi etarli bo'ladi.

* **Sug'urtada zarar.** Sug'urtada zarar deganda sug'urta baxosida ishlab chiqqan yoki bir qismi zararlangan mulk baxosi tushuniladi. Etkazilgan zararining to'la yoki qisman sug'urtalanuvchiga to'lanishi sug'urta qoplamasi deb ataladi.

* **Sug'urta rentasi.** Qo'shimcha pensiya sug'urtasi asosida sug'urtalanuvchiga oy yoki yil davomida to'lanadigan daromad. Qo'shimcha pensiya sug'urtasida agar badallarni o'z vaqtida to'lab borilgan bo'lsa, pensiya yoshiga chiqqan oydan boshlab, qo'shimcha pensiya to'lanadi.

* **Sug'urta qoplamasi.** Sug'urta xodisasi sodir bo'lgani tufayli etkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun ajratilgan mablag'.

4. Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy sug'urta atamalari.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tadbirlarini kengaytirish, xorijiy tajribalardan samarali foydalanishni taqazo etadi. Bu tadbirni amalga oshirishining dastlabki shartlaridan biri xalqaro sug'urta atamalarini o'rganish va ularning mazmuni bilan yaqindan tanishishdir. Mamlakatimizda qo'llanilayotgan xalqaro atamalarining soni kun sayin ortib bormoqda. Lekin ularning ko'plari o'zbek tilida o'z ekvivalentlariga ega emaslar. SHu munosabat bilan xorijiy sug'urta atamalarini tanlashda birinchi navbatda xozirgi amaliyotda qo'llanilayotgan va qo'llanishi kutilaetgan atamalarga izox berib o'tamiz.

Xalqaro sug'urta atamalari mazmuni bir yo'nalishga ega bo'lmaganligi uchun ularning mazmunini aloxida masala sifatida yoritib o'tamiz.

Sug'urta bozori nima. Sug'urta bozori bir necha sug'urta tashkiloti bilan shakllanib, undagi xar bir sug'urta tashkiloti vaqili o'z sug'urta tashkilotining faoliyati, taklif qilinadigan sug'urta turlari va shartlari xaqida bo'lajak sug'urtalanuvchilarni tanishtiradi va ularning birortasini tanlashga yordam beradi, lozim bo'lganda sug'urta shartnomasini rasmiylashtiradi. Sug'urta bozori bir shaxar, mamlakat miqyosida emas, balki bir necha mamlakat miqyosida, xalqaro sug'urta bozori sifatida shakllanadi, shuningdek, qayta sug'urtalash tadbirlarini xam amalga oshirishda yordam beradi.

Sug'urta portfeli. Sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan badallar yig'indisi yoki tuzilgan va to'langan shartnomalar soni.

Sug'urta bonusi. Transport sug'urtasida qo'llaniladigan atama bo'lib, bu orqali uzoq yillar davomida falokatsiz ishlagan sug'urtalanuvchilarga sug'urta badali xisobidan beriladigan engilliklar. Bu engilliklar 2-3 oyga sug'urta badalidan ozod qilish yoki sug'urta badaliga nisbatan foiz xisobidan engilliklar berish tarzida amalga oshiriladi.

Kargo sug'urtasi. Transport vositalaridagi barcha tashiladigan yuklarni transport vositalarsiz sug'urta qilinishi. Bunday sug'urta tashkiloti faqat sug'urtalangan yuklar uchun javobgar xisoblanadi.

Kasko sug'urtasi. Kasko sug'urtasida faqat transport vositalari sug'urta qilinadi. Agar transport vositasi egasiga qarashli bo'lsa, u xolda xar ikki sug'urta vositasi kargo va kasko turlaridan foydalanish mumkin.

Pul deb ataluvchi sug'urta tashkiloti. O'z miqyosi jixatdan ulkan ob'ekt jixatdan xavfli sug'urta xodisalari birgalikda ximoya qilish uchun tuzilgan tashkilot. Tashkilot sug'urta kompaniyalariga yagona polis berib, bu xujjatda xar bir a`zoning sug'urtalashdagi xissasi ko'rsatiladi.

SHomaj nima. Ishlab chiqarish turli xodisalar oqibatida yong'in to'xtab qolishi natijasida olinishi kutilgan foyda miqdori kamayib ketishi mumkin. SHamoj ko'riladigan zararlarni ko'zda tutib sug'urtalash usuli.

Sug'urta franshizasi. Turli sabablar bilan etkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni umumiy miqdorini sug'urta tashkiloti xisobidan qoplanmaydigan qismi, franshiza qo'llanilganda zarar miqdori ikkiga bo'linadi: birinchisi sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadigan qismi, ikkinchisi qoplanmaydigan qismi. Bu nisbat sug'urta dastur amalda ko'rsatiladi, masalan franshiza miqdori 100 dollar miqdorida qo'llanilsa, keltirilgan zarar 90 dollar bo'lsa, zarar qoplanmaydi. Agar 100 dollardan oshsa, ya'ni 200 dollarni tashqil qilsa, u xolda 100 dollar qoplanib, qolgan qismini franshiza tashqil qiladi. Xozirda mamlakatimizda mol-mulk ixtiyoriy sug'urtasi bo'yicha franshiza qo'llanilishi bu xaqidagi dastur amalda ko'rsatilgan.

Sug'urta brokeri. Sug'urta tashkiloti va sug'urtalanuvchining sug'urtalash va sug'urta shartnomasini bajarishda o'zaro munosabatlarni o'rnatuvchi shaxs. Broker sug'urta tashkilotining vaqili sifatida sug'urtalanuvchilar bilan bevosita ish olib boradi, sug'urta shartnomasi tuzishda, sug'urta xodisasi natijasida moddiy zarar etganda qoplama miqdorini aniqlashda, xatto sug'urta qoplamasini sug'urtalanuvchiga topshirishda unga yordam beradi.

Sug'urta auditori. Sug'urta auditori xissadorlik jamiyatlari va boshqa xususiy xissadorlik uyushmalarini moliyaviy xo'jalik faoliyatlari ustidan mustaqil tekshirishga vaqil qilingan shaxs. Maxsus tashkilot yoki shaxs, auditor mustaqil ish ko'ruvchi firma sifatida sug'urta tashkilotlari faoliyatlarini yuqori saviyada xar tomonlama tekshirib, o'z xulosasini taqdim etadi.

Ayrim sug'urta tashkiloti yoki sug'urtalanuvchi xaqida aniq ma'lumotlar lozim bo'lganda auditorlik tashkilotiga murojaat qilinadi. Auditor vazifasini bajargan shaxs, o'z xulosalari uchun javob beradi. Auditorlar lavozimini egallash uchun maxsus tayyorgarlik va ko'p yillik tajriba talab qilinadi. Auditorlar qisqa muddatli ko'rsalarda o'z malakalarini oshiradilar.

Anderrayter. Turli risqlarni sug'urtalash vakolatiga ega sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. U shartnomalarni tuzish, risqlarni baxolash va sug'urta ta'rif stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'ladi.

Binder. Sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasidagi vaqtincha tuzilgan shartnoma. Bu kelgusida shartnoma tuzish uchun asos bo'ladi.

YAshil karta. Avtotransport egalariining fuqarolik javbgarligi majburiy sug'urtasi xaqida xalqaro shartnomalar tuzish.

Lloyd. Londonda joylashgan xalqaro bozori. London Sitida joylashgan (1688 yil).

Ritorno. Sug'urtalanuvchi tomonidan shartnoma bekor qilinadi. Badalning bir qismini ushlab qolinishi.

Tayanch so'z va iboralar.

- Sug'urta fondi
- Sug'urtaviy faoliyat

- Sug'urta ximoyasi
- Sug'urta javobgarligi
- Sug'urta vaqillari
- Birgalikda sug'urta qilish
- Sug'urta ob`ekti
- Majburiy sug'urta
- Ixtiyoriy sug'urta
- Binder
- Lloyd
- Rinorno

Nazorat uchun savollar

1. Sug'urta atamasi deganda nimani tushunasiz?
2. Sug'urta tushunchalari nimalardan iborat?
3. Majburiy sug'urta deb nimaga aytiladi?
4. Ixtiyoriy sug'urta deb nimaga aytiladi?
5. Sug'urta fondi deganda nima tushuniladi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Sug'urta faoliyati xaqida» Toshkent 2002 y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston» 1995 y.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
6. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va tarakkiyot yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
7. Straxovoy marketing M. Ankel M. 2000.
8. Organizatsiya straxovogo dela. A.B. Krutik 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sobirov X.R. «Xitoyda sug'urta» (Iqtisod va xisobot, 3, 1996)
2. Sobirov X.R. «Axamoniylar davrida soliq isloxoti» «O'zbekiston soliqlari xabarnomasi» 1997 y.

4-Mavzu: «Sug'urtaning guruxlanishi (klassifikatsiyasi)»

Reja:

1. Sug'urtani boshqarishda sug'urta guruxlanishining roli.
2. Sug'urtaning tarmoqlar bo'yicha guruxlanishi
3. Sug'urta ob`ektlari va ularning turlari bo'yicha guruxlanishining umumiy asoslari.

4. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta.

1. Sug'urtani boshqarishda sug'urta guruxlanishining roli.

Sug'urta ko'p tarmoqli faoliyat, uni tashqil etishda yuzlab sug'urta tashkilotlari ishtirok etadilar va ular minglab sug'urtalanuvchi xuquqiy va jismoniy tashkilotlarga xizmat ko'rsatiladi. Faqat davlat xissadorlik sug'urtasi yo'li bilan sug'urtaning 35 xili mavjud, ularning xar birini ob'ekti, sub'ekti, ta'riflari mavjud. Sug'urta ishini boshqarish, uning o'xshash turlarini guruxlashtirish, tarmoqlarga, bo'limlarga ajratishni talab qiladi. Bu asosda sug'urta ishini boshqarish va tashqil qilish osonlashadi.

Guruxlash lotincha klassifikatsiya so'zidan olingan bo'lib, mavjud umumiy yaxlit tushunchani ayrim turlarga, bo'limlarga ajratish demakdir. Agar biz sug'urta turlarini ma'lum tartib qoida asosida birini ikkinchisidan ajratsak, boshqarish murakkablashadi, unda chalkashliklar sodir bo'ladi.

Sug'urtani guruxlash (klassifikatsiyasi) sug'urtaning ko'p sonli turlarini xududlar, tarmoqlar, tarmoq bo'limlariga, ularning ayrim xususiyatlarini e'tiborga olib ajratishdir. Sug'urta tashkilotlarining o'z zimmalariga olingan javobgarliklari bir necha milliardni tashqil qiladi. Buning uchun xar bir sug'urtalanuvchi yirik korxona, xissadorlik jamiyatlari, tadbirkorlar bilan shartnoma tuzish asosida falokat yuz berganda ularga o'z vaqtida yordam berish lozim. Buning uchun sug'urta ishi, uning turlari, koidalarini guruxlashtirish qanchalik muxim axamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Sug'urta faoliyati sug'urtaning xar bir turining xususiyatlarini ko'zda tutib, quyidagi yo'nalishlarda guruxlashtiriladi.

- **Xududlar bo'yicha (mamlakatni ichki doirasi va tashqi sug'urta munosabatlarini e'tiborga olib)**
- **Davlat va xususiy sug'urta tashkilotlari bo'yicha**
- **Tarmoqlar bo'yicha**
- **Xavf-xatar turlari bo'yicha**
- **Majburiy va ixtiyoriy sug'urta bo'yicha**

Xududlar bo'yicha sug'urtalashda mamlakatning ichki doirasida va tashqi iqtisodiy munosabatlarda, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan sug'urta sohasida xamkorlik qilish xam ko'zda tutiladi. Bunda faqat eksport-import muammolarigina emas, balki investitsiyalar, diplomatik xodimlarini xam sug'urtalash ko'zda tutiladi. Bunday sug'urtani davlat va xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

SHu munosabat bilan dastlab sug'urta tashkilotlarini quyidagicha guruxlash mumkin:

* Faqat xorijiy mamlakatlar investorlari (O'zbekinvest) va tashqi iqtisodiy munosabatlar xizmat qiluvchi sug'urta tashkilotlari (Intertrans)

* Qo'shma sug'urta tashkilotlari, masalan: «Umid» sug'urta tashkiloti, (O'zbek sug'urta Xauden Lix)

* Faqat mamlakat doirasida xuquqiy va jismoniy shaxslarga xizmat qiluvchi tashkilotlar («Bit») tashkiloti

* Davlat xissadorlik sug'urta tashkilotlari.

2. Sug'urtani tarmoqlar bo'yicha guruxlanishi

Tarmoqlar bo'yicha guruxlashtirish asosan sug'urta ob'ektlari asosida amalga oshiriladi. Unda quyidagi yo'nalishlar mavjud:

- **Mulk sug'urtasi**
- **SHaxsiy sug'urta**
- **Javobgarlik sug'urtasi**
- **Tadbirkorlik xavf-xatar sug'urtasi**

Mulk sug'urtasi o'z navbatida tarmoq bo'limlariga bo'linadi. Masalan qishloq xo'jaligi bo'yicha shirkat xo'jaliklari, dexqon va fermer xo'jaliklari, bundan tashqari sanoat korxonalari, ijaraga berilgan korxonalar xam tarmoq bo'limlarini tashqil qiladi.

SHaxsiy sug'urtaning asosan ikki tarmog'i ya'ni, xayot sug'urtasi va baxtsiz xodisalardan sug'urta bo'limlari mavjud.

Sug'urta munosabatlari sug'urta turlari bo'yicha mujassamlashtiriladi. Xayot sug'urtasi bo'yicha xayotni aralash sug'urtasi, bolalar sug'urtasi va shu kabi sug'urta turlari mavjud.

Baxtsizlik xodisalari bo'yicha tarmoq bo'limlariga yo'lovchilarni sug'urtalash, ishchi va xizmatchilarni korxonalar xisobidan sug'urtalash, shuningdek, maktab o'quvchilari sug'urtasi va boshqalar kiradi.

Mulk sug'urtasining ayrim tarmoq turlariga imoratlarni sug'urtalash, chorva mollari, uy-ro'zgor mulklari, transport vositalarini sug'urtalash, shuningdek qishloq xo'jaligi xosilini sug'urtalash va boshqalar kiradi.

Sug'urtaning uchinchi tarmog'i javobgarlik sug'urtasidir. Bunda transport vositalaridan foydalanishda uchinchi shaxsga etkazilgan zarar qoplanadi.

Sug'urtaning to'rtinchi tarmog'iga tadbirkorlarga etkazilishi mumkin bo'lgan zarardan sug'urtalash kiradi. Bunga bevosita va bilvosita zararlardan keladigan yo'qotishlarni ko'zda tutilib, korxona, savdo tashkilotlarida ishlab chiqarish vaqtidagi bekor turishlar, yangi texnika va texnologiyani joriy qilish bilan bog'liq xavf-xatarlar natijasida yuz bergan zararlar kiradi.

3. Sug'urta ob'ektlari va ularning turlari bo'yicha guruxlanishning umumiy asoslari

Ob'ekt bo'yicha guruxlashdan farqli o'laroq, xavf-xatar turlari bo'yicha sug'urtalash faqat mol-mulk sug'urtasi bo'yicha amalga oshiriladi. Guruxlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- **YOng'in va boshqa tabiiy sifatlardan sug'urtalash**

- **Qishloq xujaligi ekinlarini qurgoqchilikdan va boshqa tabiiy ofatlardan sug'urtalash**
- **CHorva mollari ulati va majburan suyib yuborishdan sug'urtalash**
- **Transport vositalarini falokatlardan, olib qochishdan va boshqa xavf-xatarlardan sug'urtalash.**

Ko'rsatilgan xavf-xatarlar bir-biri bilan bog'liq bo'lmasa xam, lekin bir xil xavf natijasida boshqa falokatlar sodir bo'lish mumkin. Masalan fermada yong'in sodir bo'lsa, u chorva mollariga xam o'tishi mumkin. Xavf-xatarning yangi turlariga atom stantsiyalari faoliyatini izdan chiqish bilan bog'langan xavf-xatarlar kirishi mumkin.

Baxtsizlik xodisalari mol-mulk sug'urtasining ob'ekti emas balki, shaxsiy sug'urtaning ob'ektidir. Baxtsiz xodisalarga, to'satdan **qisqa** muddatda inson organizimiga tabiiy kuchlarning zararli ta'siri natijasida vujudga keladigan xodisalar kiradi. Bunga kimyoviy ta'sirlanish, xaroratining pasayib ketishi va ko'tarilishi xam kiradi.

Bo'larni o'rganib, baxtsiz xodisalarni belgisi mavjud ekanligini ko'rsatib utish kerak. Bo'larga quyidagilar kiradi:

- **Bu xodisalar kutilmaganda, to'satdan sodir bo'ladi**
- **kiska muddatda bo'lib utadi**
- **Inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatadi**
- **Tabiiy kuchlar (energiya) ta'siri asosida sodir bo'ladi**
- **Xaroratning ko'tarilishi va pasayib ketishi natijasida yuzaga keladi**
- **Kimyoviy ta'sir natijasida vujudga keladigan o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi**

Bu belgilarni tushuntirish uchun bir necha misol keltiramiz. Masalan: ko'cha xarakatini buzilishi natijasida yo'lovchining shikastlanishi. Bu xodisa kutilmagan qisqa muddatda sodir bo'ladi, inson solig'iga zararli ta'sir ko'rsatadi.

4. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta

Majburiy va ixtiyoriy sug'urta xozirda muxim masalalardan biri xisoblanadi. Boshqa MDX respublikalarida majburiy sug'urtaning ko'plab turlari bekor qilingan bo'lsada, bizda nima sababdan saqlanmoqda kabi savollar ko'pchilikni qiziqtiradi.

Bu savollarga javob berish majburiy sug'urtaning ixtiyoriy sug'urtadan nima bilan farq qilishini ko'rsatishni talab qiladi. Buning uchun quyidagi solishtirma chizmadan foydalanamiz.

Majburiy sug'urta	Ixtiyoriy sug'urta
Majburiy sug'urtalashda barcha majburiy tartibda sug'urtalanadi, yoppasiga amalga	Ixtiyoriy sug'urta tanlab olish yo'li bilan sug'urtalanuvchining xoxishi bilan amalga oshiriladigan sug'urta, bu sug'urtadan utish majburiy

oshiriladigan sug'urta	emas
(Sug'urta badallari, mukofotlari) to'lanmaganiga qaramasdan sug'urta davom etadi. Sug'urta badal to'lash bilan bog'liq emas	Sug'urta badal to'lash bilan uzviy bog'langan. SHartnoma tuzib badal to'lanmasa sug'urta kuchga kirmaydi
Sug'urtaning muddatsizligi va o'z o'zidan sug'urtalanish, muddatsizlik transport va qishloq xo'jalik ekinlari uchun nisbiy bo'lib, yo'lovchi etib kelgandan keyin yoki xosil yigishtirib olingandan keyin sug'urta o'z kuchini yo'qotadi	SHartnomada ko'rsatilgan muddat bilan sug'urta davri chegaralanadi. Agar sug'urta badali to'lanmasa, sug'urta muddati to'xtab qoladi
Sug'urta ta'minotining normallashtirishi	Sug'urta ta'minoti mulk baxosi va sug'urtalanuvchining xoxishiga qarab oldindan belgilanadi.
qonun asosida tartibga solinadi	Sug'urta dasturlari asosida tartibga olinadi. Ixtiyoriy sug'urta xaqidagi qonun sharxlanmaydi.

Majburiy sug'urta ba`zan ixtiyoriy sug'urta bilan bog'langan, majburiy tartibda sug'urtalangan imoratlar ixtiyoriy tartibda xam sug'urta qilinishi mumkin.

Masalan, yo'lovchilar sug'urtasining majburiy turi bo'yicha barcha yo'lovchilar uzoq masofaga boradigan bo'lsalar majburiy ravishda yoppasiga sug'urtalanadilar. Sug'urta badali chipta tarkibiga kiritiladi. Masofaga etgandan keyin sug'urtalash to'xtatiladi.

YAngi qurilgan uy-joy binolari qad ko'tarib, usti yopilgandan boshlab majburiy sug'urtalangan xisoblanadi. Agar ob`ektga o't tushib yonib ketsa zarar sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadi.

Tayanch so'z va iboralar

- Sug'urta xususiyati
- Asosiy fondlar sug'urtasi
- Ixtiyoriy sug'urta
- Sug'urta xavf-xatari

- Garov shartnomasi
- Sug'urta polisi
- Mulk sug'urtasi
- SHaxsiy sug'urta
- Sug'urta badali
- Sug'urta atamasi

Nazorat uchun savollar

1. Ixtiyoriy sug'urta qoplamalari qanday to'lanadi?
2. Imoratlarni sug'urtalash tartibi qanday?
3. Asosiy fondlar sug'urtasi qanday amalga oshiriladi?
4. Sug'urtaning guruxlanishini izoxlab bering
5. Ixtiyoriy sug'urtani tashqil etish tamoyillari qanday?
6. SHaxsiy sug'urtaning qanday turlari mavjud?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent, 1992 y
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Sug'urta faoliyati xaqida» Toshkent 2002 y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy isloxoatlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston» 1995 y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
6. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
7. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
8. Straxovoy marketing M. Ankel M. 2000.
9. Organizatsiya straxovogo dela. A.B. Krutik 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sobirov X.R. «Xitoyda sug'urta» (Iqtisod va xisobot, 3, 1996)
2. Sobirov X.R. «Axmoniyilar davrida soliq isloxoti» «O'zbekiston soliqlari xabarnomasi» 1997 y.
3. Pulov K.I. «Straxovoe delo v Rossii» M-Edma 1999 g.
4. Kolomina E.V. V.V. SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1998 g.
5. Reytmana L.I. «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1998 g.
6. SHaxov V.V. «Vvedenie v straxovanie» M-Finansu i statistika» 1999
7. Straxovanie: ot A do YA (kniga dlya straxovateley). M-«Infra-M», 1996 g.
8. Juravlev YU.M. Sekerj I.K. «Straxovanie i perestraxovanie» (teoriya i praktika). M-«Anqil» 1996 g.
9. Zubets A.N. Straxovoy marketing Rassii, M.:2000.

5-Mavzu: Sug'urta xuquqi

Reja:

1. Sug'urta xuquqi va sug'urta munosabatlarini shakllantiruvchi xuquqiy xujjatlar.
2. Sug'urta xuquqi va bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtani boshqarishni qayta qurilishi.
3. Sug'urta marketingi.
4. Sug'urta tashkilotlari ustidan davlat nazorati.

1. Sug'urta xuquqi va sug'urta munosabatlarini shakllantiruvchi xuquqiy xujjatlar

Sug'urta xuquqi sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar, xamda kredit tashkilotlari o'rtasidagi xuquqiy munosabatlari ifodalaydi. Bunday munosabatlar mamlakatimiz Konstitutsiyasi asosida vujudga kelgan qator xuquqiy xujjatlarda o'z ifodasini topadi. Bu xuquqiy xujjatlarga quyidagilar kiradi:

8. Fuqarolik kodeksi
9. Sug'urta faoliyati xaqidagi Respublika qonuni
10. Davlat sug'urta tashkilotlari xaqidagi nizomlar
11. Xususiy sug'urta tashkilotlarining nizomlari
12. Sug'urta nazorati xaqidagi xukumat qarori.

Fuqarolik kodeksining 52-bobi 914-981-moddalar sug'urta masalalariga bag'ishlangan, bunda sug'urtaning eng muxim xuquqiy masalalari sug'urta shartnomalarini tuzish, ikki tomonlama sug'urtalash, xamkorlik sug'urtasi, qayta sug'urtalash masalalari yoritilib, bunda sug'urtani amalga oshirish, tomonlarning javobgarligi va boshqalar kodeks doirasida xuquqiy jixatdan tushuntirib berilgan.

Sug'urta xaqidagi qonun fuqarolar kodeksida bayon qilingan masalalarni takrorlasada, qonunda sug'urtaning iqtisodiy masalalarini bayon qilishga aloxida axamiyat berilgan.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida e'lon qilinganiga qadar respublikaning sug'urta xaqidagi aloxida qonun yo'q edi. Bu xududda Sobiq Ittifoq sug'urta qonunlari amal qilar edi. Bu qonunlarda respublika iqtisodiyoti va maishiy xususiyatlari etarli e'tiborga olinmagan edi. Sug'urta xaqidagi birinchi respublika qonuni O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan 1993 yil 6 mayda qabul qilindi.

Qonun 5 bob, 33 moddadan iborat. qonunda respublika iqtisodiyotida sug'urtaning to'tgan o'rni, bozor iqtisodiyotini amalga tadbiq qilishdagi roli, sug'urta bozorini shakllantirish masalalari, sug'urtaning tashqiliy va xuquqiy asoslari bayon qilinadi. Fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatiga bo'lgan talablarini to'laroq qondirilishi kafolatlanadi, sug'urta munosabatlarida uning barcha ishtirokchilari manfaatlarini ximoya qilish masalalari ko'rsatiladi. qonunning 1-bobida sug'urta ta'rfi berilgan bo'lib, bunda sug'urta ob'ektlari,

sub`ektlari, shakllari, ta`riflari va to'lovlari, qayta sug'urtalash va birgalikda sug'urtalash masalalari bayon qilingan.

Ikkinchi bob sug'urta shartnomalarini tuzish, shartnomada tomonlarning xuquqlari va uni rasmiylashtirish va to'xtatish masalalariga bag'ishlangan.

Uchinchi bobda sug'urtalanuvchilarning moliyaviy barqarorligini ta`minlash masalalari yoritilgan.

To'rtinchi bob sug'urta faoliyati ustidan davlat nazorati o'rnatish, beshinchi bob esa yakunlovchi masalalarga bag'ishlangan.

Sug'urta xaqidagi qonunda qator yangi tushunchalar, masalan, qayta va birgalikda sug'urtalash, sug'urta brokeri, sug'urta ruxsatnomalarini olish va boshqa masalalar yoritilgan.

1997 yilda sug'urta qonunchiligida muxim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sug'urta xaqidagi qonunga qo'shimcha sifatida quyidagi 3 ta xujjat qabul qilindi:

13.«O'zagrosug'urta» davlat aktsionerlik kompaniyasi

14.«Kafolat» aktsiyadorlik davlat kompaniyasi

15.«O'zbekiston» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashqil etish to'g'risidagi Prezident farmonlari va xukumat qarorlari.

Sug'urta xuquqi xaqida gapirar ekanmiz, ayrim sug'urta tashkilotlarining o'z nizomlari bo'lib, bunda xar bir sug'urtaning eng muxim yo'nalishlari, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilarning xuquqlari ifoda qilinishini xisobga olishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

2002 yil 5 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yangi ikkinchi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Qonun respublikada sug'urtaning yanada rivojlantirish, uni rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishning iqtisodiy va xuquqiy asoslarini yanada mustaxkamlashda muxim omil bo'ldi.

2. Sug'urta xuquqi va bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtani boshqarishni qayta qurilishi

Sug'urta inson salomatligini tiklash vositalari katoriga kirgani uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish sug'urtani boshqarishni qaytadan ko'rishni talab qildi. Bunga quyidagi tamoyillar sabab bo'ladi:

Birinchidan, sug'urta ishini nominallashtirish bilan birga xususiy sug'urta tashkilotlarini shakllantirish.

Ikkinchidan, xorijiy mamlakatlar sug'urta tashkilotlari bilan xamkorlikni kuchaytirish va respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni ko'plab jalb qilishga yordam berish.

Uchinchidan, sug'urta tashkilotlari ustidan nazoratni kuchaytirish va sug'urtaning yangi shakllarini joriy qilish.

Ko'rsatilgan sabablar sug'urtani boshqarish tizimini qayta ko'rishni talab qildi. Buning uchun respublika sug'urta tashkiloti mustaqil sug'urta tashkilotiga aylantirildi va sug'urta xaqida qonun qabul qilindi.

Respublika Moliya Vazirligidan sug'urta tashkilotlari ajralib chiqib, aloxida davlat va xususiy aktsiyadorlik tashkilotlari sifatida vujudga keldi, sug'urta tashkilotlari bilan kredit tashkilotlari aloqasi kuchaytirildi.

Respublikadagi sug'urta tashkilotlari quyidagi guruxlarga bo'linadi:

1. Davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyalari

a) «O'zagrosug'urta» DASK

b) «Kafolat» DASK

v) «O'zbekinvest» eIMSK

g) «Madad» sug'urta agentligi

2. Xususiy sug'urta kompaniyalari

3. Respublika sug'urta nazorati tashkilotlari

Navbatdagi mavzularda ko'rsatilgan sug'urta tashkilotlari xaqida aloxida-aloxida ma'lumotlar beramiz.

3. Sug'urta marketingi

Sug'urtada marketing sug'urta ishlarini taktikasi va strategiyasini ishlab chikishni ko'zda tutadi. Bunda sug'urta marketingi deganda sug'urta bozorining axvoli, istiqbolini o'rganish asosida mavjud sug'urta turlarini tadbik etish va yangi shakllarini yaratish, sug'urta soxasidagi navbatdagi vazifalarni bajarish tadbirlari tushuniladi.

Marketingni yo'lga qo'yish uchun yuridik va jismoniy shaxslarni sug'urtalanuvchi bo'lish imkoniyatlarini urganish, sug'urta bozoridagi axvolni taxlil qilish, sug'urta xizmati tashqil qilinayotgan tumanning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish istiqbollari o'rganish va bu asosda sug'urta ishlarini tashqil qilish istiqbollari aniqlashni talab qilinadi.

Sug'urta marketingining tarkibiy qismi axolini sotsialogik jixatidan o'rganish maqsadida sug'urta jamiyatlarida menedjer lavozimi joriy etilgan.

Menedjer faqat sug'urtaning iqtisodiy masalalari bilangina shug'ullanmasdan, balki sug'urta kompaniyalari aktsiyalarini chiqarish va tarqatish ularni idora qilish bilan shug'ullanadi.

Sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'zaro raqobatni kuchaytirilishi munosabati bilan hozirgi sharoitida menedjerning sug'urtadagi roli oshib bormoqda. Marketing bozori iqtisodiyotida maxsus tadqiqotlar xizmatining tarkibiy qismi bo'lgani sababli menedjerlar faqat o'zlari xizmat qilib turgan tashkilot topshiriqlarini bajarishi bilan kifoyalanmasdan, balki boshqa sug'urta kompaniyalarining buyurtmalarini bajarishga xam yaqindan yordam berishlari mumkin.

4. Sug'urta tashkilotlari ustidan davlat nazorati

Sug'urta nazoratini Moliya Vazirligi xuzuridagi sug'urta nazorati Davlat inspeksiyasi amalga oshiradi. Sug'urta tashkilotlarining faoliyatini tartibga solish davlat tomonidan sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining xuquqlari va

qonuniy manfaatlarini muxofaza etishni ta'minlashga qaratilgandir. SHu munosabat bilan sug'urta nazorati tashkilotlariga quyidagilar yuklatilgan:

1. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta tashkilotlarini ro'yxatga olish va tegishli ruxsatnomalar berish;
2. Sug'urta tashkilotlarining sug'urta to'g'risidagi amaldagi qonunlar talablariga rioya qilishlarini nazorat qilib borish;
3. Xisob-kitob yuritish, xisobotlar tuzish, rezerv va zaxira fondlari yaratishning bir xilda bo'lishini ta'minlash;
4. Sug'urta ishi tajribasini umumlashtirish, qonun bo'yicha tushuntirishlar berish, bu qonunlarni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish;
5. Sug'urta faoliyatini yaxshilash.

Sug'urta nazoratining tashqiliy tuzilishi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Davlat inspeksiya'sining asosiy vazifalaridan biri sug'urta bo'yicha yagona davlat reestorini yuritishidir. Buning uchun barcha sug'urta tashkilotlari davlat sug'urta inspeksiya'sida ro'yxatdan o'tishlari shart. Ro'yxatdan o'tmagan tashkilotlar sug'urta faoliyati bilan shug'ulanish xuquqiga ega emas.

Ruxsatnoma olish uchun nizom fondi va kredit muassasasining ma'lumotnomasi muayyan sug'urta turining qoidalari, shartnomalari, sug'urta ta'rifining xisob-kitobi va boshqa xujjatlar topshirilishi kerak. Ruxsatnoma, xujjat olingandan keyin 30 kun ichida beriladi. Davlat inspeksiya'siga quyidagi xuquqlar berilgan:

1. Sug'urtalanuvchilardan sug'urta faoliyati to'g'risida belgilangan xisobot va ularning moliyaviy axoli xaqidagi axborotni shuningdek, korxonalar muassasalar, tashkilotlar, banklar, fuqarolardan o'ziga yuklangan funktsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborotlar olish;
2. Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta to'g'risidagi qonun xujjatlarga rioya etilishi nazorat etish maqsadida, ular faoliyatini tekshirish, zarurat bo'lsa buning uchun komissiyalar va ishchi guruxlari tashqil etish.

Davlat inspeksiya'siga Moliya vazirligining taklifnomasiga ko'ra Vazirlar Maxkamasi tomonidan boshliq tayinlanadi va nazoratning asosiy masalalari Moliya Vazirligi xay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Sug'urta nazorati apparatidagi xodimlar soni 15 kishidan iborat bo'lib, shuningdek, boshliq, ish yurituvchi inspektor, yuristlardan iborat. Sug'urta tashkilotlarini nazorat qilish bo'limida 6 kishi xizmat qiladi. Nazorat inspeksiya'si faoliyati ustidan Moliya Vazirligi nazorat qiladi.

Tayanch so'z va iboralar.

1. Sug'urta xuquqi.
2. Sug'urta marketingi.
3. Fuqarolik kodeksi.
4. Davlat sug'urta nazorati.
5. Sug'urta faoliyati xaqidagi qonun.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent, 1992 y

2. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Sug'urta faoliyati xaqida» Toshkent 2002 y,
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston» 1995 y.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
16. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
7. Straxovoy marketing M.Ankel M.2000.
8. Organizatsiya straxovogo dela. A.B.Krutik 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sobirov X.R. «Xitoyda sug'urta» (Iqtisod va xisobot, 3, 1996)
2. Sobirov X.R. «Axmoniylar davrida solik isloxoti» «O'zbekiston soliqlari xabarnomasi» 1997 y.
3. Pulov K.I. «Straxovoe delo v Rossii» M-Edma 1999 g.
4. Kolomina E.V. V.V.SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1998 g.
5. Reytmann L.I. «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1998 g.
6. SHaxov V.V. «Vvedenie v straxovanie» M-Finansu i statistika» 1999
7. Straxovanie: ot A do YA (kniga dlya straxovateley). M-«Infra-M», 1996 g.
8. Juravlev YU.M. Sekerj I.K. «Straxovanie i perestraxovanie» (teoriya i praktika). M-«Anqil» 1996 g.
9. Zubets A.N. Straxovoy marketing Rassii, M.:2000.

6-Mavzu: Respublika sug'urta tashkilotlarini boshqarish

Reja:

1. «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi.
2. «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi
3. «Madad» sug'urta agentligi.
4. «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.
5. Respublika xususiy sug'urta kompaniyalari.

1. «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi

«O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi ochiq turdagi jamiyati shaklida, yuridik shaxs sifatida tashqil qilinib, o'zining mustaqil balansi, xisob va valyuta raqamlariga ega.

Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari-qishloq xo'jaligi sohasida tovar ishlab chiqaruvchilarning mulk va maxsulotlarini sug'urta yo'li bilan ximoya etish, banklardan olingan kreditlarni qaytarishga sug'urta kafolatlari taqdim etish, qishloq xo'jalik maxsulotlarini etishtirish uchun beriladigan avans mablag'larini

qaytarishni sug'urtaviy kafolatlash, yuridik va jismoniy shaxslarga xar tomonlama sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan iboratdir.

Sug'urta kompaniyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

- sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy turlarini amalga oshirish, sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini to'laroq qondira oladigan sug'urtaning yangi turlarini ishlab chiqish va xayotga tadbiq qilish;
- ogoxlantirish funksiyasini bajarish asosida, sug'urta ob'ektlarini zararlanish va nobud bo'lishdan asrash tadbirlarini amalga oshirish;
- o'z mablag'larini investitsiya va tijorat faoliyatini muxim tarmoqlarga joylashtirish asosida, shu bilan birga kredit berish asosida o'ziga tegishli fondlarni to'ldirib borish;
- o'z faoliyatini amalga oshirishda Respublika Vazirliklari, idoralari va boshqa davlatlar sug'urta tashkilotlari bilan xamkorlikda ish olib borish;
- sug'urtaning axborot funksiyasi asosida reklama va maslaxat xizmatlarini ko'rsatish.

«O'zagrosug'urta» DASK tomonidan amalga oshiriladigan sug'urtaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi korxonalarini va qishloq axolisini majburiy sug'urta qilish;
- tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar qaytarilishi uchun qishloq xo'jaligi korxonalarining javobgarligini sug'urta qilish;
- qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etishtirish bo'yicha avans tarikasida beriladigan va fyuchers kontraktlari bo'yicha mablag'lar ko'tarilishini sug'urta qilish;
- qishloq joylarida yashovchi fuqarolarga tegishli mol-mulkni sug'urta qilish;
- qishloq joylarida garovga, qarzga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish;
- qishloq joylarida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish.

Kompaniyada qishloq xo'jalik korxonalarini ixtiyoriy sug'urtalash turlari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jalik ekinlari xosilini sug'urta qilish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarini qayta va yoppasiga ekishni sug'urta qilish;
- chorva mollarini sug'urta qilish;
- asosiy vositalarni sug'urta qilish;
- tabiiy pichanzorlar, yaylovlar xosilini va tut daraxtlari barglarini sug'urta qilish;
- pillani sug'urta qilish;
- bog'lar va uzumzorlar xosilini sug'urta qilish;
- korxonalar, dexkon, fermer va ijara xo'jaliklarining mol-mulkini sug'urta qilish;
- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan jo'natiladigan yuklarni sug'urta qilish.

Kompaniyaning ustav fondi 200 mln so'm miqdorida bo'lib, ta'sislik badallari xisobidan tashqil topadi. Kompaniyada naqd pulsiz shakllaridagi oddiy va egasi yozilmagan aktsiyalar chiqariladi, u cheklanmagan miqdorda sug'urta fondlari tashqil qilish xuquqiga ega. Ustav fondining 25 foiz miqdorini zaxiraviy fondlar tashqil qiladi. U kompaniya daromadlari xisobidan tashqil qilinadi. Kompaniya o'z faoliyatini amalga oshirish uchun boshqa fondlar xam tashqil qilishi mumkin.

«O'zagrosug'urta» aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining ijro tuzilmasini quyidagi chizmadan ko'rish mumkin.

№	«O'zagrosug'urta» davlat aktsiyadorlik kompaniyasining ijro etuvchi tuzilmasi
1.	Boshqaruv raisi
2.	Raisning birinchi o'rinbosari
3.	O'rinbosari
4.	Sug'urta kreditlari. Avans to'lovlari va fermer xo'jaliklari mol-mulkini sug'urtalash
5.	Qishloq xo'jaligi korxonalari va fermerlarni sug'urtalash
6.	Axoli xayotini, salomatligini va mol-mulkni sug'urtalash
7.	Prognozlash. Moliya va investitsiya faoliyati boshqarmasi
8.	YUridik va kadrlar xizmati
9.	Kantselyariya
10.	Ma'muriy xo'jalik bo'limi

«O'zagrosug'urta» davlat aktsiyadorlik kompaniyasining tuzilmasi

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi

Kuzatuv kengashi

Kompaniya boshqaruvi

Taftish komissiyasi

№	Viloyat nomi	Viloyatlardagi bo'limlar
1.	Qoraqalpogiston	15 ta bo'lim
2.	Andijon	14 ta bo'lim
3.	Buxoro	11 ta bo'lim
4.	Samarqand	16 ta bo'lim
5.	Surxondaryo	15 ta bo'lim
6.	Sirdaryo	8 ta bo'lim
7.	Jizzax	11 ta bo'lim
8.	Qashqadaryo	14 ta bo'lim
9.	Navoiy	7 ta bo'lim
10.	Namangan	12 ta bo'lim
11.	Fargona	15 ta bo'lim

12.	Xorazm	10 ta bo'lim
13.	Toshkent	15 ta bo'lim

2. «Kafolat» davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi

SHaxar korxonalari va axolisi bilan qishloq korxonalari va axolisining iqtisodiyoti va turmush sharoiti bir xil bo'lmagandek ulardagi sug'urta ob'ektlari, xatto sug'urta xodisalari ham bir xil emas, bir-biridan farq qiladi. SHu munosabat bilan shaxar va qishloq joylarida sug'urta ishlarini tashqil qilishda ularni xususiyatlarini e'tiborga olish talab etiladi, chunki sanoat va qishloq xo'jalik korxonalarining mol-mulki mexnat sharoiti bir xil bo'lmagandek xonadonlardagi uy-ro'zgor anjomlarining ham o'z xususiyatlari bor. Ana shu xususiyatlarni ko'zda tutib respublika Vazirlar Maxkamasi shaxar xududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish maqsadida «Kafolat» davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashqil etdi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxar joylarida axoli xayotini, salomatligini va mol-mulkini sug'urta qilish;
- korxonalar, tashkilotlar va muassasalar mol-mulkini sug'urta qilish;
- yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy va tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasini amalga oshirish;
- qonunda ko'zda tutilgan sug'urtaning majburiy turlarini amalga oshirish;
- qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish, sug'urtaviy maslahat xizmatlarini ko'rsatish;
- maxalliy sharoitlarni xisobga olib, sug'urtaning yangi turlarini joriy qilish;
- sug'urtaning qonunchilik xujjatlarida va xukumat qarorlarida nazarda tutilgan majburiy turlarni amalga oshirish.

Sug'urtaning majburiy turlariga fuqarolar mol-mulki, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi, yo'lovchilar sug'urtasi, O'zbekiston temir yo'llari, parvozlarda ishtirok etuvchi xodimlar, oddiy askarlar va boshqalar tarkibiga kiruvchi xarbiy xizmatchilarni va xarbiy xizmatini o'tashga majbur shaxslarni sug'urtalash turlari kiradi.

«Kafolat» davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining tuzilmasi quyidagicha:

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi

Kuzatuvchi kengash Taftish komissiyasi Kompaniya direktsiyasi

№	Viloyat	SHaxardagi filial	Bo'lim
1.	Qoraqalpogiston respublikasi	Nukus shaxridagi filial	5 bo'lim
2.	Andijon viloyati	Andijon shaxridagi filial	4 bo'lim

3.	Buxoro viloyati	Buxoro filial	shaxridagi	1 bo'lim
4.	Jizzax viloyati	Jizzax filial	shaxridagi	-
5.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi filial	shaxridagi	1 bo'lim
6.	Navoiy viloyati	Navoiy filial	shaxridagi	2 bo'lim
7.	Namangan viloyati	Namangan filial	shaxridagi	2 bo'lim
8.	Samarqand viloyati	Samarqand filial	shaxridagi	2 bo'lim
9.	Surxondaryo viloyati	Termiz filial	shaxridagi	1 bo'lim
10.	Sirdaryo viloyati	Guliston filial	shaxridagi	4 bo'lim
11.	Fargona viloyati	Fargona filial	shaxridagi	5 bo'lim
12.	Xorazm viloyati	Urganch filial	shaxridagi	2 bo'lim
13.	Toshkent viloyati	Chirchiq filial	shaxridagi	6 bo'lim
14.	Toshkent shaxri	Toshkent filial	shaxridagi	9 bo'lim

«Kafolat» davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi	
1.	Bosh direktor
2.	Birinchi o'rinbosar
3.	O'rinbosar
4.	SHaxar axolisini sug'urtalash bo'limi
5.	Korxonalar javobgarligi va mol-mulkni sug'urtalash bo'limi
6.	Proгноzlash, moliya va investitsiya bo'limi
7.	YUridik xizmat bo'limi
8.	Kantselyariya bo'limi
9.	Xodimlar bo'limi
10.	Ma'muriy xo'jalik bo'limi

3. «Madad» sug'urta agentligi

O'zbekiston Respublikasi sug'urta tizimidagi «Madad» sug'urta agentligining asosiy vazifasi xususiy tartibda ish olib boruvchi kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga imtiyozli kredit berish bilan aloqador sug'urtaning boshqa turlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Agentlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash, fermer xo'jaligini rivojlantirish, binokorlik industriyasi, maxalliy sanoat, turizm, xizmat ko'rsatish doiralari tomonidan taqdim qilinadigan investitsiya loyixalarini baxolash va ekspertizadan o'tkazib, biznes fond xisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga imtiyozli shartlar bilan kredit berishga tavsiya qilishdir.

SHu bilan birga agentlik imtiyozli shartlar asosida tadbirkorlarni sug'urta qiladi. O'z vaqtida qaytarilmagan kreditlarni qaytarishga yordam beradi, xorijiy investitsiyalarni sug'urtaviy ximoya qilish va boshqa sug'urta xizmatlarini amalga oshiradi.

«Madad» sug'urta agentligi taqdim qilingan loyixalarni ko'rib chiqish va xaridorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 10 dan ortiq konsalting firmasi bilan xamkorlikda ish olib boradi.

«Madad» sug'urta agentligi respublikamiz mintaqalarida o'zining 13 filialiga ega bo'lib, bu orqali fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan olgan majburiyatlarini o'z vaqtida amalga oshirishga xarakat qilmoqda.

4. «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi

1997 yil 18 fevralda e'lon qilingan Prezident farmoni asosida tashqil qilingan «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi 1994 yil 21 yanvarda ta'sis qilingan «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasining mulkiy va nomulkiy xuquq va majburiyatlari bo'yicha xaqiqiy vorisi bo'lib, respublikamiz sug'urta tashkilotlarining xalqaro miqyosdagi sug'urta tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan navbatdagi jiddiy qadamidir.

«O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta tashkilotining asosiy maqsadi respublika iqtisodiyotida eksport tashishni yanada ragbatlantirish, eksport qiluvchilarni sug'urtaviy ximoya qilishni ta'minlash, xorijiy mamlakatlar investorlari bilan aloqa qiluvchi o'zbek investorlarining faoliyatini kuchaytirish, iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarga jalb etilayotgan chet el investitsiyalarini kompleks sug'urtaviy ximoya qilishdan iborat.

Kompaniyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri investitsiyalarni faqat iqtisodiy xavf-xatarlardangina emas, balki siyosiy xavf-xatarlardan (urush, inqilob, fuqarolar galayoni, pul o'tkazishni chegaralash va boshqalar) xam ximoya qiladi. SHu munosabat bilan xorijiy mamlakatlarda sug'urtaning bu turiga qiziqish kuchaymoqda.

Kompaniyaga bosh direktor raxbarlik qiladi va direktorlar kengashi muxim masalalarni muxokama qilib tavsiyalar beradi. Kompaniyaning viloyatlarda xam bo'limlari mavjud. Markaziy boshqarmada umumiy xavf-xatarlar, strategik rivojlanish, moliyaviy xavf-xatar, xalqaro bo'limlar mavjud.

Tashqi iqtisodiy soxa O'zbekiston iqtisodiyotining eng jo'shqin rivojlanayotgan tarmogi xisoblanadi. SHu munosabat bilan hozirgi bosqichda tashqi iqtisodiy faoliyatni eksport-import operatsiyalari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar mol-mulki, xalqaro yuk tashuvchilarni mas'uliyati, xorijiy pudratchilar ishtirokidagi qurilishni sug'urtalash va shu kabilar kompaniyaning asosiy yo'nalishlariga aylanmoqda.

Kompaniyaning «O'zbekinvest» Interneyshnl Ishnurans LTD qushma korxonasi tomonidan chet ellik savdo kompaniyalariga beriladigan sug'urta xizmatlarining yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- sarmoyani sug'urtalash;
- savdo sug'urtasi.

«O'zbekinvest» bosh kompaniyasi va uning xududiy idoralari bo'yicha quyidagi sug'urta xizmatlari taqdim etilmoqda:

- eksport qaltisliklarini sug'urtalash, musodara, transfer kechikish, embargo joriy etish, shartlarni bajarishdagi to'sqinliklar va boshqalar;
- qurilish-montaj ishlarini sug'urtalash;
- yuklarni sug'urtalash;
- aviatsiya vositalarini sug'urtalash;
- avtotransport mas'uliyatini sug'urtalash;
- xayot va salomatlikni sug'urtalash.

6. Respublika xususiy sug'urta kompaniyalari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan respublikamizda sug'urta monopoliyasi qisqara boshlaydi, davlat sug'urta tashkilotlari bilan birga qator xususiy sug'urta kompaniyalari ish boshladi. Bu kompaniyalarning faoliyati sug'urtalash shartlari va sug'urtani tashqil qilish yo'nalishlari bo'yicha davlat sug'urta tashkilotlaridan farq qiladi. Ularning bu yo'nalishlari va xususiyatlari bozor iqtisodiyoti talablariga ko'proq javob beradi. Birinchidan, bunday xususiy tashkilotlarni barpo qilish uchun ta'sischilar ixtiyorida bir necha o'n million mablag' bo'lishi lozim, bu xaqida aloxida ruxsatnoma olinish kerak. Ikkinchidan, davlat sug'urta tashkilotlarining ob'ektlari qonun asosida chegaralangan bo'lsa, bu tashkilotlar ob'ektlarni o'zlari belgilaydilar va bu xaqida o'z nizomlarida qayd qiladilar. Uchinchidan, sug'urta mablag'larining manbalari faqat sug'urtalanuvchilarning to'lovlarigina bo'lib qolmasdan, shuningdek, ta'sischilarning mablag'lari, sug'urta tashkiloti ixtiyorida bo'sh turgan mablag'lardan xo'jalik ishlarida ishlatish asosida olingan foyda va boshqa sug'urta tashkilotlarini qayta sug'urtalash bo'yicha to'planadigan mablag'laridan iborat bo'ladi.

Sug'urta jamiyatlari ishida xorijiy mamlakatlar xam xamkorlik qilishlari mumkin. Sug'urta jamiyatlari xavf-xatarlariga xayot va salomatlik, mol-mulk, aqliy mexnat maxsulotlarining daxlsizligi, safar yoki dam olishni bexatar o'tish bilan bog'liq xar xil favqulotda xodisalar kiradi. Bunday sug'urta kafolati mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqarish aktsionerlik jamiyatlari,

korxonalar, fermer xo'jaliklari, tijorat banklari va boshqalarga xam taqdim etilishi mumkin.

Xozirda O'zbekistonda 60 dan ortiq sug'urta kompaniyasi, agentligi va firmalar mavjud. Xududlar bo'yicha sug'urta bo'limlari va vaqillarni xisobga olganda sug'urta jamiyatlarining soni 60 ga yaqindir.

Sug'urta aktsionerlik jamiyatlari bir xilda ixtisoslashgan emas, ular o'z nizomlarida ko'rsatilganidek turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan: «Madad» sug'urta agentligi kichik va xususiy biznes bilan shugullanuvchi tadbirkorlarga kredit berish bilan shugullanadi, boshqa sug'urta kompaniyalari korxona va tashkilotlarga tegishli mol-mulklarni sug'urtalaydilar, bundan tashqari turli yo'nalishlarda junatilayotgan yuklar xam sug'urtalanishi mumkin, lekin ko'pchilik sug'urta tashkilotlari fuqarolarga tegishli mol-mulklarni, ularning xayotini, qo'shimcha pensiya olish imkoniyatlarini sug'urtalaydi, bundan tashqari ayrim sug'urta kompaniyalarida tibbiyot sug'urtasi mavjudki, bu sug'urta turi sug'urtalanuvchilarga ixtisoslashgan tibbiyot xizmati ko'rsatishga imkoniyat yaratadi.

Aktsioner sug'urta tashkilotlari o'z daromadlari xisobidan davlat byudjetiga daromad soligi to'laydilar. Bu daromadlarni xisoblashda sug'urta ishini xususiyatlari, masalan, to'lanadigan zararlarni miqdori, turli xil o'ziga xos fondlarni tashqil qilinishi e'tiborga olinadi.

Sug'urta tashkilotlari davlat tomonidan belgilangan tartibda nazorat qilinadi. Bundan maqsad sug'urta bozoriga spekulyativ, firibgarlarni kirib qo'lishlarga yo'l qo'ymaslikdir. Davlat nazoratining maqsadi shuningdek, tashqil qilinayotgan sug'urta tashkilotlarni ro'yxatga olish, ruxsatnomalar berish, chet el sug'urta kompaniyalarining sug'urta faoliyatida qatnashishlarini qonunlashtirish, qayta sug'urtalashni amalga oshirish ustidan nazorat qilishdan iborat. Xozirda respublikamizda mustaqil qo'shma sug'urta tashkilotlariga mavjud ruxsatnoma berish uchun ko'rsatilgan sug'urta tashkilotlarining nizomlari 3 yil davomida sug'urtani rivojlantirish istiqbollari, qayta sug'urtalashni tashqil qilish masalalari ko'rib chiqiladi, shuningdek, kredit tashkilotlarining sug'urta kompaniyalarining nizom, rezerv va boshqa fondlari xaqidagi ma'lumotnomasi xam taqdim qilinishi talab qilinadi.

Tayanch so'z va iboralar

Ijtimoiy sug'urta
Tibbiy sug'urta
Mulkiy sug'urta
Qo'shimcha pensiya sug'urtasi
Nikox-to'y sug'urtasi
Qayta sug'urtalash

Nazorat uchun savollar

1. O'zagrosug'urta DASKning asosiy vazifalari.
2. Kafolat DASKning asosiy faoliyat yo'nalishlari.
3. Madad sug'urta agentligining asosiy vazifalari.

4. O'zbekinvest eIMSKning asosiy yo'nalishlarini sanab o'ting.
5. Sug'urtani boshqarish deganda nimani tushunasiz?
6. Qayta sug'urtalash nima?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati xaqida»gi qonuni Toshkent 2002 y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston» 1995 y.
4. Karimov I.A.«O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
6. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
7. Sobirov X.R. «Sug'urta xaqida 100 savol-javob» T.: «Mexnat» 1999 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sobirov X.R. «Xitoyda sug'urta» «Iqtisod va xisobot» 1998
2. Sobirov X.R. «Axmoniyar davrida soliq isloxoti» «O'zbekiston soliqlari xabarnomasi» 1996 y.
3. Pulov K.I. «Straxovoe delo v Rossii» M-Edma 1998 g.
4. Kolomina E.V. V.V.SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
5. Reytmana L.I. «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
6. SHaxov V.V. «Vvedenie v straxovanie» M-Finansu i statistika» 1997 g.
7. Sarkisov S.E. Lichnoe straxovanie. M-«Finansu i statistika»,1997 g.

7-Mavzu: Mulkiy sug'urta va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Reja:

1. Fuqarolar mulkini sug'urtaviy ximoyalash asoslari.
2. Xuquqiy shaxslar mulkini sug'urtalash.
3. Zararni va sug'urta qoplamasini aniqlash tartibi.

1. Fuqarolar mulkini sug'urtaviy ximoyalash asoslari.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilikka muvofiq mulk davlat, xususiy va jamoat birlashmalari ixtiyorida bo'lishi mumkin. Fuqarolarning real daromadlari ortishi bilan fuqarolar mulkining tarkibi uzoq muddat foydalaniladigan qimmatbaxo predmetlar xisobiga ortib boradi. Bu bilan yangi sug'urta ob'ektlari paydo bo'ladi. Fuqarolar mulkining tarkibini o'zgarishi va miqdorining ko'payishi sug'urtaviy ximoyalash extiyojini shakllantiradi. Bu esa mazko'r mulklar sug'urtasini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Fuqarolarning barcha mulklari yig'indisini ularning oila ehtiyojlarini qondirishga nisbatan muximlik darajasi bo'yicha ikki toifaga bo'linadi.

1. Zaruriy mulk ya'ni birlamchi ehtiyoj uchun muxim bo'lgan xamda nobud bo'lishi shaxsiy manfaatlaridagina emas, balki jamiyat manfaatlarini uchun xam taalluqli bo'lgan mulk:

2. Boshqa mulklar, kaysi nobud bo'lishi faqatgina shaxsiy manfaatlargagina tegishli.

Birinchi toifa mulkining (uy-joylar, qishloq xo'jaligi xayvonlari, qaysiki ular oilaning xayot kechirish manbai bo'lsa) nobud bo'lishi mulk egasiga favqulotda zarar etkazishi mumkin, shu bilan birga u tashqi yordamsiz vaziyatdan chiqqa olmasligi mumkin.

Bu mulkning nobud bo'lishida davlat fuqarolarga moddiy yordam ko'rsatishga majbur bo'ladi. Bunday mulklarni sug'urtaviy ximoyalash maqsadida davlat birinchi toifaga tegishli mulklarni, ularning qiymatini ma'lum minimumi miqdorida majburiy sug'urtalashni tashqil etadi. Qiymatning qolgani ixtiyoriy sug'urtaga tegishli bo'ladi.

Ikkinchi toifa mulklari (transport vositalari, ro'zgor buyumlari va xokazo) faqat ixtiyoriy sug'urtalanishi mumkin. Ixtiyoriy sug'urtaning amaldagi shartlari fuqarolar mulkining barcha guruxlarini qamrab olmaydi. Majburiy sug'urta bo'yicha fuqarolarning quyidagi qurilmalari sug'urta qilinadi: uy-joylar, garajlar, qo'rg'on devorlar, issiqxonalar, xo'jalik ehtiyojidagi qurilmalar, omborxonalar, xayvonlarga mo'ljallangan xonalar va boshqalar. Sug'urtalanuvchilar bo'lib qurilmalarning shaxsiy mulk sifatidagi egalari xisoblanadi. SHaxar joylarda fuqarolarga tegishli bo'lgan qurilmalar va ularning baxosi to'g'risidagi ma'lumotlar kommunal xo'jalik organlaridan olinadi. Qishloq joylarida esa qishloq fuqaro yiginlarining xo'jalik daftarlaridagi ma'lumotlar asosida xisobga olinadi. Majburiy sug'urtaga taalluqli bo'lgan qurilmalar ularning qiymatini 40 foizi miqdorida sug'urtalangan xisoblanishi kerak va bu ob'ektning sug'urta so'mmasi xisoblanib xamda undan kelib chiqib qurilma egasi sug'urta badallarini to'lashi lozim. Biroq xozirgi sharoitda narxlarning tez o'zgarib turganligi sababli fuqarolarga tegishli mulklar majburiy sug'urtasi bo'yicha so'mmalari va badallar miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qaroriga asosan belgilanmoqda.

2. Xuquqiy shaxslar mulkini sug'urtalash.

Korxona va tashkilotlarning mulki asosiy va aylanma mablag'lardan tashqil topadi. Mazko'r mulklarni sug'urtalashning axamiyati shundan iboratki, xar qanday korxona, tashkilot va boshqa xuquqiy shaxslarning asosiy va aylanma fondlari ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va ijtimoiy faoliyatning zaruriy bazasi xisoblanadi. Ularni sug'urtaviy ximoyasini ta'minlash sug'urta munosabatlari tizimida aloxida axamiyatga ega bo'lishi zarur. Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati barcha sug'urta munosabatlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Aylanma fondlar uchun esa eskirish degan tushuncha yo'k shuning uchun zararlarni qoplash masalasi aylanma mablag'larlarni to'la balans qiymatida sug'urtalash yo'li bilan xal qilinadi.

Mulk sug'urtasi shartlariga ko'ra asosiy shartnomaga ko'ra korxonalarga tegishli, binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, quvvat beruvchi mashinalar, uskunalar, transport vositalari, tugallanmagan kapital qurilish ob'ektlari sug'urta qilinishi mumkin.

Qo'shimcha shartnoma bo'yicha korxona tomonidan ijara shartnomasi asosida olingan barcha mulklar (agar u ijarachi tomonidan sug'urta qilinmagan bo'lsa), shuningdek korxona tomonidan boshqa tashkilotlardan va axolidan qayta ishlash, tuzatish, ko'chirish va saqlash uchun olingan mulklar sug'urta qilinishi mumkin. Xujjatlar, naqd pullar, qimmatli kogozlar, sug'urta qilinmaydi.

Mol-mulklar quyidagi xollardan sug'urtalangan xisoblanadi: suv toshqini, er osti suvlarining ta'siri, yong'in, bo'ron, dovul, sel oqimi, do'l, mazko'r xudud uchun xos bo'lmagan sovuq (issiq) qalin qor yogishi, er o'pirilishi, elektr kuvvatining uzilib qolishi, yashin urishi va er qimirlashi, qulfn buzib kirib o'g'irlik, yoqib ketish. Korxonaga tegishli mulklar to'la qiymatida qilinganda quyidagi miqdorda sug'urtalangan xisoblanadi.

- binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, transport vositalari, mashinalar va boshqa asosiy vositalarning balansdagi to'la qiymati miqdorida;

- korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan yoki sotib olingan tovar-moddiy, boyliklar xaqiqiy tannarxi miqdorida;

- ishlab chiqarilgan (etishtirilgan) qishloq xo'jalik maxsulotlari xaqiqiy tannarxi miqdorida;

- tugallanmagan kapital qurilish ob'ektlari qurilish ishlari uchun qabul qilingan me'yorlar va baxolardan kelib chiqib sarf qilinadigan moddiy va mexnat xarajatlari miqdorida;

Ijara shartnomasiga ko'ra olingan inshootlar, mashinalar transport vositalari va boshqa mulklar, mazko'r mulklar tegishli bo'lgan korxonaning buxgalteriya xisobi ma'lumotlari asosidagi balans baxosidan kelib chiqib sug'urta qilinadi.

Sug'urta shartnomasi bir va undan ortiq yilga tuziladi. Bir necha yillik shartnoma tuzilganda mulk qiymati va sug'urta to'lovlari xar yili qayta xisoblanadi. Sug'urta shartnomasining amal qilish davri ichida chiqib ketgan mulk uchun sug'urta badallari qaytarilmaydi.

Mulk sug'urtasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- mulkni yong'inga qarshi qoidalariga qat'iy amal qilgan xolda nazorat tashkilotlari talablarining bajarilishini ta'minlashi, binolar, inshoot va boshqa mulklardan foydalanish qoidalariga rioya etish;

- sug'urta kompaniyalari va nazorat tashkilotlariga sug'urta qilingan mulkning butligini tekshirishda yordam berish;

- sug'urta qilingan mulk zararlanganda, nobud bo'lganda yoki sug'urta xodisasi ro'y berish xavfi paydo bo'lishi sababli ish olib borilganda tegishli sug'urta kompaniyasiga xabar berish;

- sug'urta qilingan mulk nobud bo'lganda, zaralanganda, yo'q bo'lganda sug'urta kompaniyasiga zarur xujjatlarni taqdim etish;

Sug'urtalovchi esa quyidagi majburiyatlarni oladi:

- sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoidolari va tartibini tushuntirish, sug'urtaga olinadigan mulkning qiymatini aniqlashda yordam berish;
- sug'urta qilingan mulk tug'ri saqlanayotganligining qonuniyligini nazorat organlari bilan birgalikda doim tekshirib turish;
- mulk nobud bo'lganda zarar qiymatini aniqlash uchun komissiya tuzishda yordam berish va ko'rsatilgan muddatlarda sug'urta qoplamasini to'lanishini ta'minlash kerak.

3. Zararni va sug'urta qoplamasini aniqlash tartibi.

Sug'urta kompaniyasi sug'urta qildiruvchidan mulkning nobud bo'lganligi, yuqolganligi yoki shikastlanganligi xaqida xabar olgach, uch kundan kechiktirmay qabul qilingan shakl bo'yicha sug'urta dalolatnomasini tuzishga kirishishni va o'n kun ichida zararni xisoblab chiqishi lozim.

Sug'urta qoplamalari korxonaga sug'urta kompaniyasi va sug'urta qildiruvchi vaqillarining majburiy ishtirokida tuzilgan dalolatnoma va zarar miqdorining sug'urta kompaniyasi tomonidan bajarilgan xisob-kitobi asosida to'lanadi.

YOng'inni to'xtatish chogidagi choralar yoki kutilmaganda tabiiy ofat xavfi bo'lishi munosabati bilan binolar va boshqa mulklarni qismlarga ajratishga, bino xamda inshootlarni qayta tiklash uchun qilingan sarflar xam zarar miqdoriga qo'shiladi.

Sug'urta qoplamasining to'lanishi sug'urta kompaniyasining aybi bilan kechiktirilsa, kechiktirilgan xar bir kun uchun zarar qoplamasining 0,05 foizi miqdorida jarima to'lanadi.

Agar mulk jinoyat oqibatida nobud bo'lgan yoki shikastlangan va shu tufayli javobgarga nisbatan jinoiy ish qo'zgatilgan bo'lsa, u xolda javobgar shaxs ustiga qo'yilgan da'voni jinoiy ish ko'rilyotgan davrda sud tomonidan ko'rib chiqishga imkoniyat tugdirish maqsadida sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoplamasi tergov ishlari borayotgan paytda yoki tugagandan sung to'lanadi.

Agar zarar to'la qoplansa yoki sud etkazilgan zararni javobgar shaxsdan undirishga xukm chiqarsa, u xolda sug'urta qildiruvchining sug'urta qoplamasiga bo'lgan xuquqidan maxrum bo'ladi.

Quyidagi xollarda sug'urta qoplamasi to'lanmaydi:

- a). Ish jarayonida ro'y berish muqarrar bo'lgan yoki tabiiy xolda ro'y beradigan (nurash, eskirish, chirish). Aloxida jismlarning o'ziga xos xususiyatlar tufayli ko'rilgan zarar uchun;
- b). Sug'urta qilingan mulkni qayta ishlash maqsadida isitish, quritish, qaynatish va boshqa ta'sir ko'rsatish natijasida ko'rilgan zarar uchun;
- v). Sug'urta xodisasi ro'y berganligi xaqida o'z vaqtida xabar bermaganlik natijasida zarar miqdorini aniqlash mumkin bo'lmaganda;
- g). Qulf buzarlilik bilan o'g'irlash, talan-taroj qilish, transport vositalarini olib qolish xodisalari xuquqni muxofaza qilish organlari tomonidan tasdiqlanmaganda;

Tayanch so'z va iboralar.

1. Mulk sug'urtasi ob'ekti
2. Mulkiy sug'urta turlari
3. Fuqarolar mulki sug'urtasi
4. Korxonalar mulki sug'urtasi
5. Sug'urta qoplamasi
6. Ixtieriy mulkiy sug'urta
7. Majburiy mulkiy sug'urta

Nazorat uchun savolar

- 1) Mulkiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
- 2) Nima sababdan fuqarolar mulki majburiy sug'urtaga olinadi?
- 3) Fuqarolarning qanday mulklari majburiy sug'urtalanadi?
- 4) Asosiy fondlar qanday shartlar bo'yicha sug'urtalanadi?
- 5) Sug'urta qildiruvchi mulk sug'urtasi bo'yicha qanday xuquqlarga ega bo'ladi?
- 6) Ko'rilgan zararlar miqdori qanday tartibda aniqlanadi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati xaqida»gi qonuni Toshkent 2002 y.
3. I.A. Karimov «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida» T-«O'zbekiston» 1995 y.
4. I.A. Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T-«O'zbekiston» 1998 y.
5. I.A. Karimov «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» T-«O'zbekiston» 1998 y.
6. I.A. Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T-«O'zbekiston» 1998 y.
7. X.R. Sobirov «Sug'urta xaqida 100 savol javob» T-«Mexnat» 1999 y

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. X.R. Sobirov «Xitoyda sug'urta» «Iqtisod va siyosat» 1998 y.
2. X.R. Sobirov «Axmoniylar davrida soliq isloxti» «O'zbekiston soliqlari xabarnomasi» 1996 y.
3. Straxovoe delo. Uchebnik pod. red. Prof. L.I. Reytmanna-M. «Bankovskiy i birjevoy nauchno- konsul'tatsionnuy tsentr», 1996
4. E.V. Kolomina, V.V. SHaxova «Slovar' straxovux terminov» «Finansu i statistika» 1999 g.
5. L.I. Reytmanna «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
6. V.V. SHayxov «Vvedenie v straxovanie» M- «Finansu statistika» 1997g.
7. A.A. Gvozdenko. «Osnovu straxovaniya» «Finansu i statistika» 1998 g.
8. Straxovanie: ot A do YA (knigi dlya straxovateley). M: «Infra-M» 1996 g.

8-Mavzu: Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Reja:

1. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasining moxiyati.
2. Tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasi.
3. YAngi texnika va texnologiya tavakkalchiliklari sug'urtasi.

1.Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasining moxiyati

Tadbirkorlik faoliyati va sug'urta-bozor munosabatlarining uzviy bog'liq kategoriyalardir.

Tadbirkorlik sug'urtasi faoliyatining yakuniy natijalari bilan birgalikda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ta'sir qiluvchi turli omillar ximoyasiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Natijada sug'urta vositasida ulkan bozor fazosida suzib yurgan xar bir shaxsga xavf soluvchi kutilmagan xolatlarga qarshi kafolat yaratishi kerak.

Bozor sharoitida tijorat, texnik, xuquqiy va siyosiy tavakkalchiliklardan sug'urtalash dolzarb xisoblanadi. Sug'urta kundan-kunga faqatgina tabiiy ofatlardagina ximoyalash emas, balki iqtisodiy kon'yukturaning no-ma'kul o'zgarishlaridan xam ximoyalash vositasi bo'lib bormokda. Sug'urta bozor munosabatlarining turli qatnashchilari o'rtasidagi o'zaro moliyaviy va xuquqiy munosabatlarni tartibga solishga yordam berishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olish, kapital xajmini ko'paytirish xisoblanadi. SHuning uchun kutilgan foydani yo'qotish extimoli yoki ko'zlangan daromadni ololmaslik xolatlaridan sug'urtalash muxim axamiyat kasb etadi.

Foydani yo'qotilishiga (ololmaslikka) olib keluvchi barcha sabablar ikki guruxga bo'linadi:

1. Tabiiy ofatlar, avariyaalar va boshqa shunga o'xshash xodisalar natijasida ishlab chiqarish jarayonining buzilishi.

2. Bozor kon'yukturasining o'zgarishi, maxsulot etkazib beruvchi yoki sotib oluvchi tomonidan kontraktlarning buzilishi va boshqalar.

Omillarning bu ikkala guruxi xam sug'urta soxasida bo'lishi lozim.

Samarali tadbirkorlik faoliyatini yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishsiz, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qo'shimcha mablag'larni qidirishdagi ongli tavakkalchiliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu yo'ldagilarning xammasi xam muvaffaqiyatni kafolatlamaydi, yo'qotishlar xam bo'lishi mumkin. Bunday texnik va texnologik tavakkalchiliklardan sug'urtalash ilmiy-texnik va texnologik tavakkalchiliklardan sug'urtalash ilmiy-texnik taraqqiyotning muxim qo'llab-quvvatlovchisi bo'lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaning o'zi tijorat faoliyatining bir soxasi bo'lib boradi. SHuning uchun sug'urtalovchi o'z javobgarligiga u yoki bu tavakkalchilikni olish bilan, avvalo o'zi xaqida uylaydi, ya'ni tuzilayotgan sug'urta shartnomasi unga nima beradi. SHuningdek, u yirik tavakkalchiliklarning yuqori xavfi mavjud bo'lgan sug'urtaning ayrim turlariga qo'l ura olmaydi. SHuning

uchun bunday turlarning ko'pchiligi birgalikdagi sug'urtaning predmeti bo'lishi mumkin.

Bozor xo'jaligining kengayishi bilan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ko'plab ob'ektlar sug'urtaga jalb qilinadi. Lekin, sug'urta ximoyalarining extimoliga real sug'urta bozorini shakllanishi, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy bazasini mustaxkamlanishi, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy bazasini mustaxkamlanishi bilan amalga oshadi.

2.Tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Bu sug'urta turining obe'kti sug'urtalanuvchining tijorat faoliyati xisoblanadi, qaysiki biron-bir ishlab chiqarish, ishlar yoki xizmatlar turiga pul mablag'lari va boshqa resurslarni investitsiya qilish xamda ma'lum davrdan so'ng bu qo'yilmalardan daromad olishni ko'zlovchi. Sug'urtaning bu turi shartnoma tuzish va uni amal qilish butun davri bo'yicha ancha murakkab turlardan biri xisoblanadi.

Sug'urta tashkilotining tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasi bo'yicha javobgarligi sug'urtalanuvchining bozor kon'yukturasining noqulay, oldindagi aytib bo'lmaydigan o'zgarishlari va ko'zlangan tijorat faoliyatini amalga oshirish sharoitlarini yomonlashuvi natijasidagi yo'qotishlarni qoplashdan iborat.

SHartnoma bo'yicha javobgarlik chegarasi xisoblanmish- sug'urta so'mmasining miqdori sug'urtalanuvchining arizasi va albatta, sug'urta tashkilotining roziligi bilan belgilanadi. Sug'urta so'mmasi ikkita variant bo'yicha belgilanishi mumkin. Birinchi variant-sug'urtalanuvchining sug'urtalanayotgan operatsiyalarga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalari chegarasida. Ikkinchi variant-sug'urta so'mmasi faqat kapital xarajatlar xajmidan emas, balki kutilayotgan ma'lum (me'riy) daromadlarning xam birgalikdagi miqdoridan iborat bo'ladi.

Sug'urtaning maqsadi, agar ma'lum davrdan so'ng sug'urtalangan operatsiyalar ko'zda tutilgan natijani bermasa, sug'urtalanuvchiga qurilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashdan iboratdir. Sug'urta qoplamasi sug'urta so'mmasi va sug'urtalangan tijorat faoliyatidan olingan xaqiqatdagi moliyaviy natijalar o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi.

Sug'urta so'mmasini belgilash tartibi bo'yicha sug'urta mazmuni xam o'zgaradi. 1-variantda sug'urtalovchining qilgan xarajatlari qoplanadi; uni investitsiya sug'urtasi xam deyish mumkin. 2-variantda xarajatlar va me'yoriy foyda qoplanadi, shuning uchun bir daromad (foyda) sug'urtasi xam deb atash mumkin.

Sug'urtaning maqsadi qo'yilmalarni yo'qotish extimolidan ximoyalash xisoblanar ekan, sug'urta shartnomasining amal qilish muddati kapital xarajatlarning qoplanish muddati bilan asoslanadi.

SHuni ta'kidlash kerakki, sug'urta shartnomasining amal qilish muddati belgilanayotganda sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining manfaatlari bu erda turlicha nomayon bo'ladi.

Sug'urtalanuvchi amalga oshirayotgan faoliyatini tezroq qoplanishiga intilar ekan, ob'ektiv ravishda sug'urta muddatining qisqarishidan manfaatdordir. Sug'urta tashkiloti uchun shartnomani amal qilishi muddatining qisqaligi tavakkalchilikni oshirib yuboradi. Muddatning uzaytirilishi qoplanishni aniqroq qiladi, shundan kelib chiqib sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadigan zararlarni ro'y berish extimolligini kamaytiradi.

Ko'rilayotgan sug'urta turining xususiyati shundan xam iboratki, sug'urta qoplamalarining to'lanishi, asosan, sug'urta muddati tugagandan sung amalga oshiriladi, qachonki sug'urtalangan tijorat amallarining yakuniy natijalari aniqlanganda. Sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha esa zararlarni kompensatsiyalash zarurati sug'urta shartnomasini amal qilishining istalgan vaqtida amal qilishi mumkin. Tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasida to'lanishi mumkin bo'lgan to'lovlar bo'yicha muddatning belgilanishi tushgan badallardan rejali foydalanish imkonini beradi, bu davrda zaxiralar xosil qilish uchun sharoitlar yaratadi. SHuning uchun sug'urta shartnomasining amal qilish muddati kelishilayotganda ilmiy asoslangan ko'rsatmalardan, chet el ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining turli soxalarida investitsiyalarning o'zini qoplash amaliyotini taxlilidan kelib chiqish zarur.

Aslida sug'urta qoplamasi sug'urta shartnomasi tuguguncha xam to'lanishi mumkin, qachonki global' ko'lamdagi qandaydir xodisalar natijasida foyda olish u yoqda tursin, qo'yilgan mablag'larni qaytarishning xam ilojisi yo'q bo'lib qolganda.

Barcha bunday xolatlarda sug'urta tashkilotiga zudlik bilan xabar berish zarur. Biroq bozor kon'yukturasi bilan bog'liq ko'p xolatlar ma'lum tuzatishlarga molik bo'ladi, noma'qul o'zgarishlar vaqtinchalik bo'lishi mumkin. SHuning uchun faqatgina sug'urta muddatining tugashi tijorat faoliyatining natijalari va to'lanishi kerak bo'lgan qoplamalarning xajmiga javob berishi mumkin.

Sug'urtaning xarakteri shartnoma tuzilishining qator muxim talablarini asoslaydi. Sug'urtalanuvchi mazko'r faoliyat uchun ruxsatnomalar, litsenziyalar yoki patentlar, boshqa zaruriy xujjatlarga ega bo'lishi kerak. U o'zining sug'urta to'g'risidagi yozma arizasida oldindan turgan tijorat faoliyati, unda kutilayotgan daromadlar va u bilan bog'liq xarajatlar to'g'risida, tavakkalchilik darajasini baxolash imkonini beruvchi xolatlar to'g'risida imkon qadar to'lik ma'lumotlar berishi kerak. Albatta, sug'urta tashkilotining o'zi turdosh korxonalarining faoliyati natijalari to'g'risidagi ko'rsatkichlarni to'plashi va taxlil qilishi kerak. Bank va boshqa kreditorlar oldida muddati o'tgan qarzlarga ega korxonalar bilan shartnomalar tuzish kerak emas.

Sug'urtaning boshqa turlari kabi sug'urtaga va sug'urta javobgarligiga qabul qilayotganda ba'zi chegaralarni qo'llash zarur. Demak, sug'urtadan vositachilik faoliyatini, azartli o'yinlarga qo'yilmalar va shu kabilarni chiqarish maqsadga muvofiqdir. Qoida bo'yicha, sug'urta javobgarligidan urushlar va xarbiy xarakatlar, davlat organlari qarorlari va siyosiy to'ntarishlar valyuta ko'rsini o'zgarishi, korxonaning bank tomonidan kreditlanishini rad etilishi natijalarida ko'rilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar sug'urta orqali qoplanmaydi.

Umuman, xar qaysi sug'urta tashkiloti o'zining javobgarligiga qabul qiluvchi tavakkalchiliklarni chegaralash yoki kengaytirish xuquqiga ega.

Tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasi bo'yicha ta'rif stavkalari ko'plab omillarga: faoliyat turiga, sug'urta muddatiga, bozor munosabatlarining stabillik darajasiga va boshqalarga bog'liq. Xar bir korxona uchun tavakkalchilik va to'lov stavkasi aloxida (individual) dir.

3.YAngi texnika va texnologiya tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash tavakkalchiligi sug'urtasini ikkita yo'nalishga bo'lish mumkin. Birinchisi- bu texnikani o'zini texnologik liniyalarni ularni ishdan chiqishi ishlash jarayonini buzilishi, talofat ko'rish xollaridan sug'urtalash. Mazko'r xolatda sug'urtalangan ob'ektlardagi bevosita ko'riladigan zararlardan ximoya nazarda tutiladi. Ikkinchisi- yangi texnika, texnologiyani qo'llash yoki ularni buzilishi, to'xtab qolishi bilan bog'liq ko'zda tutilmagan oqibatlar sug'urtasi. Bu erda qo'shimcha xarajatlar va olinmagan foyda ko'rinishidagi bilvosita zararlar inobatga olinadi. Bu ikkala sug'urta xam aloxidadir. Biroq ularni birgalikda qo'llash o'zini oqlagan.

Sug'urtaning ob'ekti sinov va tekshirishlardan keyin ishlatishga yaroqli deb tan olingan mashinalar, texnik va texnologik qurilmalar xisoblanadi.

YAngi texnika va texnologiyalar sug'urtasi ularni qo'llash tavakkalchiliklariga nisbatan amalga oshiriladi. Bunday tavakkalchiliklarga mashinalar konstruksiyalaridagi va texnologiyalardagi, materiallarni tanlash yoki tayyorlashdagi xattoliklar; kutilmaganda bozorda yana xam unumli texnika va texnologiyalarni paydo bo'lishi; sinov paytida aniqlash mumkin bo'lmagan yashirin deffektlar; o'lchov, me'yorlashtirish va boshqa asboblarning ishdan chiqishi; elektr quvvati va bosimni ortib ketishi, qisqa tutashuvlar; mashinalarni buzilishi va ishlab chiqarishning to'xtashiga olib keluvchi texnika va texnologik liniyalarga xizmat ko'rsatishdagi xattoliklar, etiyotsizlik, aloxida shaxslarning garazguyligi va boshqa sabablar.

Mazko'r sug'urtaning xususiyati, ko'rinib turibdiki aloxida shaxslarni aybi bilan yuzaga keladigan zararlarni qoplashdan iborat. Zararlar agarda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlash uchun zarur kasbiy tayyorgarlikka ega shaxslarning tasodifiy xattolari yoki ataylab qilgan xarakatlari natijasida yuzaga kelsa qoplanish ko'zda tutiladi.

Texnika va texnologiya tavakkalchiliklari sug'urtasi yong'in, portlash, tabiiy ofat natijasida ko'riladigan zararlarni qoplamaydi. CHunki bo'lar mulk sug'urtasi bo'yicha javobgarlikka kiritilgan. Boshqa sug'urta turlari kabi, xarbiy xarakatlar, ish tashlashlar, mulkning musodara qilinishi va shunga o'xshash boshqa xolatlar natijasida ko'rilgan zararlar qoplanmaydi. Albatta, xar qaysi sug'urta tashkiloti, sug'urtalanuvchining istagi bo'yicha bitta shartnomada texnik, texnologik va yong'in tavakkalchiliklaridan sug'urtaviy ximoyani umumlashtirishi mumkin.

Texnologik (texnik) qurilmalar bilan sug'urta xodisasi ro'y berganda, qisman ko'rilgan zararlar va to'la talofat farqlanadi. Sug'urtalangan ob'ekt buzilib, uni qayta tiklash qiymati ob'ektning sotib olish va korxonaga o'rnatishning boshlang'ich qiymatidan oshmaganda qisman zarar xisoblanadi. Bu xolatda mashina yoki jixozning ishchi xolatiga qayta tiklash uchun zarur bo'lgan xarajatlar qoplanadi.

Agar qiymat boshlang'ich qiymatdan yuqori bo'lsa, u xolda ob'ekt to'la talofat ko'rgan bo'ladi. Bu xolatda uni qayta tiklash xarajatlari emas, boshlang'ich qiymati qoplanadi.

Sug'urta to'lovlari stavkalarining texnik va texnologik qurilmalarning turlari bo'yicha o'rnatish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tegishli statistik ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Lekin ular yangi texnika va te'nologiyalarni qo'llash tavakkalchiliklari o'zgarishiga nisbatan umumiy tendentsiyalarni, shuningdek har bir ob'ekt bo'yicha ekspertli prognoz baxolarini xisobga olgan xolda tuzatilishi mumkin.

Tayanch so'z va iboralar

1. Tadbirkorlik tushunchasi.
2. Sug'urta tavakkalchiligi.
3. Tijorat tavakkalchiligi.
4. Texnologiya tavakkalchiligi.
5. Sug'urta qoplamasi.

Nazorat uchun savollar

- 1) Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasining mohiyati nimadan iborat?
- 2) Tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasining ob'ekti nima?
- 3) Sug'urta so'mmasini belgilash tartibi qanday?
- 4) Yangi texnika va texnologiyalar sug'urtasining mohiyati nimadan iborat?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni. – Toshkent 2002 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: «Adolat», 1996 yil.
3. Ataxanov N.A. i dr. Straxovoe delo. Fergana, 1998
4. Gvozdenko A.A. Osnovu straxovaniya. M.: «Finansu i statistika». 1998.
5. Gomellya V.B. Osnovu straxovogo dela. M.: «SOM Intek», 1998 goda.
6. Juravlev YU.M. Slovar'-spravochnik terminov po straxovaniyu i perestraxovaniyu. – M.: «Anqil», 1992
7. Rayzberg B.A. i dr. Ko'rs ekonomiki. –M.: «Infra-M», 1997
8. Reytman L.I. i dr. Straxovoe delo. –M.: Bankovskiy i birjevoy nauchno-konsul'tativnuy tsentr, 1992
9. Sobirov X. Sug'urta: 100 savol va javob. T.: «Mexnat», 1998
10. Shaxov V.V. Straxovanie.M.: «Straxovoy polis», 1997.

9-Mavzu: Qishloq xo'jaligi sug'urtasi.

Reja.

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida sug'urta ob'ektlari va tamoyillari.
2. Qishloq xo'jalik xayvonlari va ekinlari sug'urtasini amalga oshirish.
3. Qishloq xo'jalik ekinlari, bog'lar va uzumzorlar, nobud bo'lgan ko'p yillik daraxtlar bo'yicha zararlarni aniqlash.

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida sug'urta ob'ektlari va tamoyillari.

Qishloq xujaligi korxonalarini sug'urtalash ishlarini hozirgi paytda "O'zagrosug'urta" davlat xissadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishi-kmsblok xujaligi sohasida tovar ishlab chiqaruvchilarning mulk va maxsulotlarini sug'urta yo'li bilan ximoya etish, banklardan olingan kreditlarni qaytarishga sug'urta kafolatini takdim etish, qishloq xo'jalik maxsulotlarni etishtirish uchun beriladigan avans mablag'larini qaytarishni sug'urtaviy kafolatlash, shuquqiy va jismoniy shaxslarga xar tomonlama sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan iboratdir.

"O'zagrosug'urta" tashkilotining vujudga kelishi munosabati bilan qishloq xo'jalik korxonalarida ixtiyoriy sug'urta doirasi kengaydi. Hozir bu yo'nalishdagi sug'urta ungga yaqin sug'urta turini o'zida mujassamlashtiradi:

1. ekin xosilini sug'urtalash.
2. ekinlarni qayta ekish sug'urtasi.
3. Tabiiy pichanzorlar, yaylovlar va tut daraxtlar bargi xosilini sug'urtalash.
4. Bog' va uzumzorlarni dul urishdan sug'urtalash.
5. Qishloq xo'jalik xayvonlarini sug'urtalash.
6. Pilla xosilini sug'urtalash.
7. Binolar, inshootlar va boshqa mol-mulklar sug'urtasi.
8. YUklarni sug'urtasi.

Qishloq xo'jalik korxonalari mol-mulkini sug'urtalashdagi tamoyillar quyidagilardan iborat: Birinchidan, sug'urtalash universal xususiyatga ega bo'lib, bunda barcha tabiiy ofatlar natijasida etqaziladigan zarar xisobga olinadi; ikkinchidan, etqazilgan zarar xar bir brigada emas, balki xo'jalik bo'yicha yoppasiga xisoblanadi; uchinchidan, sug'urtalash korxonaning yillik faoliyati yakunlari bilan bevosita bog'langan bo'ladi, ko'rsatkichlar xisoblanganda bir necha yillik xosildorlik e'tiborga olinadi.

2. Qishloq xo'jalik xayvonlari va ekinlari sug'urtasini amalga oshirish.

Qishloq xo'jalik xayvonlari yukumli kasalliklar natijasida nobud bo'lishdan, ulatdan, majburiy suyishdan ixtiyoriy sug'urta qilinadi.

Bu sug'urtaga;

a) qoramollar, qo'y-echqilar, parrandalar 6 oylikdan boshlab;

b) otlar, tuyalar, eshaklar va xachirlar-bir yoshdan boshlab;

v) asalari oilalari-kutida;

g) chuchkalar va kuyonlar 4 oylikdan boshlab qabul qilinishi mumkin.

Asosiy chorva mollari sifatida qishloq xo'jalik korxonasining balansida turuvchi xayvonlarning sug'urta puli ularning joriy yil birinchi yanvardagi qiymati bo'yicha belgilanadi.

Sug'urta to'lovlari stavkalari "O'zagrosug'urta" davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan mollarning xar bir turiga ko'ra tasdiklangan foizlarda belgilanadi.

Sug'urta qilingan xayvonlar nobud bo'lganda sug'urta qoplamasining miqdori shartnomada ko'rsatilganidan ortiq bo'lmasligi kerak. Agar majburan suyilgan xayvonning go'shti ist'emol uchun yaroksiz bo'lsa, sug'urta qoplamasi to'la miqdorda tulunadi. Xayvonlar terisi tuman sug'urta bo'limiga topshirilsa, teri baxosi qoplama miqdoridan chegirib tashlanadi. Xo'jalik maqsadlari uchun suyiladigan xayvonlar uchun sug'urta qoplamalari to'lanmaydi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining sug'urtalash tadbirlari "O'zagrosug'urta" DASK tomonidan qishloq xo'jalik korxonalarning ixtiyorlik asosida amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jalik ekinlari quyidagi tabiiy xodisalardan ya'ni jal, xavoning uta isib ketishi xamda pasayib ketishi, buron, shamol, er osti suvlarining ta'siri, chakmok, yashin tushishi va boshqalardan sug'urta qilinadi ya'ni yuqoridagi xolatlar sug'urta xodisalari deb tan olinadi.

ekin xosilni sug'urtalash sug'urta to'lovini xisoblashdan boshlanadi. Buning uchun xo'jalikning xisob-kitob va boshlang'ich xujjatlari bo'yicha: a) joriy yil uchun bir gektar ekin maydonidan olinishi rejalashtirilgan xosil. Bunda xosildorlik miqdori miqdori keyingi uch yil ichida olingan xaqikiy xosildorlikdan yuqori bo'lmasligi kerak, b) maxsulotni sotish narxi, v) ekin maydonining xajmi. Bunda xar bir ekin xosilining qiymati aloxida xisoblanadi. Agar mazko'r yilda rejalashtirilgan xosil sunggi uch yilda rejalashtirilgan xosil sunggi uch yilda xaqikiy urtacha xosildorlikdan ortiq bo'lsa, sug'urta to'lovlari urtacha uch yillik xosildorlik bo'yicha xisoblanadi. Ko'rsatilgan uch ko'rsatkich aniqlangandan keyin sug'urta to'lovlari "O'zagrosug'urta" davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi (DASK) tomonidan ishlab chiqarilgan stavkalar asosida aniqlanadi. Bu stavkalar viloyatlar bo'yicha tarmoqlashtiriladi.

Masalan, Fargona viloyatida stavka sug'urta puli (so'mmasi) ga nisbatan paxta 8-12 foiz, sholi 5-15, sabzavot, kartoshka 10-20, em-xashak 3-5, silos ekinlari 15-25 foiz belgilangan. YA'ni aytaylik 1000 gektardan olinadigan xosildorlik bo'yicha sug'urta puli 1 million so'm bo'lsa, shundan 8,0 foiz miqdorida sug'urta to'lovi belgilanadi. Sug'urta to'lovining miqdori 80 ming so'm xisoblanadi. Sug'urta to'lovi xar bir ekin turi bo'yicha aloxida xisoblanib, ularning jami miqdori aniqlanadi.

SHartnomada ko'rsatilganidek, sug'urta to'lovi kelib tushgan kuni sug'urta polisi beriladi. Polis olingan kundan boshlab ekinlar sug'urtalangan xisoblanadi.

Sug'urta shartnomasida sug'urta muassasalarining javobgarligi kachon boshlanishi va qancha muddat davom etishi ko'rsatilgan bo'ladi. Agar shu davrda sug'urta xodisasi sodir bo'lib kolsa sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta muassasalarining ekinlari uchun javobgarligi bir yillik va ko'p yillik ekinlar eqilgan kundan boshlanadi va quyidagi muddatlarda tugaydi:

a) paxta, kand lavlagi, kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari, xashaki lavlagi ekinlari xosili bo'yicha daladan olib chiqib ketilgan kundan boshlab;

b) don va dukkakli don ekinlari xosili uchun yanchish tamom bo'lgan kundan boshlab;

v) pichan daladan olib chiqilgandan va garamlagandan sung;

g) silosbop kuk ozuqa ekinlari xosili silos urasiga solingandan keyin.

Qishloq xo'jalik ekinlari yigishtirib olingunga qadar o'tgan vaqt davomida xosilning zararlanishi va nobud bo'lishi sug'urta xodisasi xisoblansa, bu xakda korxona 3 kun ichida sug'urta tashkilotiga xabar berishi lozim.

Qishloq xo'jalik ekinlari uchun sug'urta to'lovlari xisoblashda qabul qilingan bir tsentner xosilning baxosi bilan xisoblangan, rejalashtirilgan yoki oxirgi 3 yildagi urtacha xosildorlik qiymati bilan xisobot yilida bir gektar maydonda etishtirilgan urtacha xosildorlik qiymati orasidagi, qishloq xo'jalik korxonasi ko'rgan zarar xisoblanadi. Masalan, rejalashtirilgan xosil 40 tsentner, xisobot yilida olingan xosil 30 tsentner. Bir gektar bo'yicha ko'rilgan zarar 10 tsentner.

3. Qishloq xo'jalik ekinlari, bog'lar va uzumzorlar, nobud bo'lgan ko'p yillik daraxtlar bo'yicha zararlarni aniqlash.

Ko'rilgan zarar miqdori xujaligidagi shu yil eqilgan maydon xajmida xisobidan aniqlanadi. Bir tsentner xosil baxosini natura xisobidagi rakamga ko'paytirsak zararining pul xisobidagi umumiy qiymati kelib chiqadi.

Agar don uchun eqilgan loviya, nuxat kabi dukkakli don va don ekinlari makkajuxori va kungabokar ekin maydonlari zararlanishi natijasida xamma ekin maydonidan zararlanishi natijasida xamma ekin maydonidan yoki bir qismidan don olish uchun emas, balki pichan, kuk ozuqa yoki silosbop maxsulot uchun foydanilgan bo'lsa, u xolda zarar miqdori zararlangan maydondan amalda olingan don, pichan, ozuqa xosili xamda xo'jalik xisobotlarida ko'rsatilgan xosil olingan maydonga asosan xisoblanadi.

Ochiq erda etishtirilgan asosiy sabzavotlar: karam, bodring, pomidor, sabzi, piyozlarning xar biri uchun aloxida; boshqa sabzovotlar, takroriy sabzovotlar; ukrop, kashnich, bakalajon, turup, rediska, shalgom va boshqa ekinlari gurux bo'yicha xisoblanadi.

eqilgan ozuqabop ekinlar zararlangandan sung ekin maydonlaridan xo'jalik yaylov sifatida foydalangan bo'lsa, shu maydonlar uchun sug'urta qoplamasi xisoblanmaydi.

Ko'p yillik mevali daraxtlar zararlanganda yoki nobud bo'lganda zarar miqdori danakli, urug'li, rezavor, yongoksimon daraxtlar va tokzor guruxlari bo'yicha faqat xosilga kirgan maydon uchun xisoblanadi.

Kuchatchilik bilan shugullanuvchi xo'jaliklar kuchatxonalarda kazib olingan nixollardan o'z extiyoji uchun foydalanadigan bo'lsa, zarar qiymatini aniqlashda ming dona nixolning narxi xisobot yilidagi etishtirish tannarxi bo'yicha xisoblanadi. Maxsulotni etishtirish tannarxi rejalashtirilgan tannarx bo'yicha xisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonasi zararlangan yoki nobud bo'lgan daraxtlarning zararlanganligini aniqlash uchun tegishli mutaxassislar va qishloq xo'jalik korxonasi vaqillari bilan birgalikda tekshiruv natijalari asosida daraxtlarning axvoli xaqida dalolatnoma tuziladi.

Qishloq xo'jalik korxonasi zararlangan yoki nobud bo'lgan daraxtlarni kallaklash, qirqish, kuchirish yoki qayta ustirish uchun er ustki qismini kesish ishlarini bajarib bo'lgandan sung 15 kun muddat ichida sug'urta idorasi "Zarar miqdorini xisoblash varakasi"da zarar miqdorini aniqlaydi va qishloq xo'jalik korxonasiga sug'urta qoplamasi sifatida to'laydi.

Ko'p yillik daraxtlarga etqazilgan zarar qiymati ularning balansdagi qiymatidan shu daraxtlarning eskirganlik foizini chegirib tashlab, koldik qiymatidan xo'jalikda daraxtlarning xisobi kay tarzda olib borilishga karab, ularning turlari va guruxlari bo'yicha xisoblanadi.

Bo'lib o'tgan sug'urta xodisasi bo'yicha bog'dagi mavjud daraxtlarning 70 foizi zararlanib, qishloq xo'jalik korxonasi shu zararlangan bog'dagi barcha daraxtlarni kovlab tashlasa zarar miqdori xamma kovlab tashlangan daraxtlar uchun xisoblanadi.

Ishkomli tokzorlar yoki mevali bog'lar butunlay bo'zilsa, daraxtlar va ishkomlarning eskirganlik foizi turlicha bo'lganligi sababli, zarar miqdori aloxida-aloxida xisoblanadi. Ishkomlardan ko'rilgan zarar qiymatini xisoblashda ularning balansdagi qiymatidan foydalanish uchun yarokli ustunlar va simlarning qiymati chiqarib tashlanadi.

Mevali ko'p yillik daraxtlar xosili yigib olinguncha nobud bo'lganda sug'urta xodisasi bo'lib o'tgan yil uchun zarar miqdori bog'lardan olinadigan xosil uchun aloxida va bog'dagi nobud bo'lgan daraxtlar uchun aloxida xisoblanadi.

Ko'p yillik daraxtlar nobud bo'lganda ularni qirqib xo'jalik xujjatlariga ko'ra utin sifatida ishlatish uchun kirim qilingan bo'lsa, kirim qilingan utinning qiymati zarar qiymatini aniqlashda inobatga olinadi.

Sug'urta xodisasi yuz bergan vaqtda ba'zi sabablarga ko'ra urnida bo'lmagan, kirqilgan, ko'rib kolgan xamda eskirganlik darajasi yuz foizdan ortiq bo'lgan daraxt tuplari uchun sug'urta qoplamasi to'lanmaydi.

ekinlar eqilgandan keyin belgilangan vaqt davomida albatta unib chikishi kerak. Lekin sovuk urishi, dul, jala, sel, suvsizlik yoki kam suvlik natijasida ekinlarning unib chikishi sezilmay, qayta ekishga qushimcha xarajatlarni talab etadi.

ekinlar qayta ekishni sug'urtalash qiymati qilingan xarajatlar va yoxud xususiyatlarni e'tiborga olib belgilanadi, biroq u belgilangan texnologik miqdordan oshmasligi kerak. Sug'urta to'lovlari batamom to'lanadi.

Sug'urta xodisasi sodir bo'lganda xo'jalik bu xakda kecha-kundo'z davomida sug'urta tashkilotiga ma'lum qiladi va tekshirish asosida ikki kun davomida dalolatnoma to'zadi. Zararlarni xisoblashda qayta eqilgan maydon bir gektarga sarflangan xarajatlardan kelib chikkan, sug'urta shartnomasidagi kelishilgan qiymatdan oshmagan xolda aniqlanadi. Zarar miqdori xar bir ekin turi bo'yicha aloxida aniqlanadi. Sug'urta qoplamasi un kun ichida to'lanadi.

Tayanch so'z va iboralar

1. Ekinlar xosili sug'urtasi
2. Bog'lar xosil sug'urtasi
3. Uzumzorlar sug'urtasi
4. CHorva mollari sug'urtasi
5. Sug'urta qoplamasi

Nazorat uchun savollar

1. O'zagrosug'urta DASKning asosiy faoliyat yo'nalishlarini sanab bering?
2. Qishloq xo'jalik korxonalari qanday tamoyillar asosida sug'urtalanadi?
3. Qishloq xo'jalik xayvonlari qanday shartlar asosida sug'urtalanadi?
4. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'urtalash tartibi qanday?
5. ekinlar bo'yicha ko'rilgan zarar miqdori qanday aniqlanadi?
6. Qishloq xo'jalik ekinlari uchun sug'urta to'lovlari qanday xisoblanadi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: «Adolat», 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati xaqida»gi qonuni Toshkent 2002 y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston» 1995 y.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston» 1998y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor munosabatlariga utishining o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
6. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va tarakkiyot yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sobirov X.R. «Xitoyda sug'urta» «Iqtisod va xisobot» 1998

2. Sobirov X.R. «Axmoniylar davrida solik isloxoti» «O'zbekiston soliklari xabarnomasi» 1996 y.
3. Pulov K.I. «Straxovoe delo v Rossii» M-Edma 1998 g.
4. Kolomina E.V. V.V.SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
5. Reytmans L.I. «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
6. SHayxov V.V. «Vvedenie v straxovanie» M-Finansu i statistika»

10-Mavzu. SHaxsiy sug'urta va sug'urtaning boshqa yo'nalishlari

Reja:

1. SHaxsiy sug'urta to'g'risida tushuncha. Mexnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotish va xayotni aralash sug'urta qilish.
2. Yo'lovchilar va xarbiy xizmatchilarni majburiy sug'urtalash.
3. Bolalar va nikox-to'y sug'urtasi
4. Boshqa turdagi xayotni ixtiyoriy sug'urtasi.

1.SHaxsiy sug'urta to'g'risida tushuncha. Mexnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotish va xayotni aralash sug'urta qilish.

SHaxsiy sug'urta- shaxslarning xayotini sug'urtalash bo'lib, ixtiyoriylik xamda majburiylik asosida tashqil etiladi. Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta turlariga mexnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotish, xayotni aralash sug'urta qilish, nikox to'yi sug'urtasi, bolalarni kungilsiz xodisalardan sug'urtalash va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

SHaxsiy sug'urtada to'lanadigan sug'urta so'mmalari quyidagi xollarda beriladi. SHartnoma muddati etganligi munosabati bilan yoki vokea sodir bo'lganligi munosabati bilan.

Xayotni aralash sug'urtalash shartlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (16 yoshdan 77 yoshgacha) bilan 3, 5, 10, 15 yoki 20 yil muddatga (lekin shartnomaning muddati tamom bo'lganda ularning yoki 80 dan oshmasligi lozim) sug'urta shartnomalari tuziladi.

Bolalarni sug'urta qilish bolaning ota-onasi va bolaning boshqa qarindoshlari, uning vasiysi yoki xomiysi ularning yoshi va sog-nosogliklaridan qat'iy nazar, bolalarni sug'urta qilish shartnomalarini to'zadilar. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta qilish to'g'risidagi ariza berilgan kunda bolaning yoshi 15 dan oshmagan bo'lishi lozim.

qushimcha pensiyani sug'urtalash shartnomalarini O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolar to'zadilar.

Sug'urta shartnomalarini 25 dan ortiq 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 20 dan ortiq 55 yoshgacha bo'lgan ayollar faqat o'z foydasiga tuzishlari mumkin. Sug'urta muddati tugagach, agar sug'urta shartnomasi bo'yicha xamma badallar to'langan bo'lsa, sug'urtalanuvchi pensiya yoshiga etgandan sung unga umrining

oxirigacha qushimcha pensiya to'lanadi. Pensiya miqdori sug'urta muddati tamom bo'lgan paytda O'zbekiston belgilangan, yong kam pensiya oladi.

Mexnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotishni sug'urta qilish shartnomalari 15 yoshdan 69 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan ishlovchi fuqarolar, chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ularning ogzaki arizalari asosida bir yil muddatga tuziladi.

Ishlamaydigan fuqarolar (nogironlar, pentsionerlar) bilan shartnoma tuzilmaydi. Agar mexnatga yaroksizlik o'zluksiz 10 kundan ortiq davom etgan bo'lsa, yaroksizlikning xar bir kalendar kuniga tegishli belgilangan so'mma miqdorida sug'urta nafakasi to'lanishi kafolatlanadi. Mexnat yaroksizlik 10 kundan kam vaqt davom etsa sug'urta nafakasi to'lanmaydi.

Sug'urta shartnomasi kuchda bo'lgan davrda ko'pi bilan jami 150 kunga sug'urta nafakasi to'lanadi.

Sug'urtalanuvchi surunkali kasallik tufayli yoki uning zurayishi oqibatida mexnat qobiliyatini yukotsa va bu xodisa sug'urta shartnomasi kuchga kirgan kundan boshlab 6 oy o'tgandan keyin yuz bergan bo'lsa, unga sug'urta nafakasi to'lanadi.

Mabodo mexnatga yaroksizlik spirtli ichimlik ichish, ataylab qilish va boshqa gayriqonuniy xatti xarakatlar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa sug'urta nafakasi to'lanmaydi.

Sug'urta badalini to'lash uchun ikki muddat belgilanadi. Sug'urta shartnomasi kuchga airgandan sung kechi bilan turt oy ichida badalning ikkinchi yarmi to'lanishi kerak.

Sug'urta badalini pul o'tkazish yo'li bilan, naqd pul bilan yoki omonat daftarchasi orqali o'tkazish yo'li bilan to'lanishi mumkin.

Sug'urta shartnomasining muddati quyidagi xollarda tamom bo'ladi:

a) sug'urta muddati tugagach;

b) sug'urta badalining ikkinchi yarim muddatida to'lanmaganda;

v) sug'urtalanuvchi vafot etgan taqdirda;

g) sug'urtalanuvchi doimiy yashash uchun chet elga junab ketgan taqdirda.

Sug'urta qoplamasining to'lash xaqidagi talab sug'urta shartnomasini to'zgan sug'urta muassasasiga beriladi. Bunda sug'urtalanuvchi belgilangan shakldagi arizani, sug'urta guvoxnomasini, kasallik varakasini takdim etishi kerak. Sug'urtalanuvchi davolanib bo'lgach, kasallik varakasini ish joyiga topshirishdan oldin sug'urta muassasasiga ko'rsatadi. Sug'urta shartnomasidan kelib chikuvchi talablar sug'urta xodisasi yuz bergan kundan boshlab uch yil mobaynida sug'urta xayotning aralash sug'urtasi deb atalishiga sabab, undan 3 xil sug'urta javobgarligi mujassamlashtirilgan. Bunga ma'lum yoshga etgunga qadar sug'urta xodisalaridan sug'urtalash kiradi. Xayotni aralash sug'urtasi bo'yicha shartnoma 16 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan fukarolar bilan tuziladi. SHartnomada ko'rsatilgan yoshga etib, oxirgi badal to'langanda kompaniya koplami pulini (qoplama miqdori shartnomada ko'rsatiladi) to'laydi. Qoplama baxtsizlik va vafot xodisalarini chetlab utmaydi.

Mazko'r shartnomaga ko'ra sug'urta muassasasi sug'urta xodisasi yuz berganda sug'urta qildirganga ijtimoiy sug'urta bo'yicha unga zararni qoplash

tartibida borilishi kerak bo'lgan puldan ka'tiy nazar, shartlashilgan sug'urta pulini to'lashga majburdir.

Sug'urta shartnomasi belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, sug'urta qildiruvchi tomonidan imzolangan ariza asosida tuziladi. Sug'urta qildiruvi butun sug'urta muddati davomida xar oyda sug'urta badallarini to'lashga majburdir. U sug'urta badallarini sug'urta muddatining xammasi uchun bir yo'la to'lashi xam mumkin. Sug'urta qildiruvchi xar oyda badal to'lanadigan sug'urta shartnomasi shartini o'zgartirib, uni bir tarifdan boshqa tarifga o'tkazish shuquqiga egadir.

Butun sug'urta muddati uchun badallar bir yo'la to'lanadigan bo'lsa, ularning miqdori pasaytirilgan ta'riflar bo'yicha belgilanadi.

Sug'urta qildiruvchi badallarni, a) naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan, b) naqd pul bilan berishi mumkin.

Birinchi badal sug'urta qildiruvchining ish joyi bo'yicha korxona, tashkilotning xisob-kitob bo'limi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan ariza berish paytida sug'urta tashkiloti vaqiliga naqd pul to'lanishi mumkin. Bir yo'la to'lanadigan badal nazoratchiga belgilangan shakldagi patta bo'yicha faqat pul bilan to'lanadi.

Sug'urta shartnomasi xuquqiy kuchga ega bo'lgan xujjat xisoblanib u quyidagi xollarda kuchga kiradi:

a) ishchi va xizmatchi birinchi badalni naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan to'laganda, u ishlaydigan korxonada ish xaqi berilgan kundan boshlab;

b) ishlovchi birinchi badalni naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan to'laganda;

v) birinchi badal yoki badallarning xammasi bir yo'la naqd pul bilan sug'urta muassasasiga kelib tushgan yoki naqd pul bilan sug'urta vaqiliga to'langandan keyin sug'urta qildiruvchiga sug'urta guvoxnomasi topshiriladi.

Sug'urta muddatining tamom bo'lishi sug'urta xodisasi xisoblanadi. Bu xolda berilishi kerak bo'lgan sug'urta pulini sug'urta qildiruvchi sug'urta muddati tamom bo'lgan kundan boshlab 3 yil davomida olish shuquqiga ega bo'ladi.

Agar sug'urta qildiruvchi oylik sug'urta badallarini 3 va undan ortiq yil davomida omonat daftarchasi bo'yicha xalk bankining tegishli muassasasi orqali to'lagan bo'lsa, sug'urta muddati tamom bo'lishi munosabati bilan to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta puli 5 foizga oshadi.

Agar sug'urta shartnomasi amal qilgan oxirgi 3 yilning u yoki bu oylari uchun badallar to'lanmaganligi aniqlansa ular sug'urta pulidan ushlab kolinadi, aksincha ortiqcha badallar sug'urta puli bilan bir vaqtda qaytariladi.

Sug'urta qildiruvchi sug'urta muddati tamom bo'lgan kundan boshlab 3 yil davomida unga tegishli bo'lgan sug'urta pulini olmay vafot etgan bo'lsa, bu pul uning vorislariga to'lanadi.

Sug'urta qildiruvchining vorislari sug'urta pulinito'lash to'g'risidagi ariza bilan sug'urta muassasasiga sug'urta muddati tamom bo'lgan kundan boshlab 3 yil muddat mobaynida murojaat qilishlari mumkin.

2.Yo'lovchilar va xarbiy xizmatchilarni majburiy sug'urtalash.

Yo'lovchilarning majburiy shaxsiy sug'urtasi O'zbekiston Respublikasi sug'urta tashkilotlari tomonidan majburiy tartibda o'tkaziladi. Sug'urta to'lovlari bo'yicha transport tashkilotlari bilan xisob-kitob qilish koidasiga asosan sug'urta puli chipta tarkibiga kiritiladi va yo'lovchilardan sug'urta to'lovlari eng kam ish xaqining 0.2 foizi miqdorida olinadi.

Yo'lovchilarning tushgan sug'urta to'lovlari xar bir xisobot oy uchun keyingi oyning 10-kunigacha xavo, temir yo'l, ichki suv va avtomobil transporti tizimining tegishli bo'linmalari sug'urta tashkilotlarining xisob rakamiga o'tkazadilar. Kechiktirilgan xar bir kun uchun transport tashkiloti 0.1 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Yo'lovchilarning majburiy sug'urtasi shaxar atrofida katnaydigan temir yo'l va avtomobil transporti bir viloyat dorasida 50 km masofaga katnaydigan yo'lovchilarga tatbik qilinmaydi.

Sug'urta tashkilotlari joylaridagi xavo, temir yo'l, ichki suv va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida yo'lovchilar tashish bilan shugulanadigan transport tashkilotlarini aniqlaydilar xamda sug'urta to'lovlarini o'z vaqtida va tulik o'tkazilishini nazorat etadilar.

Transportda bepul qatnash shuquqiga ega bo'lgan yo'lovchilar sug'urta badali to'lamasalar xam sug'urtalangan xisoblanadilar.

Sug'urta tashkilotlari sug'urtaning mazko'r turi bo'yicha xarajatlardan ortiq bo'lgan daromadlarning 50 foizigacha bo'lgan qismini yo'lovchilarni tashish xavfsizligini oshirishni taminlash tadbirlariga yo'naltirishlari mumkin.

SHuningdek, sug'urta tashkilotlari mablag'larning muayyan qismini transport tashkilotlarining to'lovlarini undirish va o'tkazishda kumaklashadigan xodimlarni taqdirlashga ajratadi.

Barcha zarur xujjatlar olingandan sung 72 soat mobaynida davlat ijtimoiy sug'urtasi ijtimoiy ta'minot, etqazilgan zararni qoplash tartibda va shaxs sug'urtasi shartnomalari bo'yicha pul to'langan bo'lishidan qat'iy nazar yo'lovchiga yoki uning merosxuriga sug'urta puli to'lanadi.

Yo'lovchi transport vositasida ketayotgan vaqtda, shuningdek, kutib turgan paytda to manzilga etib borganga qadar o'tgan davr mobaynida yuz bergan kungilsiz vokea natijasida mexnat qobiliyatini tulik 100 foiz yukotgan taqdirda eng kam ish xaqi 40 barobari miqdorida, kisman yukotgan taqdirda esa, sug'urta pulining mexnat qobiliyatini yo'qotish foiziga mos keluvchi qismi to'lanadi.

Kungilsiz xodisa natijasida jabrlangan yo'lovchi doimiy yashash joyidagi sug'urta muassasasiga zarur xujjatlarni takdim etib, u tibbiy tekshiruvga yuboriladi.

Jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan xatti-xarakatlarini sodir etish, o'z joniga kasd qilish, spirtli ichimlik natijasida kasallanish, transportda yurish koidalarini bo'zish natijasida yo'lovchilarga ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa xodisalar natijasida shikastlangan shaxslarga sug'urta puli to'lanmaydi.

Agar jabrlangan yo'lovchining umumiy mexnat qobiliyatini yo'qotish foizi aniqlangan bo'lsa, ammo u xayotligida sug'urta puli olmagan bo'lsa, bu pul uning merosxuriga beriladi.

Agar umumiy mexnat qobiliyatini doimiy yo'qotish baxtsiz xodisa yuz bergan kundan boshlab bir yil mobaynida yuz bersa va buning bevosita oqibati bo'lsa, bu xolda sug'urta puli to'lanadi.

Xarbiy xizmatchilar va xarbiy majburiyatli shaxslarning davlat majburiy sug'urtasi sug'urta tashkilotlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

-sug'urtalanuvchi shaxs xizmatni utash davrida xalok bo'lganda yoki xizmatdan bushagandan sung bir yil mobaynida, xizmatni utash chogida olingan tashkilotlariga takdim etilishi mumkin. Tan jaroxat (kontuziya) natijasida vafot etganda; Uning merosxurlariga, belgilangan eng kam ish xaqining 7 barobari miqdorida;

-sug'urtalangan shaxs xizmatdan bushagandan keyin bir yil mobaynida bog'liq bo'lgan nogironlik belgilanganda, 1-gurux nogironiga yuqoridagi banddagi to'lovlarning 75 foizi, 2-gurux nogironiga esa 30 foizi miqdorida;

-sug'urtalangan shaxs xizmatni utish davrida ogir jaroxatlanganda yuqoridagi bandning 20 foizi va engil jaroxatlanganda - 10 foizi miqdorida sug'urta puli to'laydi.

Sug'urta puli sug'urta muassasasi barcha zarur xujjatlarni olgan kundan boshlab 3 kun ichida to'lanadi. Sug'urtalangan shaxs sug'urta xodisasi yuz bergan kundan boshlab uch yil muddat ichida sug'urta muassasasiga sug'urta puli to'lash xaqida ariza berishi kerak.

Muddatli xarbiy xizmatchilar xizmat davrida jaroxatlangan, kontuziya, shikastlangan taqdirda ular xaqikiy xarbiy xizmatlardan bushaganlaridan sung ularga belgilangan miqdorda sug'urta puli to'lanadi.

Agar sug'urtalangan shaxs xalok bo'lishi, jaroxatlanishi yoki kasallanishi u tomondan kasddan yoki boshqa aybli xatti-xarakatlar sodir etilganligi bilan bog'liq bo'lsa, u xolda tegishli xujjatlar rasmiylashtirimaydi va sug'urta puli to'lanmaydi.

3. Bolalar va nikox-to'y sug'urtasi

Bolalarni sug'urta qilish fuqarolarning shaxsiy sug'urtasi tarkibiga kirib, ixtiyoriylik asosida shakllanib, shu bilan birga aloxida sug'urta sifatida amalga oshiriladi. Ushbu sug'urtalash tartiblariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi va chet el fuqarolari (doimiy yashovchi) xamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar farzandlarni (farzandlikka olgan) ularning yoshida qat'iy nazar ixtiyoriy ravishda sug'urta shartnomalarini to'zadilar. e'tiborga molik tomoni shundaki, sug'urta qilish to'g'risida ariza berilgan kunda bolaning yoshi 15 dan oshgan bo'lishi kerak.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha, sug'urta muassasasi sug'urta xodisasi yuz berganda, sug'urta qildirilganga davlat ijtimoiy sug'urtasi, ijtimoiy ta'minot bo'yicha unga zararni qoplash tartibida berilishi kerak bo'lgan puldan qat'iy nazar belgilangan sug'urta pulini to'lashga majburdir.

Sug'urta muddati va sug'urta badallari:

Sug'urta muddati 18 yosh bilan foydasiga sug'urta shartnomasi tuzilayotgan bolaning yoshi o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi. Agar 8 yoshli bola

sug'urtalanayotgan bo'lsa, 18 yosh bilan bolaning xaqikiy yoshi o'rtasidagi farq (10 yosh) sug'urta muddati sifatida qabul qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi shartnomadagi sug'urta badalini sug'urta muddati davomida xar oyda to'lab borishi lozim. Sug'urta badallari sug'urta muddatiga, bolaning yoshiga va sug'urta puliga bog'liq xolda belgilanadi. Sug'urta qildiruvchi (ota-onasi, farzandlikka olganlar, bolaning boshqa qarindosh-uruklari) sug'urta badallarani butun sug'urta muddati uchun (masalan 10 yil uchun) bir yo'la xam to'lashi mumkin. SHu bilan birga, xar oyda badal to'lanadigan sug'urta shartnomasini o'zgartirib, uni bir ta'rifdan boshqasiga o'tkazish shuquqiga ega. Bu xolda yangi ta'rif bo'yicha sug'urta badallari avvalgi ta'rif bo'yicha to'langan oydan keyingi oydan boshlab to'lanishi kerak. Birok bir yo'la badallar to'langan sug'urta shartnomalari bo'yicha ta'rifni o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urta qildiruvchi badallarni va sug'urta pulini ikki barobar yoki uch barobar to'lash to'g'risida kelishib olishi mumkin.

Badallar bir yo'la to'lanadigan bo'lsa, ularning miqdori kamaytirilgan ta'riflar bilan belgilanadi.

Badallarni sug'urta qildiruvchi(yoki uning topshirishga ko'ra istalgan shaxs):

a) naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan korxona, tashkilotning xisob-kitob bo'limi orqali, shuningdek xalk bankidagi omonat xisobidan pul o'tkazish yo'li bilan to'lashi mumkin. Bunday yo'l bilan to'langanda sug'urta muassasasi tomonidan patta berilmaydi.

b)naqd pul bilan sug'urta vaqiliga(nazoratchisiga) to'lash mumkin, bu xolda unga belgilangan shakldagi patta beriladi.

Badallar sug'urta vaqiliga naqd pul bilan to'langanda sug'urta ta qildiruvchi oxirgi uch yilning pattalarini saqlab qo'yishi va ularni sug'urta muassasining talabiga ko'ra ko'rsatishi shart.

Agar badallarni sug'urta qildiruvchi urniga boshqa bir shaxs to'lasa, u shu munosabat bilan sug'urta shartnomasi bo'yicha xech bir shuquqqa ega bo'lmaydi.

Nikox sug'urtasi xam yuqoridagi kabi fuqarolarning shaxsiy sug'urtasi xisoblanib, uning asosiy maqsadi, nikox to'yiga qadar shartnomada ko'rsatilgan sug'urta mablag'lari yig'ilib, to'y arafasida, uni sug'urtalanuvchiga topshirish va bu tantanali tadbirni amalga oshirishda moddiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Nikox sug'urtasi shartlari asosida O'zbekiston Respublikasining 18 yoshdan 72 yoshgacha bo'lgan fuqarolari, O'zbekistonda doimiy yashaydigan chet el fuqarolari, bolaning ota-onasi (asrab oluvchisi) va boshqa qarindoshlari (sug'urta qildiruvchilari) bilan O'zbekistonda doimiy istikomat qiladigan bolalarni sug'urta qilish shartnomalarini to'zadilar.

Nikox sug'urtasi bo'yicha shartnoma tuzilgan kunda bolaning yoshi 15dan oshmagan bo'lishi kerak.

Bunday shartnomaga ko'ra, sug'urta xodisasi yuz berganda, sug'urta muassasasi sug'urta qildirilganga sug'urta pulini to'lashga majbur (ularga to'lanish kerak bo'lgan ijtimoiy sug'urtasi ijtimoiy ta'minot pulidan qat'iy nazar) .

Ishlaydigan birinchi gurux nogironlari bilan sug'urta shartnomalari tuzilmaydi.

Agar sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urta qildirilgan vafot etsa, to'langan xamma sug'urta badallari sug'urta qildirilgan shaxsga xech qanday chegirmalarsiz qaytariladi, biroq sug'urta puli to'lanmaydi.

Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urta qildiruvchining vafot etishi sug'urta xodisasi xisoblanadi, ammo quyidagi xollar bundan mustasno:

- sug'urta qildiruvchi o'zining ataylab qilgan xatti- xarakatlari natijasida ulsa, unda jinoyat belgilari aniqlansa;

- spirtli ichimlik, narkotik modda yoki zaxarli moddalar ta'sirida transport vositalari boshqarish natijasida yoki mast xolda bo'lgan boshqa kishiga topshirish natijasida xalok bo'lsa. Sug'urta qildiruvchini vafot etishi munosabati bilan badal to'lash to'xtab kolsada, ammo sug'urta shartnomasi kuchda koladi va bola sug'urta muddati tugagunga qadar sug'urta qildirilgan xisoblanadi.

Agar shartnoma amal qilayotgan davrda sug'urta qildiruvchi ulgandan keyin, sug'urta qildirilgan bola xam vafot etsa, to'langan xamma badallar ana shu bolaning vorislariga qaytariladi.

Sug'urta muddati 18 yosh bilan foydasiga sug'urta shartnomasi tuziladigan bolaning yoshi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Sug'urta badallari sug'urta qildiruvchining yoshiga, sug'urta muddatiga va sug'urta puliga karab belgilanadi. Masalan, sug'urta puli besh yuz so'm, sug'urta muddati uttiz olti oy (uch yil). Oylik badal 500:36k13. 8 so'm.

Badallarni sug'urta kidiruvchi tomonidan xar oyda yoki bir yo'la to'lanishi mumkin. Sug'urta shartnomasini o'zgartirib, bir ta'rifdan boshqasiga o'tkazilish shuquqiga ega. Ammo bir yo'la to'lanadigan bo'lsa, sug'urta shartnomasi bo'yicha ta'rifni o'zgartirish mumkin emas. Badallarni: a) naqd pul bilan yoki, b) naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan to'lanishi mumkin.

Bolalarni kungilsiz xodisalaridan sug'urta qilish O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, bolaning ota-onasi, boshqa qarindoshlari va uning xomiysi tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu sug'urtaga ko'ra O'zbekiston Respublikasida doimiy istikomat qiladigan 1 yoshdan 16 yoshgacha bolalarni sug'urta qilish shartnomasi tuziladi. Sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchining ogzaki murojaati asosida tuziladi. Sug'urta xodisasi yuz berganda ushbu shartnomaga ko'ra sug'urta muassasasi sug'urta qildiruvchiga shartlashilgan sug'urta pulini to'lash shartligi ko'rsatib utilgan bo'lsa, sug'urta kidiruvchi esa belgilangan sug'urta badalini o'z vaqtida to'lab borish majburiyatini oladi.

Sug'urta shartnomasi bir yil muddatga tuziladi. Sug'urta puli sug'urta shartnomasiga ko'ra, sug'urta qildiruvchi bilan sug'urta muassasasi o'rtasidagi o'zaro kelishuvga binoan belgilanadi. Agar sug'urta qildiruvchi uch va undan ortiq yillar mobaynida o'zluksiz sug'urta shartnomalari to'zgan bo'lsa, oxirgi shartnomaning muddati tugagach, sug'urta kidiruvchiga imtiyozli bir oy beriladi. SHu imtiyozli davr mobaynida sug'urta xodisasi yuz berganda sug'urta puli oxirgi sug'urta shartnomasi yuzasidan to'lanadi. Birok, agar sug'urta qildiruvchi oxirgi

shartnomaning muddati tugagandan keyin bir oy utgunga qadar yangi sug'urta shartnomasi to'zgan bo'lsa, u amal qilayotgan davrda sug'urta xodisasi ruy bersa, sug'urta puli faqat yangi shartnoma bo'yicha to'lanadi. Avvalgisining muddati tugamasdan yangi muddatga sug'urta shartnomasi tuzilganda uning kuchga kirish muddati amaldagi shartnomaning muddati tugaydigan kunning ertasidan boshlab ko'rsatiladi. Sug'urta qildiruvchi sug'urta badalini ; a) naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan, ish joyidagi xisob-kitob bo'limi orqali, b) sug'urta vaqiliga naqd pul bilan to'lashi mumkin.

Sug'urta shartnomasi shuquqiy kuchga ega bo'lgan xujjat bo'lib quyidagi xollarda kuchga kiradi:

a) ishchi va xizmatchi birinchi badalni naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan to'laganda- u ishlaydigan korxonada ish xaqi beriladigan kundan boshlab (agar shu ish xaqidan badal o'tkazilgan bo'lsa); b) birinchi badal yoki badallarning xammasi bir yo'la naqd pul bilan sug'urta vaqiliga to'lanadigan bo'lsa- badal to'lanadigan kunning ertasidan boshlab.

Sug'urta badali naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan sug'urta muassasasi xisobiga kelib tushgan yoki u naqd pul bilan sug'urta vaqiliga to'langandan keyin sug'urta qildiruvchiga sug'urta guvoxnomasi topshiriladi. Ketma-ket uch oy uchun badallar to'lanmagan taqdirda turtinchi oyning birinchi kunidan boshlab sug'urta shartnomasi amal qilishdan to'xtaydi. Birok sug'urta qildiruvchi kasalxonada yotib, yoki shifoxonaga katnab davolanganligi sababli badallarni to'lay olmagan bo'lsa, u ishga chikkan yoki nogironlikka o'tkazilgan kunning ertasidan boshlab, 30 kun davomida o'z kuchini saklaydi. Agar shu muddat ichida sug'urta qildiruvchi to'lash muddati utib ketgan badallarni va joriy oy uchun badal bir yo'la to'lanmasa, sug'urta shartnomasi amal qilishdan to'xtaydi. Agar oylik badallar to'langan sug'urta shartnomasi amal qilayotgan davrda sug'urta qildiruvchi TMEK tomonidan birinchi yoki ikkinchi gurux nogironi deb topilgani sababli, shartnoma muddatidan oldin to'xtatilgan bo'lsa, u kuchga kirgandan to' to'xtatilgunga qadar qancha vaqt o'tganidan qat'iy nazar, unga muddatidan oldin qaytarib olinadigan pul urniga to'langan badallarning xammasi qaytariladi. Buning uchun u nafakadorlik guvoxnomasi yoki TMEK tomonidan unga birinchi yoki ikkinchi gurux nogironligini tasdiklaydigan ma'lumotnomani ko'rsatishi zarur. Sug'urta qildiruvchi boshqa tuman (shaxar)ga kuchib o'tganda, agar u badallarni naqd pulsiz to'lasa, sug'urta xujjatlari saklanayotgan sug'urta muassasasidan oxirgi badal to'langanligi to'g'risida ma'lumotnoma olishi kerak. Sug'urta muddatining tugashi sug'urta xodisasi xisoblanadi. Sug'urta muddati tugagandan sung o'tgan xar kaysi tulik yil uchun sug'urta pulini uch yil davomida olish shuquqiga ega. Agar sug'urta qildiruvchi oylik badallarni uch va undan ortiq yil davomida omonat daftarchasi bo'yicha tegishli bank muassasasi orqali to'lagan bo'lsa, sug'urta muddati tamom bo'lishi munosabati bilan to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta puliga tegishli foiz kushiladi.

4. Boshqa turdagi xayotni ixtiyoriy sug'urtasi.

Ukuvchilarning ota-onasi yoki birga yashaydigan qarindoshlari va boshqa ayrim shuquqiy shaxslar (sug'urta qildiruvchilar) bilan kundo'zgi maktab ukuvchilarini sug'urta qilish shartnomalari tuziladi.

Sug'urta badallarini to'lashda ota-onalar bilan birga korxonalar, tashkilotlar, shu jumladan maktablar xam o'z mablag'lari xisobidan naqd pulsiz xisob-kitob qilish yo'li bilan ishtiroq etishlari mumkin.

Sug'urta badali sug'urta pulidan 0.5 foiz miqdorida belgilanadi. Vafot xodisasidan sug'urta qildirilsa, 2 foizi miqdorida badal to'lanadi. Ukuvchilar sug'urtasini yil davomida o'tkaziladi. Sug'urta puli esa miqdor jixatidan chegaralanmaydi.

SHartnoma amal qilayotgan davrda ukuvchi boshqa umumta'lim maktabiga o'tganda xam u sug'urtalangan bo'lib koladi.

SHartnomadagi sug'urta xodisasi bo'lib, sug'urta qildirilganning kungisiz xodisa natijasida shikastlanishi, ozik-ovkat taksoinfektsiyasidan tashkari zaxarli usimliklar, kimyoviy moddalar, sifatsiz ozik-ovkat max-sulotlari bilan kuchni zaxarlanish, tasodifan suyaksinishi, qo'yish natijasida a'zolarining o'zilishi yoki ularning olib tashlanishi xisoblanadi.

Sug'urta shartnomasi kuchda bo'lgan davrda yuz bergan bir yoki bir necha sug'urta xodisalari uchun to'lanadigan pullarning umumiy miqdori sug'urta pulidan oshmasligi kerak.

Xalk sudi sug'urta qildirilganning bedarak yukolgan deb tan olganida yoki ulgan deb e'lon qilganida sug'urta nafakasi to'lanadi. Lekin buning uchun u yukolgan ku yoki ulgan deb taxmin qilingan ku sug'urta

shartnomasi kuchda bo'lgan davrga tug'ri kelishi shart.

Sug'urta xodisalari yuz berganda davolash bilan bog'liq bo'lmagan tashxis qo'yish, davolash va oldini olish chora - tadbirlarining yomon oqibatlar uchun sug'urta qoplamasi to'lanmaydi. Sug'urta qildirgan shaxsning vafoti munosabati bilan sug'urta qoplamasini to'lash fuqarolik kodeksi norma-lari asosida amalga oshiriladi.

Respublikamizda amal qilayotgan mavjud sug'urtalash koidalariga muvofiq, sug'urta kompaniyalari tashkilotlari va korxonalar bilan (mulkchilik shaklidan qat'iy nazar) ishchi va xizmatchilarni xizmat safari davrida baxtsiz xodisalardan ixtiyoriy sug'urta qilish shartnomalarini to'zadilar.

Sug'urta shartnomasi bir yil muddatga tuziladi va xisoblangan sug'urta badalining sug'urta muassasasi xisobiga kelib tushgan kunidan kuchga kirib, bir yil o'tgan pul kelib tushgan oldingi sanada o'z kuchini yukotadi.

Xizmat safari davrida sug'urta qildiruvchi xodimning yoshi cheklanmaydi. SHartnoma sug'urta pulining yoki uning bir qismi sug'urta qilinga xizmat safari davomida xar qanday baxtsiz xodisadan xalok bo'lishi yoki jaroxatlanishi bo'yicha to'lanadi.

O'z xodimlarini ixtiyoriy sug'urta qildirishni xoxlagan korxona va tashkilot sug'urta qiluvchilar ruyxatini tuzib sug'urta muassasasiga beradi.

Sug'urta pulini sug'urta qiluvchiga u xalok bo'lgan taqdirda notirius vorisga barcha xujjatlar yig'ilgach, 3 kun ichida to'lanishi shart.

qushimcha pensiyani sug'urtalash shartnomalarini sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolar bilan to'zadi. Sug'urta shartnomalarini 25 yoshdan 55 yoshgacha 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 20 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar faqat o'z foydasiga tuzishlari mumkin.

SHartnoma sug'urtalanuvchining belgilangan shakldagi yozma arizasi asosida tuziladi. Arizada u qushimcha pensiyani olish shuquqi boshlangunga qadar o'zi vafot etgan taqdirda sug'urta puli to'lanishi lozim bo'lgan shaxsni ko'rsatish shuquqiga ega. Sug'urta muddati tugagach, agar sug'urta shartnomasi bo'yicha xamma badallar to'langan bo'lsa, sug'urtalanuvchi pensiya yoshiga to'langandan sung unga umrining oxirigacha pensiya to'lanadi.

qushimcha pensiyani sug'urtalash shartnomasini to'zgan xar bir fuqaro butun sug'urta muddati mobaynida xamda qushimcha pensiya olish davrida sug'urta badallari olinmasdan baxtsiz xodisalardan xam sug'urtalangan bo'lib xisoblanadi.

Sug'urta muddati tugagach, sug'urtalanuvchi O'zbekiston Respublikasida eng kam pensiya miqdorida qushimcha pensiya oladi. Sug'urta badali sug'urtalanuvchining yoshiga, sug'urta muddati va qushimcha pensiyaning miqdori karab belgilanadi.

Sug'urta muddati tugagach sug'urtalanuvchi pensiya olish uchun oxirgi badalni olgan sug'urta muassasasiga sug'urta guvoxnomasini va paportni takdim etishi kerak. Pensiya sug'urtalanuvchining doimiy ruyxatga olingan joyidagi sug'urta muassasasi tomonidan xar oyda to'lanadi.

Agar sug'urtalanuvchi navbatdagi 3 oy uchun badallar to'lamasa, sug'urta shartnomasi bekor qilingan xisblanadi va to'langan badallardan 15 foiz sug'urta xarajatlari chegirilgan xolda qaytarib beriladi. Agar sug'urtalangan shaxs pulga muxtoj bo'lib kolsa xuddi shunday tartib bilan sug'urta badalini qaytarib olishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi pensiya olish shuquqi boshlanmasdan oldin vafot etgan taqdirda to'langan xamma badallar turmush urtogiga, u bo'lmasa merosxurga qaytariladi xamda eng kam pensiyaning bir barobari miqdorida bir marta beriladigan nafaka to'lanadi. Sug'urtalanuvchi pensiya shuquqi boshlangandan keyin vafot etsa, u xolda to'langan pensiya puli ushlab kolingan xolda badallar qaytarib beriladi.

Sug'urtalanuvchi jaroxatlansa, unga O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish xaqi xajmida pensiyaning tegishli qismi to'lanadi. To'lanadigan sug'urta qoplamasining miqdori "Sug'urta xodisalari munosabati bilan to'lanadigan nafakalar miqdori jadvali" da aniqlanadi.

Bundan tashkari, qushimcha pensiya xaqidagi koidalarda sug'urtalanuvchi shaxsning yashash joyini o'zgartirgan xolda pensiyani rasmiylashtirishga karatilgan ko'rsatma mavjud. YA'ni, agar pensiya olayotgan sug'urtalanuvchi doimiy ish joyini O'zbekiston Respublikasi xududida o'zgartirsa, u yangi yashash joyidagi sug'urta bo'limiga o'zining pensiya bilan bog'liq xujjatlar yigma jildini surab olish xaqida yozma ariza bilan murojaat qilishi lozim.

Tayanch so'z va iboralar

1. SHaxsiy sug'urta ob'ekti
2. SHaxsiy sug'urta turlari
3. Ixtieriy shaxsiy sug'urta
4. Majburiy shaxsiy sug'urta
5. Bolalar sug'urtasi
6. Nikox-to'y sug'urtasi
7. Ukuvchilar sug'urtasi
8. Sug'urta xodisasi
9. Sug'urta qoplamasi
10. Yo'lovchilar sug'urtasi

Nazorat uchun savollar

- 1) SHaxsiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini izohlab bering?
- 2) Aralash sug'urta deganda nimani tushunasiz?
- 3) Mexnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotishni sug'urtalash tartibi qanday?
- 4) Yo'lovchilar sug'urtasi qanday tartibda amalga oshiriladi?
- 5) SHaxsiy sug'urtada kaysi xollarda sug'urta qoplamalari berilmaydi?
- 6) Bolalarni sug'urta qilishning ahamiyatini tushuntirib bering.
- 7) Nikox (to'y) sug'urtasini amalga oshirish tartibi qanday?
- 8) Bolalarni kungilsiz xodisalaridan sug'urtalashda sug'urta xodisalariga nimalar kiradi?
- 9) Sug'urta badallarini to'lash tartibi qanday?
- 10) Qanday xolatlarda sug'urta qoplamasi to'lanmaydi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 1998 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati xaqida»gi qonuni Toshkent 2002 y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston» 1995 y.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor munosabatlariga utishining o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
6. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlool va tarakkiyot yo'li» T.: «O'zbekiston» 1998 y.
7. X.R. Sobirov «Sug'urta» 100 savol-javob T-«Mexnat».

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sobirov X.R. «Xitoyda sug'urta» «Iqtisod va xisobot» 1998
2. Sobirov X.R. «Axmoniylar davrida solik isloxoti» «O'zbekiston soliklari xabarnomasi» 1998 y.
3. Pulov K.I. «Straxovoe delo v Rossii» M-Edma 1999 g.

4. Kolomina E.V. V.V.SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
5. Reytmann L.I. «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
6. SHaxov V.V. «Vvedenie v straxovanie» M-Finansu i statistika» 1999 g.
7. Sarkisov S.E. Lichnoe straxovanie. M-«Finansu i statistika» 1999
8. Vobluy K.G. Osnovu ekonomii straxovaniya. M-«Anqil» 1998 g.

11-Mavzu: qayta sug'urtalash Reja.

1. Qayta sug'urtalashning mohiyati va zarurligi.
2. Qayta sug'urtalash munosabatlarini ifodalovchi atamalar va ularni guruxlash.
3. Qayta sug'urta qilishda shartnomalarni tuzish va ijro etish tartibi.
4. Nisbiy va nonisbiy qayta sug'urta qilish.

1. Qayta sug'urtalashning mohiyati va zarurligi

Jaxon iqtisodiyotining rivojlanishi va yangidan-yangi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish natijasida yuqori qiymatga ega bo'lgan texnika, transport vositalari va boshqalar paydo bo'ldi. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmida atom elektr stantsiyalari, atom suv osti kemalari xamda yirik avialaynerlar ishlab chiqarish rivojlandi. Bunga uxshash ob'ektlarni ko'plab keltirish mumkin. Ma'lumki, yuqorida kayd qilingan ob'ektlar va ko'rilmalarning qiymati bir necha 10 million dollarni tashqil etadi. SHundan bir nechtasini sug'urtaviy ximoyaga olish aloxida sug'urta kompaniyasi uchun muayan kiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ba'zi xollarda, xattoki moliyaviy barkaror bo'lgan yirik sug'urta kompaniyasi xam bir nechta atom elektr stantsiyalarini to'laligicha sug'urta ximoyasiga olomasligi mumkin. Sug'urta kompaniyasi etarli miqdorda mablag'i bo'lmay turib, yirik qiymatga ega bo'lgan samolyot yoki yuk kemasini sug'urtalasa sug'urta xodisasi ruy berganda tegishli qoplamani to'la olmaydi va bankrot bo'lishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barkaror faoliyat ko'rsatishni ta'minlovchi usullardan biri - qayta sug'urta tizimidir. Dunyoda dastlabki qayta sug'urta qilish kompaniyasi, bundan qariyb 150 yil oldin Germaniyada tashqil etilgan. Ushbu qayta sug'urtalash kompaniyasini tashqil qilishdan asosiy maqsad, sug'urta kompaniyalarini moliyaviy barkarorligini ta'minlashga karatilgan. qayta sug'urta qilish, o'z mohiyatiga ko'ra risqni taqsimlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. qayta sug'urta qilish operatsiyalarini oddiy sug'urta kompaniyalari va ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyalari xam amalga oshirishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta to'g'risida»gi qonunining 11-moddasiga muvofiq, qayta sug'urta qilish sug'urtalovchining sug'urta tovon pulini yoki sug'urta so'mmasini to'lash xavfini butunlay yoki kisman boshqa sug'urta tashkilotiga (tashkilotlariga) ular o'rtasida tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha topshirishdir.

2. Qayta sug'urtalash munosabatlarini ifodalovchi atamalar va ularni guruxlash

Qayta sug'urtalash jarayoni sug'urta munosabatlarining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri xisoblanadi. Ushbu jarayonda qatnashuvchi tomonlarning o'zaro munosabatini tegishli atamalar asosida ifodalash qayta sug'urta qilish mexanizmini chuqurrok, o'zlashtirib olish uchun imkoniyat yaratadi.

Qayta sug'urtalash-sug'urtalashga risqni qabul qilish balki bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risqlarni birlamchi joylashtirish) sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barkarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan risqni bir qismini o'zaro kelishgan xolda boshqa sug'urtalovchiga berishi (risqni ikqilamchi joylashtirish). qayta sug'urtalash operatsiyalari bilan bir katorida asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. qayta sug'urtalash aktiv (risqni berish) va passiv (risqni qabul qilib olish) ko'rinishida bo'ladi. Bundan tashkari qayta sug'urtalash nisbiy va nonisbiy shaklda bo'ladi.

Ayrim xolatlarda qayta sug'urtalash operatsiyalari qayta sug'urtalovchi broker ikki tomon, ya'ni sug'urta kompaniyasi va qayta sug'urtalovchi kompaniya o'rtasidagi vositachidir.

Qayta sug'urtalovchi sug'urta brokeri yordamida qayta sug'urtalash uchun risqni qabul qilib oladigan jismoniy yoki shuquqiy shaxs. qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi xam bo'lishi mumkin. Jaxondagi eng yirik sug'urtalovchilar guruxiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, SHveytsariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyol'n qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Qayta sug'urtalash ishida uning bir necha turlarini uchratish mumkin. Jumladan, fakul'tativ, obligator va fakul'tativ-obligatorli qayta sug'urtalash shular jumlasidandir. Fakul'tativ qayta sug'urtalash nisbiy qayta sug'urtalash shartnomasining turi bo'lib, bunda fakul'tativ qayta sug'urtalashda xar bir berilayotgan risq bo'yicha aloxida shartnoma tuziladi. TSedent xar bir risq bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi xam tsedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi xam mumkin.

Obligatorli qayta sug'urtalash xalqaro amaliyotda ikki xil ma'noni bildiradi.


1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risqlarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyuta chiqib ketishini oldini oladi.

2) sug'urta kompaniyasi (tsedent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha risqni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi risqni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi. Fakul'tativ-obligator shartnomasi tsedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi xar qanday sug'urta risqini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi xaqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

TSedent atamasi risqni ikqilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni risqni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikqilamchi tsedent retrotsedent deb ataladi.

3. Qayta sug'urta qilishda shartnomalarni tuzish va ijro etish tartibi

qayta sug'urta qilish shartnomalari bir tomondan sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro tuzilishi yoki ikkinchi tomondan, sug'urta kompaniyasi va ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyasi o'rtasida tuzilishi mumkin. Bu erda shartnoma o'zi nima degan savol tugilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 354-moddasida «Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik shuquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish xaqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi» deb ko'rsatilgan. qayta sug'urta qilish shartnomasini tuzish tartibini quyidagi chizmadan ko'rish mumkin.



Dastlab, sug'urta kompaniyasi o'zining moliyaviy qobiliyatini mustaxkamlash maqsadida qabul qilib olingan risqni bir qismini boshqa sug'urta kompaniyasida yoki ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyasida sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida sug'urtalovchi ixtisoslashgan sug'urta kompaniyasiga murojaat qiladi. Agar qayta sug'urtalovchi kompaniya risqni qayta sug'urta qilishga rozilik bildirsa, chizmada ko'rsatilganidek ular o'rtasida qayta sug'urtalash shartnomasi tuziladi. SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, shartnoma shartlarida, unda ishtirok etuvchi tomonlarning xuquqlari va majburiyatlari, olingan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan javobgarlik, shartnomani kuchga kirishi, amal qilish va bekor etish koidalari mujassam bo'lishi kerak. SHuningdek, shartnomada qayta sug'urtalash mukofoti miqdori va javobgarlik xajmi ko'rsatilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga ko'ra, qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi oldida ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta kompaniyasi javobgar bo'lib qolaveradi. Biroq asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi xisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta xodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo'yicha xuquq va majburiyatlarini qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchiga o'tadi.

Qayta sug'urta qilish shartnomalari bir qator o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, ushbu shartnomalar savdo va boshqa turdagi shartnomalardan tubdan farq qiladi. SHuning uchun xam qayta sug'urta qilish soxasini nazariy jixatdan qaysi sug'urta tarmog'iga kiritish yoxud uni mustaqil sug'urta soxasi sifatida qarash ancha baxs munozarani talab qiladi.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga xos bo'lgan belgilardan biri qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta kompaniyalarini qaytarib olish xarakteriga ega ekanligidir. Qayta sug'urta qilish munosabatlarining uzoq yillik rivojlanishi jarayoni davomida, xalqaro va milliy darajalarda foydalaniladigan qayta sug'urta qilish shartnomalarining bir necha turlari shakllangan. Ular quyidagilardan iborat:

- fakul'tativ qayta sug'urta qilish;
- obligatorli qayta sug'urta qilish;
- fakul'tativ-obligatorli qayta sug'urta qilish.

YUqorida qayd qilingan qayta sug'urta qilish shartnomalaridan eng ommaviysi va uzoq yillardan beri qo'llanib kelinayotgani bu fakul'tativ qayta sug'urta qilish shartnomalaridir. Mazko'r shartnomaning ijobiy tomoni shundaki, bunda risqni qayta sug'urtaga beruvchi sug'urta kompaniyasi va qayta sug'urtalovchi kompaniya xam qancha miqdordagi risqni o'ziga olib qolish yoki qabul qilib olish masalalarini mustaqil xal qiladilar. Aksincha, obligatorli qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan xar bir risqning tegishli qismini qayta sug'urta kompaniyasiga berishi shart.

Agar sug'urta xodisasi ro'y bersa, bu xaqda sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniyaga darxol xabar qilishi kerak. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi kompaniya shartnomada ko'zda tutilgan qoplamani to'lashi shart. Qayta sug'urta qilish kompaniyasi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la-to'kis bajarsa, u xolda shartnoma ijro etilgan xisoblanadi.

4. Nisbiy va nonisbiy qayta sug'urta qilish

Qayta sug'urta qilish operatsiyalari nisbiy va nonisbiy shaklda amalga oshiriladi. Nonisbiy qayta sug'urta qilishga nisbatan nisbiy qayta sug'urtalash ancha ilgari paydo bo'lgan. SHu nuqtai-nazardan qaraganda nisbiy qayta sug'urtalashni, ba`zan, an`anaviy qayta sug'urtalash xam deb atash qabul qilingan.

Nisbiy qayta sug'urta qilishning asosiy moxiyati shundaki, qayta sug'urtalovchi kompaniyaning risqini taqsimlashdagi ulushi sug'urta kompaniyasi aniqlagan nisbat asosida oldindan aniqlanadi. Ushbu nisbatga qarab, qayta sug'urtalash mukofoti va sug'urta kompaniyasining tegishli ulushi aniqlanadi.

Sug'urta ishi amaliyotida nisbiy qayta sug'urtalashning quyidagi shakllari mavjud:

- Kvotali qayta sug'urta qilish;
- ekstsedent qayta sug'urta qilish;
- Kvotali-ekstsedent qayta sug'urta qilish.

Nonisbiy qayta sug'urta qilishda qayta sug'urtalovchining sug'urta mukofoti va qoplamasidagi foizlardagi ishtiroki printsipli qullanilmaydi. Nisbiy qayta sug'urta qilishda tomonlarning manfaati bir-biriga mos keladi. Bunga qarama-qarshi ularok, nonisbiy qayta sug'urta qilishda, unda qatnashuvchi tomonlarning manfaati bir-biriga mos kelmaydi. Bunday ziddiyatning mohiyati shundaki, sug'urta kompaniyasining qo'shimcha moliyaviy natijalar olishiga intilishi, qayta sug'urtalovchi kompaniyaning yuqoridagidek intilishi bir-biriga muvofiq emas.

Tayanch so'z va iboralar

1. Sug'urta ximoyasi.
2. Qayta sug'urta qilish.
3. Tavakkalchilikni taqsimlash.
4. Sug'urta tovon puli.
5. Qayta sug'urta qilish shartnomasi.
6. Sug'urta portfeli.
7. Aktiv va passiv qayta sug'urtalash.
8. Fakul'tativ qayta sug'urtalash.
9. Obligatorli qayta sug'urtalash.

Nazorat uchun savollar

1. Qayta sug'urta qilishning ob'ektiv zarurligi nimalardan iborat?
2. Dastlabki qayta sug'urta qilish kompaniyalari qachon va qayerda tashqil etilgan?
3. Qayta sug'urta qilish shartnomasi qanday tartibda tuziladi?
4. Aktiv qayta sug'urtalashning passiv qayta sug'urtalashdan kaysi jihatlariga ko'ra farq qilishi mumkin?
5. Nisbiy va nonisbiy qayta sug'urta qilishni mazmuni nima?
6. Fakul'tativ va obligatorli qayta sug'urtalashni farq qiluvchi tomonlarini ko'rsating.

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. «Iqtisodiy islohotlar mas'uliyati bosqich», - T.: «O'zbekiston», 1994 y.
2. Karimov I.A. «O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy tamoyillari»- T.: «O'zbekiston» , 1995 y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston xalqi o'z taraqqiyot yo'lidan qaytmaydi» T.: «O'zbekiston» 1996 y.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy ko'tarilish yo'lida» T.: «O'zbekiston» , 1996 y.
5. I.A.Karimov «YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi». T.: «O'zbekiston» , 1997 y.
6. I.Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari».-T.: «O'zbekiston» 1997 y.
7. I.Karimov. «O'zbekiston buyuk kelajak sari».-T.: «O'zbekiston», 1998 y.

8. I. Karimov. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». -T.: «O'zbekiston» , 1999 y.
9. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. -T.: «Adolat», 1996 y.
10. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni. 2002 y.
11. E.M. Juravlyov. Straxovanie vo-vneshekonomiceskix svyazax. –M.: Izdatel'skiy tsentr «Anqil», 1993 y.
12. V.V. SHaxov. Straxovanie. Uchebnik. M.: izdatel'stvo «YUNITI», 2000 g.
13. G. Gomellya. Osnovu straxovogo dela. Uchebnoe posobie. – M.: izdatel'stvo «SOMINTEK», 1998 g.
14. V.B. Kutunov. Osnovu finansovoy i straxovoy matematiki. –M.: izdatel'stvo «DELO», 1998 g.
15. Devid Bland. Straxovanie: printsipu i praktika. –M.: izdatel'stvo «Finansu i statistika», 1998 g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. A.N. Zubets. Straxovoy marketing. -M.: izdatel'stvo «ANQIL», 1998 g.
2. I.T. Balabanov, V.N. Stepanov. Zanimatel'noe straxovanie. –M.: izdatel'stvo «Finasu i statistika», 1998 g.
3. Priktikuem po straxovomu delu. Pod red. V.I. Ryabikina. –M.: izdatel'stvo «Finstatiform». 1998 g.
4. X.M. SHennaev. Straxovanie kak stratigicheskaya sfera ekonomiki. –jurnal «Ekonomika i statistika», №1 1998 g.

12-Mavzu: Sug'urta faoliyatining moliyaviy asoslari

Reja:

1. Sug'urta tashkilotlarining moliyasini tashqiliy asoslari va xususiyatlari.
2. Sug'urta tashkilotlarining daromadi va xarajatlari.
3. Sug'urta xodimlarining ish xaqi va ragbatlantirish tizimi.
4. Moliyaviy rejalashtirish va xisobotlar tuzish.

1. Sug'urta tashkilotlarining moliyasini tashqiliy asoslari va xususiyatlari

Mamlakatimizda sug'urta tashkilotlarining moliyasi tabiiy ofatlar, kutilmagan xodisalar natijasida etkazilgan zararlarni qoplash va ularni oldini olish maqsadida shakllangan pul resurslari fondlari bilan bog'liq munosabatlarni ifoda etadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin markazlashgan sug'urta fondi o'rniga markazlashmagan ayrim davlat aktsiyadorlik va xususiy sug'urta kompaniyalarining moliyasi shakllandi.

Mustaqillik yillarida sug'urta markazlashgan tartibda emas, balki markazlashmagan tartibda boshqarila boshlandi. Xozirda xar bir sug'urta tashkiloti o'zining mustaqil moliyasiga ega bo'lib, ular orasida davlat aktsiyadorlik sug'urta

tashkilotlari O'zagrosug'urta, Kafolat, O'zbekinvest va Madad sug'urta tashkilotlarining mustaqil moliyalari markaziy o'rin tutadi.

Xozirda sug'urta tashkilotlarining moliyasini tashqil etuvchi pul munosabatlari ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqa:

1. Sug'urta ximoyasi tashqil qilish bilan bog'liq pul munosabatlari.
2. Sug'urta fondini tashqil qilish bilan bog'liq pul munosabatlari.

O'z navbatida sug'urta ximoyasini shakllantiruvchi pul munosabatlari yana ikki bosqichdan o'tdi. Birinchi bosqichida sug'urta fondini shakllantiruvchi taqsimlash munosabatlari, ikkinchi bosqichda undan foydalanish bilan bog'liq investitsiya munosabatlari amalga oshiriladi.

Sug'urta fondlari tarif asosida xisoblanadigan sug'urta to'lovlari asosida shakllanadi.

Sug'urta to'lovlarini qabul qilish va uning sarflanishi bir vaqtda sodir bo'lmasdan, turli vaqtlarda sodir bo'ladi. To'plangan sug'urta mablag'larining bir qismi sug'urta tashkiloti ixtiyorida qoladi. Lekin bozor iqtisodiyoti davrida sug'urta tashkiloti faqat o'z xarajatlarini qoplash bilan chegaralanmay, balki foyda olishni xam ko'zda tutadi.

Lekin shuni aytilish kerakki, bu urinda «foyda» atamasi shartli ma'noda qo'llaniladi, chunki sug'urta tashkilotlari milliy daromad xosil qilishda qatnashmaydilar. SHuning uchun sug'urta tashkilotlari katta xajmda foyda olishga intilmasliklari kerak, chunki buning natijasida sug'urta tashkiloti bilan sug'urtalanuvchi o'rtasidagi ekvivalentlik tamoyili buziladi. Foyda deganda shunday ijobiy natija ko'zda tutiladiki, sug'urta ximoyasini amalga oshirish maqsadida daromadlarning xarajatlardan oshgan xolda muvozanatlanishi ta'minlanadi. SHunga qaramasdan xududda kamroq zarar ko'rilsa, sug'urta tashkilotlarining foyda miqdori ba'zan yuqori bo'lishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari foydasining asosiy manbai uning investitsiya faoliyati xisoblanadi. Bu faoliyat natijasida sug'urta fondi mablag'larining bir qismi tijorat maqsadlarini ko'zlab sarflanadi.

Sug'urta faoliyatining maqsadi ulkan ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan ko'rsatiladigan xizmatlar bo'lsa, investitsiya faoliyatining maqsadi esa foyda olishdan iborat. Xaqiqatdan xam bu ikki yo'nalish o'zaro uzviy bog'langan.

SHunday qilib sug'urtalanuvchining moliyaviy barqarorligining negizi ularning ustav kapitalini va sug'urta zaxiralarini mavjud bo'lishi, shuningdek, qayta sug'urta qilish tizimidan olingan manfaatdorlik xisoblanadi.

2. Sug'urta tashkilotlarining daromadi va xarajatlari

Sug'urta tashkilotlari daromad va xarajatlarining muvozanati ularning barqarorligini ifoda qiladi.

Sug'urtalanuvchilar zimmalariga olgan sug'urta majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida shaxsiy sug'urta bo'yicha bo'lg'usi to'lovlar, mulkiy va javobgarlik sug'urtasi bo'yicha zaxiralarni vujudga keltiradilar. Bu zaxiralar

musodara qilinishi mumkin emas. Sug'urtalanuvchilar soliqlar to'langandan keyin qoladigan va o'z ixtiyorlariga kelib tushadigan daromadlaridan o'z faoliyatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan fondlar tashqil qilishlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlarining daromadlari sug'urta tadbirlaridan daromadlar, investitsiya faoliyatlaridan va boshqa tushumlar xisobidan shakllanishi mumkin. Sug'urta to'lovlari sug'urta tashkilotlarining birlamchi daromadidir. Uning asosida sug'urta mablag'larining doimiy xarajatlari amalga oshiriladi, shu bilan birga u investitsiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlashining manbai xisoblanadi.

Sug'urta xarajatlariga mablag' sarflash bilan uning ixtiyoriga daromadlarning kelib tushishi o'rtasida muayyan vaqt o'tadi. Bu vaqt davomida daromad bilan xarajatning farqidan, ya'ni daromadlarni xarajatlardan oshgan qismidan foydalanish mumkin. SHaxsiy sug'urtada zaxira mablag'lari 10 va undan ko'p davrda sug'urta ixtiyorida bo'lishi mumkin undan tashqari aloxida zaxira va rezerv fondlari shakllanadi. Demak, ular o'n yillar davomida xarakatsiz yotishi mumkin. Bu imkoniyatlar sug'urta fondidan sug'urtalovchining qarz fondini shakllantirishga, tijorat munosabatlarida qatnashishga imkon beradi.

№	Balans moddalarining nomi	So'mmasi
Daromadlar		
1.	Sug'urta faoliyatidan	
1.1	Sug'urta operatsiyalari bo'yicha	
.		
1.1	Sug'urta shartnomalari bo'yicha	
.1	sug'urta badallari	
1.1	Qayta sug'urtalash shartnomalari	
.2	asosida olingan sug'urta badallari	
1.1	Sug'urta rezervlarini qaytarish (Xayot	
.3	sug'urtasi mol-mulk sug'urtasi	
	javobgarlik sug'urtasi bo'yicha).	
1.2	Boshqa sug'urta daromadlari	
.		
1.2	Moliyaviy quyilmalardan	
.1		
	Obligatsiya aktsiyalari bo'yicha	
	dividendlar	
	Qushma korxonalar faoliyatida	
	birgalashib qatnashishdan	
II.	Sug'urta faoliyatidan tashqari	
	faoliyatdan	
	Moliyaviy quyilmalardan	

	Qimmatbaxo qog'ozlar, aktsiyalar va obligatsiyalardan olingan dividendlar	
Barcha daromadlar		
III. Amortizatsiya		
Xarajatlar		
	Sug'urta ta'minoti va qoplamalarini to'lash	
	Sug'urta rezervlarini to'ldirish uchun ajratmalar (Xayot, mol-mulk sug'urtasi, javobgarlik sug'urtasi)	
	Ogoxlantirish tadbirlariga ajratmalar	
	Sug'urta badallarini qayta sug'urtalashga joylash	
	Sug'urtani boshqarish	
	Boshqa xarajatlar	
	Xarajatlarning jami	

Sug'urtalovchining bu mablag'lari xalq xo'jaligining xar bir tarmog'iga kredit to'g'ridan-to'g'ri berish qimmatbaxo qog'ozlar sotib olish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilishi mumkin.

Bundan tashqari sug'urta tashkilotlari kadrlar tayyorlash, maslaxat berish va boshqa xizmat ko'rsatishdan xam daromad olishlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlarining xarajatlari sug'urta fondining taqsimlanishi jarayonida shakllanishi mumkin. Bu xarajatlar ikki bir-biriga bog'liq iqtisodiy jarayonga xizmat qiladi.

1. Sug'urta bo'yicha zararlarni qoplash majburiyatlarini sug'urtalanuvchilarga to'lash.
2. Sug'urta tashkiloti faoliyatini mablag' bilan ta'minlash.

Xarajatlarni quyidagi moddalarga ajratish mumkin.

1. Sug'urta qoplamalari va sug'urta ta'minotiga mablag' ajratish
2. Sug'urta rezervlariga mablag' ajratish
3. Ogoxlantirish tadbirlariga mablag' ajratish
4. Mablag'lardan bir qismini qayta sug'urtalashga o'tkazish
5. Sug'urtani boshqarishga mablag' ajratish
6. Boshqa xarajatlar

Bu xarajatlarning xammasi sug'urta xizmatlarining tannarxini tashqil qiladi. Tannarxni ikki guruxga bo'lish mumkin:

1. Keng ma'nodagi tannarx
2. Tor ma'nodagi tannarx

YUqoridagi sanab o'tilgan barcha xarajatlar keng ma'nodagi xarajatlarga kiradi. Sug'urtani boshqarish xarajatlari esa (ma'muriy) tor ma'nodagi tannarxga misol bo'ladi.

Jaxon amaliyotida sug'urtaning boshqarish xarajatlari ekvizatsion inkassa, tugallash va boshqarish xarajatlariga bo'linadi. ekvizatsion xarajatlar shartnoma tuzish maqsadlarida amalga oshiriladi. SHartnoma tuzishdan oldin tibbiyot ko'rigidan o'tish kerak. Inkassa xarajatlari sug'urta to'lovlarini to'lash bilan bog'liq bo'lib, xodimlarga mexnat xaqi sifatida beriladi. Tugallash xarajatlariga sug'urta komissiyalari va eksportlarning sug'urta xodisasi sodir bo'lgan joylarga borishlari bilan bog'liq yo'l xaqi, sud xarajatlari, aloqa xarajatlari va boshqalar kiradi. Boshqarish xarajatlari xodimlarning ma'muriy idora xarajatlaridan tashqil topadi.

Sug'urtalanuvchining daromad va xarajatlarini taqqoslab sug'urta tadbirlarining yakunlari aniqlanadi. Bu ko'rsatkich sug'urta tashkilotining barcha faoliyati va sug'urtalashning xar biri bo'yicha xisoblanadi.

Moliyaviy natija ikki ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

1. Sug'urtalovchining foydasi (zarari)
2. Badallar rezervining ko'payishi.

Sug'urta tadbirlaridan olinadigan foyda sug'urta xizmatlari ko'rsatish baxosi bilan uning tannarxi o'rtasidagi farq sifatida xisoblanadi. Daromadlik darajasi rentabellik sifatida yillik foyda miqdorini yillik sug'urta badallari miqdoriga munosabati sifatida aniqlanadi.

Sug'urta tadbirlaridan olinadigan foydadan tashqari investitsiya tadbirlaridan xam foyda olinishi mumkin.

Sug'urta tashkilotining sug'urta tadbirlari va investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlari daromad solig'iga tortiladi.

Sug'urta xodisalarining tasodifiy sodir bo'lishi qulay sharoitlar va ayrim yillarda ortiqcha mablag'lardan zaxira fondini shakllantirishni taqozo etadi. Bu tadbir sug'urta tashkilotlari moliyaviy axvolini barkaror bo'lishini ta'minlaydi.

Rezerv-(zaxira) fondlarini manbai netto stavkasining ortib qolgan mablag'i bo'lib, bu qoldiq, yildan yilga ko'payib va noqulay yilda sarflash uchun to'planib boriladi. Noqulay yillarda xarajatlarning daromadlaridan ortgan qismi ana shu rezerv fondlari xisobidan qoplanadi.

Sug'urta soxasida zararining 3 xili kuzatiladi.

Birinchi xilga xar yili takrorlanib turadigan bir me'yordagi zararlar xajmi kiradi, ikkinchisiga o'rtacha zarardan ko'proq sodir bo'lgan zararlar, uchinchisiga esa ulkan sifatlar natijasida xosil bo'lgan katta miqyosdagi zararlar kiradi. Birinchi va ikkinchi xil zararlarni sug'urta tashkiloti xisobidagi zaxira fondlari xisobidan qoplansa, uchinchi xildagi zararlar esa katta miqdordagi zaxira fondini tashqil qilishni talab qiladi.

Katta miqdordagi zaxira fondlari bir necha sug'urta tashkiloti ishtirokida tashqil qilinishi mumkin. Bunday fondlarni tashqil qilishda qayta sug'urtalash

usullaridan xam foydalanish taqim qilinadi. Bundan tashqari sug'urta zaxiralarini shakllantirishda badallar rezervlardan xam foydalaniladi.

3. Sug'urta xodimlarining ish xaqi va rag'batlantirish tizimi

Bozor sharoiti sug'urta xodimlarining ish xaqi va rag'batlantirishni amalga oshirishni yangi usullarini tavsiya qiladi. Ilgari sug'urta xodimlarining ish xaqi markazlashtirilgan shaklda amalga oshirilsa, endi xar bir sug'urta tashkiloti ish xaqi tizimini o'z sharoitiga qarab belgilaydi. Ish xaqi ikki yo'nalishda belgilanadi.

Birinchisi, vaqtbay ish xaqi. Bu ish xaqining asosan sug'urta soxasidagi mutaxassislarga nisbatan joriy qilinadi va quyidagi formula asosida belgilanadi.

V P k K xt

P vaqtbay ish xaqi

K shartnoma ish xaqi stavkasi

T bajarilgan ish vaqti (oy)

Bundan tashqari o'z vazifalarini bajarishda yuqori ko'rsatkichlarga erishgan xodimlarga ish xaqiga mukofot qo'shib berilishi mumkin, bunda ish xaqini vaqtbay mukofot usuli deb ataladi.

Sug'urta tashkilotlarida umumiy shtatda ko'rsatilgan xodimlar bilan birga shtatdan tashqari xodimlar xam xizmat qilardi.

Ish xaqi fondini xisoblashda quyidagilar xisobga olinadi.

1. Ta'rif stavkalari bilan xisoblangan ish xaqi
2. Mukofotlar
3. Bayram va dam olish kunlarida ishlagani, xizmat komandirovka (safar) xarajatlar
4. Mexnat ta'tili uchun to'langan xarajatlar
5. O'rindoshlik yo'li bilan bajariladigan xizmat xaqi
6. Ijtimoiy sug'urta yo'li bilan beriladigan nafaqa

Bundan tashqari sug'urta tashkilotlarining foydasi xisobidan sug'urta xodimlarini maishiy axvolini yaxshilash fondi tashqil qilinib, uning xisobidan mukofotlar berilishi mumkin.

4. Moliyaviy rejalashtirish va xisobotlar tuzish

Moliyaviy prognozlash markazlashtirilgan tartibda emas, balki markazlashtirilmagan tartibda amalga oshiriladi. Xar bir davlat va xususiyl sug'urta tashkiloti o'z faoliyatini rejalashtiradi.

Rejalashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Rejalashtirilish maqsadi aniqlanadi
2. Xar bir maqsadni amalga oshirish uchun sarflanadigan mablag'lar va xosil bo'ladigan daromadlar aniqlanadi
3. Rejani bajarish bosqichlari aniqlanadi
4. Rejani tekshiriladi, baxolanadi va tegishli xulosa chiqariladi.

Sug'urta tashkilotining rejasi asosan daromad va xarajat balansi shaklida tuziladi.

Bu moliyaviy rejaning asosi sug'urta to'lovlarining tushumi xisoblanadi. Sug'urta to'lovlari tushumining rejalashtirganda, birinchi navbatda xuquqiy va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar e'tiborga olinadi. Rejalashtirish sug'urtaning xar bir turi bo'yicha amalga oshiriladi.

Rejalashtirish quyidagi bosqichlarni o'zida mujassamlashtiradi:

1. Joriy yilda olinishi kutilgan to'lovlar tushumi
2. Shartnomaning soni, bir shartnomaga to'g'ri keladigan to'lov miqdori.

Bu ikki ko'rsatkichni aniqlab, sug'urta tushumining miqdori aniqlanadi. Bunda ayrim sug'urta to'lovlarining muddati va xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Uchinchi bosqichda ko'rsatkichlarni xar bir ijrochiga etkazish, ma'lum qilish kerak bo'ladi. Xar bir sug'urta agenti o'zining reja ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Yillik reja choraklarga bo'lib xisoblanadi.

Sug'urta tashkilotining moliyaviy rejasi daromad va xarajat bo'limlariga ajratilib aloxida jadvallarda tuziladi. Bunda sug'urta tashkiloti daromad va xarajatlarning xar bir turi ko'rsatiladi.

Masalan, «O'zagrosug'urta» cheklanmagan miqdorda sug'urta fondini belgilashi mumkin. Zaxiraviy fondlar ustav fondining 25 foizini tashqil qiladi, u kompaniya daromadi xisobidan tashqil qilinadi.

Kompaniya o'z faoliyatini amalga oshirish uchun boshqa fondlarni xam tashqil qilishi mumkin.

Sug'urta kompaniyasi moliyaviy xo'jalik faoliyatining asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlariga mablag'lar tushumlari va ishlab chiqarish xarajatlarga ajratiladigan mablag'lar, zaxiraviy fondlar, ish yuritish xarajatlari kiradi.

Soliq to'langandan keyin kolgan daromaddan kompaniyaning fondlarini tashqil qilish va ko'paytirishga yo'naltirilgan mablag'lar ish xaqi fondi, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarish va moddiy rag'batlantirish fondlari chegirib tashlangandan keyin sof foyda aniqlanadi. Bu foyda dividendlar shaklida aktsiyadorlar orasida egalik qilayotgan aktsiyalari soniga qarab proportsional taqsimlanadi.

Sug'urta kompaniyalari o'z faoliyati yuzasidan buxgalteriya va statistika xisobotini olib boradi. Yillik xisobot aktsiyadorlarining umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.

Tayanch so'z va iboralar

1. Sug'urta tashkilotining daromadi
2. Sug'urta tashkilotining xarajati
3. Sug'urta tashkilotlari moliyaviy rejasi
4. Moliyaviy xisobot
5. Sug'urta nazorati

Nazorat uchun savollar

1. Sug'urta tashkilotlari moliyasining tashqiliy asoslari nimalardan iborat?
2. Sug'urta tashkilotlari moliyasining xususiyatini sanab bering.
3. Sug'urta tashkilotlarining daromadlari nimalardan tashqil topadi?
4. Sug'urta xodimlarining ish xaqi qanday xisoblanadi?
5. Sug'urta xodimlarini rag'batlantirish qanday amalga oshiriladi?
6. Moliyaviy rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Moliyaviy xisobotlar qanday tuziladi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati xaqida»gi qonuni Toshkent 2002 y.
3. I.A.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida» T-«O'zbekiston» 1995 yil.
4. I.A.Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T-«O'zbekiston» 1998 yil.
5. I.A.Karimov «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'llari» T-«O'zbekiston» 1998 yil.
6. I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T-«O'zbekiston» 1998 yil.
7. X.R.Sobirov «Sug'urta 100 savol va javob» T-«Mexnat» 1998 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. X.R.Sobirov «Xitoyda sug'urta» «Iqtisod va xisobot» 1998 yil.
2. X.R.Sobirov «Axmoniylar davrida soliq isloxoti» «O'zbekiston soliqlari xabarnomasi» 1996 yil.
3. Pulov K.I. «Straxovoe delo v Rossii» M-Edma 1998 g.
4. E.V.Kolomina, V.V.SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
5. L.I.Reytmana «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1999
6. V.V.SHayxov «Vvedenie i straxovanie» M-«Finansu i statistika» 1997 g.
7. Straxovoe delo. Uchebnik pod ref. Prof. L.I.Reytmana. M-«Bankovskiy i birjevoy nauchno-konsul'tatsionnuy tsentr» 1996 g.
8. I.A.Krasnova. Straxovanie s fond finansovo-kredit s otnosheniya» M-«Anqil» 1997 g.
9. K.E.Turbinova. Obxestva vzaimnogo straxovaniya. M-«Anqil» 1996 g.

13-Mavzu: Jaxon mamlakatlarida sug'urtaning rivojlanish xususiyatlari

Reja:

1. Jaxon mamlakatlarida sug'urtaning notekis rivojlanishi.
2. Jaxon mamlakatlarida sug'urta tashkilotlarini turlari va amalga oshiriladigan sug'urta usullari.
3. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urtaning tashqiliy xususiyatlari.
4. Fan va texnikaning taraqqiyoti natijasida yangi xavf-xatarlarni vujudga kelishi va sug'urtaning yangi turlarining shakllanishi.

1. Jaxon mamlakatlarida sug'urtaning notekis rivojlanishi

Bryusseldagi falokatlar bo'yicha tadqiqot markazi ma'lumotlariga qaraganda so'nggi 30 yil ichida dunyoda tabiiy falokatlardan 36 millionga yaqin kishi xalok bo'ldi, 3 milliard kishi jabrlandi umumiy iqtisodiy zarar 340 milliard dollarni tashqil etdi.

Oddiy xisob-kitoblarga qaraganda falokatlar, avariylar tabiiy ofatlar natijasida xar yili ikki millionga yaqin kishi xalok bo'ladi, xamda bir necha o'n million kishi zararlanadi va jaroxat oladi. Ayni vaqtda jaxon iqtisodiyotida ishlab chiqarilgan yalpi maxsulotlarning taxminan 4-5 foizining bevosita va bilvosita zararlar tashqil qiladi.

O'tgan asrning 1998 yili o'zida jaxonda falokatli oqibatlar keltirgan 538 tabiiy ofat yuz berdi va ellik mingga yaqin kishi xalok bo'ldi, 126 million kishi jabrlandi, istiqomat joylarini tashlab ketishga majbur bo'ldi. Dovullar, bo'ronlar, er kuchishi, to'lqinlardan 300 million kishi jabrlandi.

Xulosa qilib aytganda nobudgarchiliklarni o'rnini qoplash uchun 90 milliard dollardan ko'proq mablag' sarflandi.

Keltirilgan raqamlar jaxon miqyosida barcha mamlakatlarda sug'urtalash katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Agarda, sug'urtalash barcha mamlakatlarda bir tekisda amalga oshirilganda edi, sug'urta pulining anchagina qismi ogoxlantirish, oldini olish tadbirlariga sarflangan bo'lar edi. Ko'rilayotgan zararlar miqdori ancha kamaygan bo'lar edi. Ushbu omillar sug'urtaning xalqaro miqyosidagi ulkan ahamiyatini ko'rsatib beradi. SHu bilan birga jaxonda sug'urtalash etarli darajada rivojlanmaganini ko'rsatadi.

Xozirda o'z sug'urta tizimiga ega bo'lmagan mamlakatni izlab topish qiyin. To'g'ri ayrim Afrika mamlakatlarida milliy sug'urta ishlarini xorijiy mamlakat sug'urta kompaniyalari bajaradi. AQSH ning sanoatlashgan shaxarlaridan tortib, Osiyo va Afrikaning ichkarisida kichik mamlakatlarigacha, Xitoyda, Xindistonda, Avstraliyada sug'urtaning turli shakllari joriy qilingan. Sug'urta biznes usullaridan biri desak xato qilmagan bo'lamiz. Biz sug'urta tashkilotlari XYII asrda Angliyada ko'rtak ota boshlaganligini ko'rsatgan edik, XYIII asrda sug'urta Angliyadan Rossiyaga ko'chgan, dastlab xorijiy sug'urta tashkilotlari, keyinchalik, milliy sug'urta tashkilotlari barpo qilingan. XIX asr oxirlarida Turkistonda uning filiallari qad ko'targan, XIX asrlarda jaxon mamlakatlarida sug'urtaning bir tekisda

rivojlanmaganligi sabab, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi bir xil bo'lmaganligidir. Iqtisodiyoti tez rivojlangan mamlakatlarda sug'urtaning rivojlanish sur'ati sekin bo'lmagan mamlakatdagi xususiy monopolistik tashkilotlarning va korxonalarning iqtisodiy taraqqiyoti sug'urtaning tez rivojlanishiga imkoniyatlar yaratib bergan, lekin jaxon mamlakatlarida sug'urtaning xalqaro xisoboti eksport va import kabi namunali yo'lga ko'yilmagan. SHu sababli xar bir mamlakatning jaxon sug'urta tizimidagi o'rni xaqida batafsil ma'lumotlarga jaxon bo'yicha qoplangan zararlarni umum miqdorini xisoblab chiqish imkoniyatiga ega emasmiz, lekin ko'rsatkichlar xam jaxon sug'urtasi xaqida batafsil ma'lumot berishi qiyin, o'rtacha ko'rsatkichlar esa aniq tasavvur bermaydi.

Sug'urta xaqida ilmiy jixatdan tasavvur beradigan ko'rsatkich xar bir mamlakatdagi sug'urta badali sug'urta mukofotining miqdoridadir. Aniqrog'i bu ko'rsatkichning milliy daromad va ijtimoiy maxsulotda to'tgan o'rni, qolaversa sug'urta badalining jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi, shuningdek sug'urta tashkilotlarining soni orqali ifodalanishidadir.

Sug'urta tashkilotlarining soni jixatidan AQSH, Angliya va Kanadani peshqadam deb ko'rsatsak, mubolaga qilmagan bo'lamiz.

Sug'urta xissasi jaxon sug'urta to'lovlarining 40% dan ortig'ini tashqil qiladi. Evropa mamlakatlarida 30% ortiq, Osiyo mamlakatlari 25 %, Afrika mamlakatlarida esa 1,0% atrofida.

Keltirilgan raqamlar ancha eskirgan, lekin keyingi yillarda Pokiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda sug'urtaning rivojlanishida ancha siljish bo'lganligini ko'rsatib o'tish kerak. Sug'urta to'lovining jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi xam bizning xulosalarimizni to'ldirishi mumkin. Bu ko'rsatkich bo'yicha SHvetsariyada 2,4 ming, Amerikada 1,8 ming dollar. Xitoyda atigi 2,4 dollarga to'g'ri keladi. SHunday qilib jaxon mamlakatlarida sug'urtaning turlicha rivojlanishiga sabab bir tomondan tabiiy ofatlar va baxtsiz xodisalarni xar bir mamlakatlarning sharoitiga qarab turli muddatlarda va miqyoslarda takrorlanib turishi bo'lsa, bu mamlakatlarda qishloq xo'jaligida asosiy o'rinni egallagan, dexqonlarning sug'urta imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun etarli sharoitlarga ega emasliklaridadir.

90-yillarga qadar jaxon miqyosida shaxsiy sug'urtaning xissasi mol-mulk sug'urtasiga nisbatan ancha ortiq edi. 90-yillardan keyin shaxsiy sug'urta dinamikasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mulk sug'urtasiga nisbatan shaxsiy sug'urtaning ustun rivojlanishi davom etmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining 90-95 yil ma'lumotlariga qaraganda kit'alar va mamlakatlar bo'yicha shaxsiy sug'urtaning xissasi quyidagicha:

Evropa 31% shu xisobda Buyuk Britaniyada 9,3%, Frantsiyada 5,5%, Germaniyada 5%, Rossiyada 2,7%, Gollandiyada 1,8%, Osiyoda 34%, shu xisobda Yaponiyada 28,7, Janubiy Koreyada 3,2%, SHimoliy Amerikada 31%, shu xisobda AkSHda 29,1%, Kanadada 2,3%, Okeaniyada 1,8%, Afrikada 1,3%, Lotin Amerikasida 0,3%, xayot sug'urtasida Yaponiya peshkadamlik qilmoqda (1,645 trln dollar) undan keyin SHvetsariya (1,635 trln dollar), AQSH 6-o'rinda, uning

sug'urta kapitallari YAponiya fondining yarmiga teng. Rossiya 27-o'rinda, YAponiya sug'urta fondining 1,8 qismiga teng.

Lekin AQSH sug'urta tizimida shaxsiy sug'urta mulk sug'urtasiga qaraganda ustun xisoblanib, uning sug'urta fondidagi xissasi 70% teng keladi.

2. Jaxon mamlakatlarida sug'urta tashkilotlari va amalga oshiriladigan sug'urta turlari

Jaxonda ish olib borayotgan necha 10 minglab katta kichik sug'urta tashkilotlari, ularning filiallari tuzilishi bir xil emas. Bu tashkilotlarni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin.

- 1) Fuqarolarning barcha tabaqalarga xizmat qiluvchi aktsiyalar birja va boshqa yo'l bilan sotiladigan erkin sug'urta kompaniyalari.
- 2) Xususiy xissadorlik sug'urta kompaniyalari, bu tashkilotlarning xususiyati shundan iboratki uning aktsiyalariga ma'lum doirada shaxslar egalik qiladilar. Jamiyat qarori bilan ishonchli kishilar ularning aktsiyalarini sotib olishi mumkin.
- 3) Davlat sug'urta kompaniyalari, ularning aktsiyalariga davlat to'la yoki qisman egalik qiladi. Bundan tashqari davlat tomonidan ayrim ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari barpo qilinishi mumkin. Bu tashkilotlar eksportni sug'urtalash yoki qayta sug'urtalashga yordam berishlari mumkin.
- 4) O'zaro sug'urtalash jamiyatlari. Ayrim ishlab chiqarish soxalari bunday sug'urta kompaniyalari tuzilib ularni asosiy maqsadi foyda olish bo'lmasdan murakkab vaziyatlarda bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishdir.
- 5) Ayrim sanoat va savdo tarmoqlariga xizmat qiluvchi ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari. Masalan, aviatsiya soxasida sug'urtalash chegaralangan bo'lgani uchun, ular o'z tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashgan tashkilotlarni tuzadilar, bundan tashqari «Lloyd» sug'urta tashkilotiga uxshash sug'urta sindikatlari xam mavjud.

Bu sanab o'tilgan sug'urta tashkilotlarining daromadlari sug'urta to'lovlari, chiqargan aktsiyalar bo'yicha dividendlar xisobiga shakllanadi.

Sug'urta tashkilotlari ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan asosda o'z ishlarini tashqil qiladilar, ixtisoslashmagan sug'urta tashkilotlari sug'urtaning bir necha turlari bo'yicha o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari ko'pincha 1-2 ixtisosli yo'nalishlarda ish olib boradilar. Dastlab shuni aytish kerakki, bunday ixtisoslashish 1978 yil 1 yanvardan boshlab tashqil qilingan Evropa iqtisodiy xamkorlik tizimida to'laroq ifodasini topgan. Bu tizimda sug'urtaning barcha turlari dastlabki ikki turga bo'linadi: uzoq muddatli va qisqa muddatli umumiy sug'urta guruxlari.

Uzoq muddatli sug'urta turlariga quyidagi sug'urta yo'nalishlari kiradi:

1. Xayotni sug'urtalash.
2. Nikox va farzand tavalludini sug'urtalash.

3. Uzluksiz sog'-solomatlik sug'urtasi.
4. Kapitalning qayta sug'urtasi.
5. Pensiya sug'urtasi.
6. Boshqa xillardagi uzoq muddatli sug'urta usullari.

Sug'urtaning umumiy turlari

1. Baxtsizlik xodisalaridan sug'urtalash.
2. Betoblik sug'urtasi.
3. Avtomobil sug'urtasi.
4. Temir yo'l vagonlari sug'urtasi.
5. Samolyotlar sug'urtasi.
6. Kemalar sug'urtasi.
7. YUklarni transport sug'urtasi.
8. Mulklarni yong'in va tabiiy ofatlardan sug'urtalash.
9. Transport xaydovchilarini fuqarolik sug'urtasi.
10. Aviakompaniya egalarini fuqarolik javobgarligi sug'urtasi.
11. Kema egalarining fuqarolik javobgarlik sug'urtasi.
12. Umumiy javobgarlik sug'urtasi.
13. Kredit sug'urtasi.
14. Moliyaviy zararlar sug'urtasi.
15. Sud xarajatlari bo'yicha to'lovlar sug'urtasi.

3. Jaxon mamlakatlarda sug'urta tizimi va uning xususiyatlari

Sug'urta bozori tushunchasi ayrim mamlakatlar kulami va barcha jaxon mamlakatlari miqyosida qo'llaniladi. Jaxon sug'urta bozori o'z tarkibiga ko'ra rivojlangan va boshqa mamlakatlardagi sug'urta kompaniyalardan tashqil topgan bo'lib, jaxon miqyosida markaz jaxon sug'urta tashkiloti xuquqiy jixatdan bir butun assotsiatsiya sifatida shakllanmagan bo'lsa xam, lekin Evropa miqyosida bunday yuridik assotsiatsiya mavjud. Bo'lar tomonidan birgalikda qator umumiy qonunlar qabul qilingan.

Bunday assotsiatsiyalar faqat xuquqiy tomondan amalga oshirilmasdan, balki iqtisodiy jixatdan xam amalga oshirilmoqda. Bunday assotsiatsiyalarni shakllanishida qayta sug'urtalash muxim rol' o'ynamoqda. Ushbu mavzuda bunday sug'urta birlashmalarining barcha turlari xaqida ma'lumot berish qiyin, shu sababli ayrim mamlakatlar sug'urta tizimlari xaqida, asosan ularni tashqiliy tomonlari, boshqarish usullari bilan tanishib o'tamiz.

AQSH sug'urta biznesi uslubiy jixatdan Buyuk Britaniyadan keyin rivojlangan bo'lsa xam jaxon miqyosida to'tgan o'rni jixatidan tengi yo'q xisoblanadi. Uning sug'urta monopoliyalari rivojlangan industrial mamlakatlar sug'urta bozorining taxminan 50% ni nazorat qiladi. AQSH da 8000 dan ortiq mulk va 2000 ga yaqin xayotni sug'urtalash kompaniyalari faoliyat ko'rsatadi.

AQSH sug'urta tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mamlakat miqyosida yagona birlashgan markaziy sug'urta boshqarmasi bo'lmasada,

sug'urtani boshqarish xar bir shtat miqyosida tashqil qilingan va xar bir shtatning o'z sug'urta qonunlari mavjud.

Birinchi xususiyati shundan iboratki, AQSH da 3 shakldagi sug'urta mavjud. Bo'larning birinchisi, Bikifit (shaxsiy sug'urtasi) bu sug'urta faqat shaxsiy sug'urtadan iborat bo'lmasdan, tibbiyot sug'urtasi, omonatlar, pensiya sug'urtasini xam qamrab oladi.

Ikkinchisi tijorat sug'urtasi xisoblanadi, u sanoat tarmoqlari bo'yicha tashqil qilinadi. Sug'urta turlarining umumiy ko'llami xaqida gapirganda, barcha sug'urta kompaniyalarining aktivlari 1,6 trln. bo'lib, ushbu ko'rsatkich xar bir kompaniya bo'yicha 950 mln. dollarni tashqil qiladi. Bo'lar orasida 2 yirik sug'urta kompaniyasi bo'yicha aktiv 45 mlrd. dollarga teng keladi. Barcha sug'urta kompaniyalarining faoliyati 3 konsalting kompaniyasi tomonidan taxlil qilinadi.

Bu taxlilda to'lanadigan qoplama, daromadlar va foyda koeffitsienti debitorlik qarzlarini markaziy o'rin tutadi, taxlilda elektron bank markaziy o'rin tutadi.

Uchinchi xususiyati shundan iboratki, pensiya to'lovlari sug'urta kompaniyalarining obro'si yuqori bo'lganligi sababli pensiya ta'minotini boshqarish ularning ixtiyoriga berilgan. Pensiya fondlarini boshqargani uchun sug'urta tashkilotlari tegishli xizmat xaqi oladilar. Bundan tashqari o'z mablag'laridan investitsiya maqsadlari uchun foydalaniladi.

Sug'urta kompaniyalari Amerika sanoat kompaniyalari bilan birgalikda ishlaydilar. Tashqiliy jixatdan sug'urta ishlari aktsiyadorlik jamiyatlari bilan xamkorlikda sug'urtalash jamiyatlari bilan birgalikda ish olib boradilar. Ularning asosiy vazifalarini anderrayter va sug'urta brokerlari amalga oshiradilar. Masalan Prodneshnl jamiyatida 22 ming sug'urta brokeri xizmat qiladi. Steyd, Signa, Amerika Interneyshnl Grupp (AIG) sug'urta kompaniyalari jaxon miqyosida faqat sug'urta operatsiyalarinigina emas, balki kredit, xisob-kitob operatsiyalarini xam boshqaradilar.

Buyuk Britaniya sug'urta tizimi.

Buyuk Britaniya sug'urta bozorining markazi London xisoblanib, shaxar o'zining ko'p qirrali sug'urta faoliyati bilan jaxonda mashxur. Unda jaxondagi yirik sug'urta kompaniyalarining vakolatxonalari mavjud, ular faqat sug'urtalash bilangina emas, balki qayta sug'urtalash bilan xam shug'ullanadilar. Bo'lar orasida «Lloyd» sug'urta kompaniyasi markaziy o'rin egallaydi.

Buyuk Britaniya sug'urta bozorining xususiyati quyidagilardan iborat:

1. Axoliga xizmat ko'rsatadigan pensiya, investitsiya kompaniyalari faqat avtomobillargina emas, balki boshqa uy-ro'zgor mol-mulklari, javobgarlik, fuqarolik sug'urta va sug'urtaning boshqa turlari bilan xam shug'ullanadilar.
2. Aktsiyadorlar jamiyati xamkorlik sug'urtasi yo'li bilan o'zlariga tegishli sug'urta turlarini amalga oshiradilar.
3. Sug'urta tashkilotlari orasida Lloyd sug'urta tashkiloti markaziy o'rinni egalaydi, unga 400 sug'urta sindikatlari qaraydi. Ular anderrayterlar tomonidan boshqariladi. Bundan tashqari brokerlar tomonidan oddiy va qayta sug'urta shartnomalari tuziladi.

4. Sug'urta tashkilotlari ustidan savdo va sanoat departamentining sug'urta nazorat bo'limi nazorat o'rnatadi. Sug'urtaning ayrim turlari bo'yicha ruxsat olish uchun departament bo'limiga qator xujjatlar taqdim etiladi.
5. Qayta sug'urta xajmi cheklangan bo'lib, 10 dan 20% gacha olingan majburiyat xisobidan qayta sug'urtalanadi.
6. Savdo va sanoat departamenti xuzurida sug'urtalanganlar xuquqini ximoya qilish bo'limi bo'lib, bo'lim ixtiyorida maxsus fond tashqil qilingan, uning xisobidan zarar ko'rgan sug'urta tashkilotlariga dotatsiya beriladi.
7. Buyuk Britaniyada fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi mavjud. Transport, uy xayvonlari bundan tashqari buxgalterlar, advokatlarning kasb javobgarligi bo'yicha sug'urta shartnomalari tuziladi.
8. Moliyaviy xisobot auditor tekshiruvidan o'tadi.
9. Sug'urta tashkilotlari o'z foydasidan mol-mulk uchun soliq to'laydilar.

Germaniya sug'urta bozori.

Germaniya sug'urta bozorida mol-mulk sug'urtasi 51%, shaxsiy sug'urta 37%, tibbiyot sug'urtasi 12% ni tashqil qiladi. Bu sug'urta to'lovlari faqat fuqarolarga tegishli bo'lmasdan balki yuridik shaxslarga xam tegishlidir. Xammasi bo'lib sug'urta tashkilotlari faoliyati fuqarolarga xizmat ko'rsatish bo'yicha 87%, xuquqiy shaxslarga esa 13% ni tashqil qiladi.

Sug'urta faoliyati ikki yo'nalishga ega:

1. Ijtimoiy ta'minot.
2. Sug'urta xizmatini ko'rsatuvchi shaxs sektor.

Ijtimoiy ta'minot yo'li bilan qarilik, vaqtincha mexnat qobiliyatini yo'qotish, ishsizlik sug'urtalanadi.

Xususiy sektor 3 yo'nalishda faoliyat ko'rsatadi:

1. Aktsionerlik jamiyatlari mulkini sug'urtalash.
2. Xamkorlik (o'zaro) sug'urtasi.
3. Davlat sug'urtasi.

Sug'urtani boshqarish Germaniyada yaxshi yo'lga qo'yilgan. Maxsus sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qilish departamenti mavjud bo'lib, uning asosiy vazifasi sug'urtalanganlar xuquqini ximoya qilishdan iborat bo'lib, buning sababi Germaniyada sug'urta tashkilotlari keltirilgan zararlarni qoplaydigan fond tashqil qilinmaganidadir.

Sug'urta tashkilotlari federal viloyatlar (er organlari) tomonidan nazorat qilinadi. Barcha viloyat sug'urta kompaniyalari ustidan federal nazorat departamenti kuzatib boradi.

Germaniyada ixtiyoriy sug'urta bilan birga majburiy sug'urta xam mavjud bo'lib, bunda yollanib ishlovchilar, avtotransport egalarini uchinchi shaxsga

etkazgan zararlari, xavo transporti xodimlari, dori-darmon ishlab chiqaruvchilar majburiy tartibda sug'urtalanadilar.

Xar bir sug'urta tashkiloti yillik xisobot topshiradi. Sug'urta tashkilotlari daromadi soliqlar vositasi bilan tartibga solinadi. Sug'urta faoliyatidan 50% stavka bilan xayot sug'urtasidan tashqari tuzilgan barcha shartnomalar bo'yicha keladigan daromadlardan soliq olinadi.

YAponiya sug'urta tizimi

YAponiyada sug'urta dastlab XX asrning o'rtasida Buyuk Britaniyaning tashabbusi bilan vujudga kelgan. Faqat Ikogomayurtida 240 sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatgan. Lekin dastlabki milliy sug'urta tashkiloti 1879 yilda Tokio Marina nomi bilan 8 yil bo'lgandan keyin yong'inga qarshi sug'urtalaydigan YAsuda sug'urta kompaniyasi qad ko'targan.

Bu tashkilot faqat mulklarni sug'urtalash bilan emas, balki shaxsiy sug'urtani amalga oshirish bilan shug'ullangan bo'lib, lekin dastlabki davrlarda sug'urta tashkilotlari faoliyatlari davlat tomonidan emas edilar. Faqat 1900 yilda birinchi sug'urta qonuni qabul qilinib, sug'urta zamon talablariga javob beradigan tartibda tashqil qilina boshlandi, mulkiy sug'urta bilan shaxsiy sug'urta o'rtasidagi xususiyatlar aniqlandi. SHu yildan boshlab sug'urta ustidan davlat nazorati o'rnatildi. O'tgan 100 yil davomida sug'urta xaqidagi qonunga faqat ikki marotaba o'zgartirish kiritildi.

1940 yilda sug'urta tashkilotlarining soni 48 taga etdi. Urush davrida sug'urta tashkilotlarining soni bir muncha qisqargan bo'lsa xam, 1955 yilga kelib, ayniqsa avtomobillarni sug'urtalash xaqidagi qonun qaror qilingandan keyin, sug'urta tez sur'atlar bilan rivojlana boshlanadi. Xozirda YAponiyada 56 ta sug'urta kompaniyalari majud bo'lib, 1955 yilga nisbatan sug'urta to'lovlari 130 barobarga yaqin ko'paydi. Yillik o'sish 13% ni tashqil qildi. YAponiya iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida sug'urta tashkilotlarini jamg'armalari 100 mlrd. AQSH dollarini tashqil qildi. Sug'urta agentliklarida 1 mln.dan ortiq agent faoliyat ko'rsatadi.

Sug'urta turlari orasida avtomobillarni sug'urtalash katta o'rin tutadi, uning xissasi 51,1%, dengiz transporti sug'urtasi 10 % dan ortig'ni tashqil qiladi.

Sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan YAponiya Moliya vazirligi nazorat olib boradi. Vazirlik qoshidagi assotsiatsiyalar sug'urta, ayniqsa avtomobil sug'urtasining stavkasini, baxtsizlik xodisalari, yong'in sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha ta'riflarni belgilaydi.

YAponiya sug'urta tashkilotlari iqtisodiy jixatdan barqaror bo'lishlariga qaramasdan o'z faoliyatlarini kengaytirishga, buning uchun xarajatlarni kamaytirishga aloxida axamiyat berdilar. YAponiyada yuklarini sug'urtalash diqqatga sazovordir. Oziq-ovqat, sanoat tovarlari muzlatilgan go'shtlarni tashish aloxida xususiyatlarga ega. Bunda ta'rif qo'llangan marshrut yukning turi va tashish usuli xisobga olinadi. 1996 yil aprelda sug'urta qonuniga kiritilgan o'zgartirishlarda sug'urta ishida davlatning aralashuvini kamaytirish, mulk va shaxsiy sug'urtaning o'zaro munosabatlarini takomillashtirishga aloxida axamiyat berildi.

Axoli tarkibida qariyalarning xissasini oshirib borishi sug'urtalashda xam e'tiborga olinmoqda. Avtomobil' sug'urtasida xaydovchini yoshi, tajribasi, mashina markasi, olib qochish sodir bo'lganda qarshilik ko'rsatish vositalari va boshqalar e'tiborga olinadi. Keyingi yillarda sug'urta tizimini yiriklashtirishga aloxida e'tibor berildi.

SHunday qilib xorijiy mamlakatlarda sug'urta xalqaro sug'urta bozorining tarkibiy qismi xisoblanadi. Sug'urta yordami bilan yalpi milliy maxsulotining 8-12% taqsimlanadi. Sug'urta badallari yirik investitsiyalarning manbai xisoblanadi va sug'urta fondlaridan davlat qarzlarini to'lashda xam foydalaniladi.

Ko'pchilik mamlakatlarda sug'urta markazlashtirilmagan xolda boshqariladi, lekin xozirda sug'urtani boshqarishni markazlashtirilgan xolda tashqil qilishga aloxida axamiyat bermoqda. Uning uchun zarar ko'rgan sug'urta tashkilotlarini faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilmoqda.

Jaxon miqyosida mamlakatlar o'rtasida sug'urta aloqalarining rivojlanishi bilan qayta sug'urtalash operatsiyalarini kengaytirishga aloxida axamiyatga ega bo'lmoqda.

4. Fan - texnika taraqqiyoti natijasida yangi xavf-xatarlarning vujudga kelishi bilan sug'urtaning yangi turlarini shakllanishi

Jaxonda fan-texnika taraqqiyoti ilmiy texnika rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. SHu munosabat bilan boshqa mamlakatlarda amalga oshiriladigan yoki kelgusida istiqbolga ega bo'lgan sug'urtaning turlariga quyidagi xavf-xatarlarni kiritilishi mumkin.

1. Dastlab boshqa sayyoralarga muntazam kosmik kemalarining parvozini tashqil etilishi munosabati bilan osmonga uchish tadbirlari bo'yicha sug'urta.
2. Atom xavf-xatari sug'urtasi, bu sug'urta atom asosida ishlaydigan elektr stantsiyalarga doir sug'urta.
3. Robotlar va elektron xisoblash mashinalari bo'yicha sug'urta.
4. Tabiatni muxofaza qilish tadbirlari bo'yicha sug'urta.
5. YAngi ixtirolar va kashfiyotlarni ishlab chiqarishga joriy qilish bo'yicha sug'urta.

Xorijiy mamlakatlar sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta ishlarini tashqil etish bo'yicha kator tajribalar tuplangan. Mamlakatimizda sug'urta ishlarini kengaytirish uchun birinchi navbatda ushbu tajribalardan foydalanib, quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi lozim.

1. Sug'urta bozorini tashqil qilish va sug'urta nazoratini amalga oshirishni takomillashtirish.
2. Tashqi savdo bilan bog'liq tadbirlarni sug'urtalashni kengaytirish.
3. O'zbekinvest eIMSK faoliyatini kengaytirish.
4. Turizm va avtoturizmni sug'urtalashga aloxida axamiyat berish.

5. Kreditni sug'urtalashni kengaytirish.
6. Javobgarlik sug'urtasining boshqa turlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
7. Qurilish kommunal xo'jaligi korxonalarini sug'urtalash tadbirlarini ishlab chiqish.
8. Qishloq xo'jalik korxonalarini sug'urtalashni qayta ko'rish.
9. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urtalashni yangi usullarini joriy qilish.
10. Qayta sug'urtalash ishlarini yanada takomillashtirish.
11. Boshqa mamlakatlar bilan sug'urta soxasidagi xamkorlikni yanada kengaytirish, sug'urta soxasida xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlashni yaxshilash.

Tayanch so'z va iboralar

1. Evropa sug'urta bozori
2. YUklar sug'urtasi
3. AQSH sug'urta bozori
4. Buyuk Britaniya sug'urta bozori
5. Germaniya sug'urta bozori
6. YAponiya sug'urta bozori
7. Atom xavf-xatari sug'urtasi
8. Fuqarolik javobgarlik sug'urtasi
9. Lloyd sug'urta kompaniyasi
10. AIG sug'urta kompaniyasi

Nazorat uchun savollar

1. Jaxondagi mamlakatlarda sug'urta qanday rivojlangan?
2. Sug'urtaning notekis rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Evropa sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.
4. YAponiya sug'urta bozorining o'ziga xos jixatlari nimada?
5. Germaniyada sug'urtaning rivojlanish xususiyatlarini sanab o'ting.
6. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida sug'urtaning qanday yangi turlari shakllanmoqda?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati xaqida»gi qonuni Toshkent 2002 y.
3. I.A.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yo'lida» T-«O'zbekiston» 1995 yil.
4. I.A.Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T-«O'zbekiston» 1998 yil.
5. I.A.Karimov «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'llari» T-«O'zbekiston» 1998 yil.

6. I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T-«O'zbekiston» 1998 yil.
7. X.R.Sobirov «Sug'urta 100 savol va javob» T-«Mexnat» 1998 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Straxovoe delo. Uchebnik pod ref. Prof. L.I.Reytmana. M-«Bankovskiy i birjevoy nauchno-konsul'tatsionnuy tsentr» 1996 g.
2. E.V.Kolomina, V.V.SHaxova «Slovar' straxovux terminov» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
3. L.I.Reytmana «Straxovoe delo» M-«Finansu i statistika» 1999 g.
4. V.V.SHaxov «Vvedenie i straxovanie» M-«Finansu i statistika» 1997 g.

M U N D A R I J A

1.	Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.	2-7-betlar
2.	O'zbekistonda sug'urtaning shakllanish tarixi	7-13-betlar
3.	Sug'urta atamalari va tushunchalari	13-24-betlar
4.	Sug'urtaning guruxlanishi	25-30-betlar
5.	Sug'urta xuquqi	30-36-betlar
6.	Respublika sug'urta tashkilotlarini boshqarish	36-45-betlar
7.	Mol-mulk sug'urtasi	45-50-betlar
8.	Tadbirkorlik xavf-xatarlarini sug'ur-talash	50-56-betlar
9.	Qishloq xujaligi sug'urtasi	57-69-betlar
10.	SHaxsiy sug'urta va sug'urtaning boshqa yo'nalishlari	69-76-betlar
11.	Qayta sug'urtalash	76-83-betlar
12.	Sug'urta faoliyatining moliyaviy asoslari	83-92-betlar
13.	Jaxon mamlakatlarida sug'urtaning rivojlanish xususiyatlari	92-103-betlar

